

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
T A' L I M V A Z I R L I G I

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

**Mavzu: «MUSIQA DARSLARI, MUSIQA SAVODXONLIGI JARAYONIDA
BASTAKORLAR VA XALQ XOFIZLARI IJODIYOTINI O'RGANISH
METODLARI».**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Isoqulov G'ulom
Ilmiy rahbar: Sh.N.Mustafayev

Malakaviy bitiruv ishi musiqa nazariyasi va an'anaviy ijrochilik kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2015-yil -maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №)

Kafedra mudiri:

E.K.Jalilov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAK ning 2015-yil - iyundagi majlisida himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2016

**Mavzu: “MUSIQA DARSLARI, MUSIQA SAVODXONLIGI JARAYONIDA
BASTAKORLAR VA XALQ HOFIZLARI IJODIYOTINI O’RGANISH
METODLARI ”**

R E J A

KIRISH

I-BOB. Musiqa madaniyati darslari jarayonida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirish

1.1. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa savodini o’rganish yo’llari.

1.2. Musiqa savodini o’rgatishda interfaol usullar orqali mashg’ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi

1.3. Musiqa madaniyati darslarida faoliyatlar ketma-ketligiga amal qilish uslublari.

II-BOB. O’zbek bastakorlik va kompozitorlik san’atining tarixi va taraqqiyoti.

2.1. O’zbek musiqa ijodkorligida bastakorlik uslubining shakllanishi.

2.2. O’zbek kompozitorlarining hayoti va ijodi taraqqiyoti va tarixi.

2.3. Musiqa madaniyati darslarida o’zbek bastakorlari va xalq hofizlari ijodini o’rganish va tajriba – sinov ishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Muxtaram yurtboshimiz o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir" nomli asarida ... "Maqsadimiz bolalarimiz jahon san't olamiga chuqurroq kelib borsin, uning sir-asrorini, buyuk musiqa ijodkorlarining o'lmas merosini – bu Betxoven bo'ladimi, Shopen bo'ladimi, Motsar bo'ladimi, har tomonlama anglab yetsin, yuksak madaniyatli insonlar bo'lib kamol topsin" deya bejiz ta'kidlamaganlar.

Prezidentimizning bu so'zlari yosh avlodni mukammal tarbiyalashda, uning ongini va bilimini mustahkamlashda, dunyoqarashini kengaytirishda, kundalik rivoj topishida alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilarga saboq berish bilan bir qatorda uning madaniy yuksalishiga, san'at va adabiyotning chambarchast bog'liqligi vositalari bilan tarbiyalashda, shu bilan bir qatorda san'atning turli yo'nalishlari, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, televediniya, radio, teatr, kin ova boshqa xalqdagi madaniy yo'llardagi tarbiya sohalaridan foydalanish lozimdir.

Respublikamizda "Ta'lim haqida" qabul qilingan qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi chiqarilgan qarorlari zamon talab qilayotgan tub o'rganishlar bo'lib jamiyatimiz kelajagi va maqsadlariga javob beradigan davlat hujjatlari hisoblanadi. Shuning uchun, yosh avlodni tarbiyalashda belgilanayotgan islohatlarni hayotga tadbqiq qilishda bosqichma-bosqich o'tkazish nazarda tutilgan.

Milliy dasturni amalgam oshirishni ma'nosi, yangi talablarga javob bera oladigan tarbiyachilarni tayyorlash, o'quv standartlarini yaratish va yangi o'quv dasturlarida ishlash, umum ta'lim maktablarini tuzilish jihatidan qayta qurish, uch yillik ta'lim (o'rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlari, karb kolleji va akademik litsey) tizimiga o'tish, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalgam oshirish, ishtimoiy himoyani kafolatlash kabi masalalarni hal etish muammolari ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi muammolarni ko'zda tutgan holda bitiruv malakaviy ishning mavzusi bo'lmish "O'zbek kompozitorlarining xor asarlarida vatanparvarlik mavzulari" hozirgi davrda dolzarb muammolar turkumiga kirib, yosh avlodni har tomonlama yuksalgan shaxs bo'lib yetishiga ma'lum darajada foydali deb hisoblanadi.

O'zbek musiqa san'ati asrlar osha o'zbek xalqi tomonidan ulug' ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og'zaki uslubda shakllanib, rivojlanib kelgan; xalq orasidan ajoyib bastakorlar, ijrochilar yetishib chiqqan. O'zbek musiqa ijodkorligi asosan bastakorlik uslubida shakllanib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa o'zbek musiqa san'atida Yevropa musiqa nazariyasiga asoslangan kompozitorlik uslubi ham keng rivojlandi va bu uslubda o'zbek kompozitor - bastakorlari ham ko'plab musiqa durdonalarini yaratmoqdalar. Kompozitorlarning asosiy ijod manbai bu xalq musiqasidir. O'zbek bastakor va kompozitorlari ana shu cheksiz manbadan foydalanib musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilmoqdalar.

Umumta'lim maktablarda musiqa darslari - bu o'quvchilarning dunyoqarashi, yoki haqiqiy insonning shaxsiy mukammallashidir. Ko'zga ko'ringan pedagog V.A.Suxomilinskiy o'zining "Insonni qanday tarbiyalash kerak" nomli kitobida shunday degan edi. Men shunday tushunamankim, maktab shu vaqtda maktab bo'ladi kim, unda asosiy maqsadodamiygarchilik bo'lsa va har bir kichik odam uylanishi kerak, men kim man? Bu dunyoda men nima uchun yashamoqchiman?"

Baxtli insonlar dunyoda sodir bo'layotgan har bir voqealarga real ko'z bilan nazar tashlab-go'zallik, vatanparvarlik, qahramonlik, haqiqatga to'g'ri qarash, o'z so'zi ustidan chiqish kabi insoniy xususiyatlarga amal qilishlari lozim.

Musiqa bu inson qalbi, shuning uchun ham inson musiqasiz, san'atsiz tarbiya ololmaydi. Mustaqil Respublikamizning vazirlar mahkamasi chiqargan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da musiqa ta'lim vositalari bilan yosh avlodni tarbiyalash, o'tgan davr va hozirgi zamon kompozitorlari asarlari vositalari bilan tariximizni o'rganish va uni bilib olish imkoniyatidan foydalanish kabi maqsadlar

qo'yilgan. Sermazmunlik-bu musiqa san'atida xos xususiyatdir. Lekin "Musiqa va hayot" mavzusi umumta'lim maktablardagi musiqa darslarining asosiy negizi hisoblanadi.

Bu mavzu maktab musiqa soatlarining birinchi sinfigacha asosiy mavzu bo'lib o'tishi zarurdir.

Musiqa – bu hayotdir! Bolalar unga quloq tutib, musiqiy ohanglarning rivojlanishiga e'tibor berib, oylanib turib, qo'shiqlarni ijro etib, katta-katta simfonik asarlargacha musiqiy mavzularni tinglab ular nafaqat musiqa ma'nolarini anglaydilar, balki musiqa sirlarini va qoida-qonunlarini ham o'rgangan holda hayotiy voqealarni ham tushunadigan bo'lib tarbiyalanadilar.

Vatan-arabcha so'z bo'lib-ona yurt degani. Kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati, Vatan tushunchasi tarix davomida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'rganib, kengayib va rivojlanib kelgan. Ibtidoiy jamoa tizimi sharoitida muayyan qabila yoshargan Vatan hisoblangan. Qabila tuzimining yemirilishi, elatlar, sinflar va davlatlarni paydo bo'lishi bilan Vatan tushunchasi elat (xalq), davlat tushunchasini o'z ichida oladi va sinfiy xarakterga ega bo'ladi. Millatlarning kelib chiqishi bilan milliy chegara, milliy til va madaniyat, milliy an'analar ham vatan tushunchasiga tarkibiy qism bo'lib berdi.

Vatanparvarlik – kishilarning o'z ona yurtiga, Vatanga sadoqat va muhabbatini ifoda etuvchi tushuncha. Vatanparvarlik – xalq ommasiga xos xislat. Mehnatkash xalq ommasining taqdiri vatan taqdiri bilan, uning mustaqilligi va taraqqiyoti bilan bog'liq. Vatanparvarlik xalq ommasini chet el bosqinchilariga va ichki dushmanlariga qarshi, o'z vatannini gullab yashnashi uchun kurashga safarbar qiluvchi buyuk ma'naviy kuch hisoblanadi.

O'zbekiston kompozitorlarining juda ko'p asarlarida mehnatni, o'z xalqini, o'z Vatanini ardoqlash mavzulari tobora kengroq ko'zga tashlanmoqda. Bu asarlardagi tuyg'ular maktab o'quvchilarini har tomonlama yuksaltirib yuqorida aytilgan mavzular vositalari bilan yosh avlodni o'z mehnatini, xalqiga bo'lgan hurmatini va vataniga nisbatan sadoqatini e'zozlashga sababchi bo'la oladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlarda Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir. O'z tabiati bilan milliy va baynalminal bo'lgan musiqa san'ati bu borada eng ta'sirchang vositalardan. Musiqani tushunish, ongli idrok etish va uning orombaxsh ta'sir kuchidan ma'naviy oziq olish darslarda o'smirlarning vatanparvarlik va baynaminallik his-tuyg'ularini o'stirishga yordam beradi. Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida-vatanparvarlik yo'nalishidagi musiqiy asarlarni tanlash va bir tizimga solish aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni mumtazamligi va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi. Shu yo'nalishda musiqiy asarlarni tinglash va tahlil qilishda o'quvchilarni hissiy faolligini ta'minlash orqali ongli idrok etish darajalarini orttirish lozimdir. Maktab musiqa darslarida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash jarayonida o'qituvchining eng ta'sirchang va samarali pedagogic rahbarligini ta'minlashga erishish zarurdir. Shu mavzudagi xor asarlarni ijro etishida maktab musiqa o'qituvchisi o'quvchilaridan ko'tarinki ruhda, bardamlilik bilan, g'urur tuyg'ularida qo'shiqni aytishlariga o'rgatadi. Musiqa vositasi orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mavzulari bo'yicha reapublikamizda anchagina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bunga I.Qudratov H. Nurmatov, B. Azimov, Q. Mamirov, A. Hasanov, B. Fayziyev, D. Jamolov, D. Saipova, R. Tursunovlarni tadqiqot ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. O'zbek xalq musiqa san'atining badiiy-yestetik ta'lim-tarbiya doirasida o'rganilishi holatini yaxshilash, bu borada muayyan samaradorlikka yerishish, mumtoz musiqa asarlarining inson ruhiyatiga ta'siri kabi masalalarni o'rganishga D.Omonullayev, R.tursunov, A.Nazarov, M.Ismoilova, A.R.Baxriyev, D.M.Mullajonov, D.Djalilova kabi pedagogic san'ashunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida salmoqli o'rin ajratilgan. Zamonaviy o'zbek musiqashunosligi masalalari pedagogic-san'ashunos olimlar – R.Abdullayev, D.M.Mullajonov, O. Ibragimov, X. K.Ruzmetova, L.YU.Aksakalovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida batafsil yoritilgan. Auditoriyadan tashqari musiqa mashg'ulotlari boyicha I. Razzoqov, O. Ro'ziyeva, N. Tolliboyevlar dissertasiya ishlarida ma'lum darajada yoritib bergan. Bularning barchasi biz tomonimizdan

tanlangan mavzuni mustaqil tadqiqot muammo sifatida o'rganilganligini ko'rsatadi va mazkur tadqiqot mavzusini dolzarb pedagogic muammo sifatida ye'tibor yetish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti: Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari badiiy havaskorlik to'garaklarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni. Ilmiy tadqiqot obyekti: 1-son pedagogika kolleji talabalari

Tadqiqot predmeti: Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari badiiy havaskorlik to'garaklarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari badiiy havaskorlik to'garaklarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali shakl va uslublarini ishlab chiqish.

Bitiruv madakaviy ishning vazifasi

Musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlari D T S va o'quv dasturi talablariga to'liq javob berishi lizim.

Musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarining to'garak shakllarini o'rganish, ularning mazmuni va mohiyatini yoritish, ularning ta'lim jarayonidagi xususiyatlarini belgilab berish.

Musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarida vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlardan foydalanish va ularni ta'limga keng joriy yetishning dolzarbligini belgilovchi omillarni ko'rib chiqish; ularni samarali amalga oshirishning pedagogic shart – sharoitlarini ifodalash.

Muammolarni yechimini ajratib ko'rsatish, musiqa madaniyati darslarida va badiiy havaskorlik to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchi-yoshlarning o'zbek kompozitorlarining vatanparvarlik mavzusidagi asarlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanish.

Musiqa madaniyati darslari sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'zbek kompozitorlari asarlari vositasida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot metodi. Pedagogika, musiqa, san'at, **tarixiy**, madaniyatshunoslik adabiyotlarni o'rganish musiqa madaniyati darslarini badiiy tadbirlarni o'tkazish jarayonini kuzatish, pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, natijalarni umumlashtirish, pedagogic tajriba –sinov, matematik statistika.

Tadqiqot metadalogiyasi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, talabalarda ma'naviy-ahloqiy madaniyatni shakllantirishga oid yondashuvlar, DTS ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy – amaliy ahamiyati. Maktab musiqa madaniyati darslarida o'zbek kompozitori va bastakorlarining vatanparvarlik mavzusidagi asarlari orqali o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy masalalari ishlab chiqilganligi, umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, o'zbek kompozitori va bastakorlarining vatanparvarlik mavzusidagi asarlaridan foydalanish imkoniyati ko'rsatib berganligi. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek kompozitorligi va bastakorligining tarixiy tahlil qilinib, ular yaratgan asarlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tavsiflanganligi o'quvchi-yoshlarni musiqa madaniyati darslarida o'zbek kompozitor va bastakorlarning vatanparvarlik mavzusidagi asarlari orqali vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning shakl, metod va vositalarining mazmuni, xususiyatlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish Kirish qismi: 2-bob, oltita paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalaniladigan adabiyotlar ruyhati, ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi --- betni tashkil etadi.

I-BOB. Musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirish

1.1. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa savodini o'rganish yo'llari.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ilohiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allomalari doimo ta'kidlab kelganlar. O'zbek she'riyatining dahosi Alisher Navoiy o'z nasriy asarlarining birida bu haqda ajoyib fikrlarni bildiradi: «Shodlikni oshiruvchi xonanda, g'ammi tarqatuvchi sozanda, bularning har ikkisiga hissiyotli kishilar va ahli dardlar jon fido qilarlar. Ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchilarning naqd hayoti kuyga fido bo'lsa ne ajab? Axir, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi».

Musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi. Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir. Musiqa o'qitish metodikasi umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, nazariy asoslari va uslubiy yo'nalishlarini belgilaydi. Musiqiy ta'lim pedagogikasida ko'p yillar mobaynida musiqa o'qitish metodikasi fani bo'yicha o'zbek tilida yetarli darajada darslik yoki o'quv qo'llanmaning yo'qligi kadrlar tayyorlash jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu o'rinda ushbu qo'llanma bo'lajak musiqa o'qituvchilari hamda yosh mutaxassislarning metodik tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Taqdimotda umumta'lim maktablarida musiqa o'qitishning asosiy muammolari bo'yicha material berilgan. Bu material muallifning oliy o'quv yurti

va maktabdagi ko'p yillik ish tajribasi hamda shu sohadagi qator ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish asosida yaratildi. Maktablarida musiqa o'qitishning nazariy asoslari, maktab "Musiqa madaniyati" darslarining o'quv fani sifatida o'ziga xosligi, musiqa o'qituvchisiga bo'lgan zamonaviy talablar, musiqa o'qitishning asosiy va xususiy metodlarini yoritib beradi. Bu bo'limlar mazmuni o'qitish metodikasining "poydevori" bo'lib, talabalarda musiqiy-pedagogik faoliyatning negizini tushunishga yordam beradi.

Musiqa savodi musiqa darsining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi. Musiqa nazariyasi o'quvchilarni saviyasini oshiradi. Musiqa savodi musiqiy iroda va ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ijro etish malakalarini xosil qilishga va garmonik qobiliyatni o'stirishga ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa nazariyasini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab-olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llanishi, musiqaviy asarni taxlil qilish, nota yozish, dirijyorlik qilish, biror bir cholg'u asbobida chalish va kuylash kabi malakalarga yordam beradi.

Musiqa -tovush orqali bayon etilishi – musiqaning ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalariga buysunadi. Bu qoidalar xalq va mumtoz musiqaning asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida paydo bo'ldi.

Musiqa bayon va ifoda etish vositalari musiqa elementlari deyiladi. Musiqa nazariyasi musiqa asarlarini-kuyni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Olinadigan bilimni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqida ma'lumot beriladi (lad, tonallik, metr, ritm, interval, akkord va boshqalar) musiqa bayonining boshqa vositalari bilan bog'langandagina ifoda kuchiga ega bo'lishini yodda tutish kerak.

Yuqorida aytilgan asosiy vazifadan tashqari, musiqa nazariyasi o'quvchilarning mutaxassisligi bo'yicha o'tadigan darslariga yordam berishni

maqsad qilib qo'ygan, bu esa musiqaga oid nota yozuvini ongli o'zlashtirishga yordam beradi.

Musiqasi taxlil qilishda (musiqasi asari kuyini hamda ayrim qismlarining tuzilishini aniqlashda) o'quvchilar oladigan elementar bilim va eshitish ko'nikmasi ularning o'z mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashiga xilma-xilliklar kiritadi va o'z navbatida, o'quvchilarga musiqasi asarini ijro etayotganlarida uning mazmunini to'g'ri ochib berishga ham yordam beradi.

Boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqasi nazariyasi o'quvchilarning umumiy musiqasi va madaniy saviyasini o'sishiga yordam beradi. Musiqasi nazariyasini o'rganishda amaliy jixatdan asosiy qoidalarni yuzaki tanishib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi, bu fanni har tomonlama va chuqur o'rganish zarur. Mashqlar ustida muntazam ishlash olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustaxkamlashga yordam beradi.

Bu fanni o'rganishda didaktik prinsiplarga yondashish kerak. Ta'lim berish ilmiy, izchil va sistemali prinsipda bo'lishi kerak. Oddiydan murakkabga o'tila borishi, materialni ongli takrorlash va mustaxkamlash demakdir, ta'limda jamoa bilan birga individual muomalani uyg'unlashtirib borish kerak. O'quvchilarni tinglash malakalarini o'stirish musiqasi o'qituvchisi oldida turadigan asosiy vazifalardan biridir.

"Tovush" so'zi ikki xil tushunchani bildiradi. Birinchisi fizik xoldagi tovush, ikkinchisi sezgi xolatdagi tovush.

1. Cholg'u asbob torining tebranishi-vibrasiya deyiladi va tovush to'liqlini deb aytiladi.

2. Tovush to'liqlari eshitish organi tomonidan qabul qilinadi va sistemasi orqali bosh miyaga o'tib unga tasir etadi.

Musiqaviy tovush xilma-xil bo'ladi, lekin qulog'imiz musiqaviy tovush bilan shovqinli tovushni ajratadi.

Shovqinli tovushlar qarsillash, gijillash, gumburlash, shivirlash kabi aniq balandlikka ega bo'lmagan tovushlar kiradi.

Musiqaviy tovush uch xil fizik hususiyatga ega balandlik-qattilik va tembr. Bundan tashqari musiqa tovushning cho'zilishi ham katta ahamiyatga ega. Balandlik tebranish tezligiga bog'liq, tebranish sust bo'lsa tovusht past bo'ladi. Qattqlik tebranishni kuchiga bog'liq, tebranish amplitudasi qancha katta bo'lsa tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha Tembr - bu tovush hususiyati uning rang-barangligiga aytiladi.

Tovush cho'zimi tebranishning davom etishiga bog'liq bo'ladi. Yuqori tonlar qo'shimcha tebranish natijasida xosil bo'ladi. Uning baladligi har-xil chunki ularni tebranish tezligi turlichadir.


Musiqaviy sistema

Sistemada tovushlarning o'z balandligiga qarab joylashadi tovushqatorda tovush esa uning pog'onasi deb ataladi. Musiqaviy sistemada 88 ta xilma-xil tovushlar bor. Barcha tovushlar sekundiga 16 dan 4176 tebranishga egadir. Musiqaviy sistema tovush qatorining asosiy pog'onalariga yettita mustaqil nom berilgan. **DO. RE. MI. FA. SOL. LYa. SI.** Bu tovushlar fortepianoning oq klavishalariga mos keladi.



Tovush qatorda bu 7 ta asosiy pog'onalarning nomi takrorlanib turadi va yo'l bilan barcha tovushlarni o'z ichida qamrab oladi.

Birxil nomdagi tovushlar oralig'i oktava deyiladi. Forteplanoda 9 ta oktava joylashgan ularning nomlari quyidagicha. Subkontroktava, kontroktava. katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, turtinchi oktava va beshinchi oktava.



Musiqaviy sistemada tovushlar absolyut balandligi aniq sozlanganligi o'zaro bog'lanishi musiqaviy soz deyiladi.

Musiqaviy sozga birinchi oktava Lya tovushi bir sekundiga 440 marta tebranishi asos qilib olingan. Musiqaviy sistemada har bir oktava 12 teng qismga yarim tonlarga bo'lingan va temperasiyalangan soz deb atalgan. Yarim tonlik musiqa sistemada eng kichik oralik hisoblanadi. Ikkita yarim ton butun ton deb ataladi.

Tovush qatorda ikkita yarim ton va beshta butun ton bor. Ular quyidagi tartibda joylashgan.

DO RE MI FA SOL LYa SI DO

1t 1t 0.5t 1 1 1 0,5t

Butun tonlar yarim tonlarga bo'linadi. Tovush qatorning har bir asosiy pog'onasini ko'tarib yoki pasaytirish mumkun. Ko'tarilgan va pasaytirilgan pog'onalar mos tovushlar xosila pog'onalar hisoblanadi. Xosila pog'onalarining nomi asosiy pog'onalardan kelib chiqadi.

Asosiy pog'ona yarim tonga ko'tarilsa- diyez so'zi, yarim tonga- pasaysa bemol so'zi qo'yiladi. Ikkita yarim tonga pasaytirilsa dubl bemol ikkita yarim tonga ko'tarsa dubl diyez deb yuritiladi va alteratsiya deb nomlanadi. Alterasiya so'zi o'zgarish manosi bildiradi.

ALTERASIYA BELGILARI

Asosiy pog'onalarining ko'tarilishi yoki pasaytirilishi alterasiya deb ataladi. Alterasiya belgilari 5 xil bo'ladi.

Diyez - # - notani 0,5 tonga ko'taradi

Bemol - b - notani 0,5 tonga pasaytiradi

Dubl diyez - x- notani 1 tonga ko'taradi

Dubl bemol -bb - notani 1 tonga pasaytiradi

Bekar - $\natural$ -belgilarni bekor qiladi.

Kalitdan keyin qo'yiladigan belgilar kalit alterasiya belgisi deyiladi. Kalit alterasiya belgilari o'z kuchini asar davomida saqlab qoladi. Tasodifiy belgilar esa bitta takt davomida.


Tovushlar engarmonizmi. Harfiy sistema Balandligi bir xil lekin nomi va yozilishi har-xil bo'lgan pog'onalar tengligiga tovushlar engarmonizmi deyiladi. Har bir tovush o'zidan yarim ton pastda yoki yuqorida joylashgan bo'lishi mumkun.

Masalan; fa-diyez yoki si-bemol. Xosila pog'ona asosiy pog'ona bilan bir xil bo'lishi mumkin. Masalan; si diyez do, fa bemol mi yoki barabariga pasayishi yoki ko'tarilishi ham mumkun. Masalan; fa dubl diyez - sol, mi dubl, bemol - re.

Diatonik va xromatik.


Yarim tonlar va butun tonlar.

Tovush qatorning yonma-yon joylashgan ikki pog'onasi orasida xosil bo'lgan yarim tonga diatonik yarim ton deyiladi. Bularga mi-fa va si-do lar kiradi. Ko'tarilgan yoki pasaytirilgan xosila pog'onalar orasida ham diatonik yarim tonlar xosil bo'ladi. Masalan:




Xromatik yarim ton deb asosiy pog'ona ko'tarilsa yoki pasaysa orasida yarim ton xosil bo'lganda aytiladi.

Masalan



Diatonik butun tonlar deb do-re, re-mi, fa-sol, sol-lya, lya-si oraliqlarga aytiladi va bulardan tashqari ikkita xosila pog'ona orasida ham paydo bo'lishi mumkun. Masalan:



Xromatik butun tonlar deb asosiy pog'ona ikki baravar ko'tarilishi yoki pasayish natijada xosil bo'lganda aytiladi. Masalan.

Harfiy sistema.

Amaliyotda tovushlar bugin bilan yozilishidan tashqari, Lotin alfaviti asosida harf bilan yoziladi. Masalan:

S D Ye G' G A N

Do re mi fa sol lya si

Xosila pog'onalarni yozish uchun harflarga qo'shimcha bo'g'inlar ko'shiladi. Masalan: Is-diyez, cis-do diyez

Isis-dubl diyez, des-re bemol

Yes-bemol, fisis-fa dubl diyez

Yeses-dubl bemol, geses-sol dubl bemol

Hamma pog'onalarda Si bimol dagida qo'shimcha bo'g'in bo'lmaydi. V yoki b harfi bilan yoziladi. Es bo'g'inda unli a va ye harflar uchrasa, talaffuzning qulay bo'lishi uchun; mi bemol ees o'rniga yes, lya bemol ayes o'rniga as yoziladi.

Oktavalarni belgilashda harflar ustiga qo'shimcha qilib raqamlar yoki chiziqlar yoziladi. Katta va kichik oktavalarining tovushi katta yoki kichik harflar bilan yoziladi. Masalan; katta oktavaning lya tovushi katta A harfi bilan kichik oktava kichik a harfi bilan yoziladi.

Birinchi oktavada beshinchi oktavagacha bo'lgan tovushlar qaysi oktavaga tegishli bo'lsa, shunday raqam yoki chiziqlar va kichik harflar bilan belgilanadi. Masalan;

1 oktava do tovushi - s yoki s1

2 oktava re tovushi - d yoki d2

3 oktava mi tovushi - ye yoki ye3

4 oktava fa tovushi - f yoki f4


5 oktava do tovushi - s yoki s5

Kontroktava bilan subkontroktava tovushlari qaysi oktavaga tegishli bo'lsa ostiga yoziladigan shunday raqamlar yoki chiziqlar va katta harflar bilan belgilanadi.


“Nota” so’zi lotincha bo’lib belgi ma’nosini bildiradi. Nota yozuvi deb tarixdan yuzaga kelgan maxsus belgi - notalar vositasida tovushlarni yozish sistemasiga aytiladi. Nota belgisi doirachalardan iborat. Tovushlarni cho’zimiga qarab doirachalarni ichi bo’sh, bo’yalgan, tayoqcha (shtil), tayoqchaga dumchalar guruhiga esa qovurg’achalar qo’yiladi.




Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar 5 ta parallel chiziqqa joylashtiriladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo’lini boshiga vertikal boshlang’ich chiziq qo’yiladi.



Notalar nota yo’lini ustiga, yo’liga, orasiga va pastiga yoziladi.




Asosiy chiziqlardan tashqari qo’shimcha chiziqlar ishlatiladi. Qo’shimcha chiziqlar asosiy chiziqlarni ostiga va ustiga qo’yiladi .



Ostidagi chiziqlar tepadan pastga qarab sanaladi. Ustidagi chiziqlar pastdan tepaga qarab sanaladi. Tayoqcha yoki shtil uchinchi chiziqdan pastga yozilgan notalarga tepaga qaratib qo’yiladi. Uchinchi chiziqdan tepaga yozilgan notalarga pastga qaratib qo’yiladi.

NOTA CHO'ZIMI

- 1) Eng katta cho'zimli tovush – butun. 
- 2) Butun cho'zimli tovushning ikki marta qisqargani- yarimtalik. 
- 3) Yarimtalikni ikki marta qisqargani – choraktalik. 
- 4) Chorakning ikki marta qisqargani – nimchorak. 
- 5) Nimchorakning ikki marta qisqargani – o'n oltitalik. 
- 6) O'n oltitalikning ikki marta qisqargani — o'ttiz ikkitalik. 
- 7) O'ttiz ikkitalikni ikki marta qisqargani- oltmish to'rtalik 


Bulardan ham qisqa notalar kam qo'llaniladi. Shuningdek ,butun cho'zimini ikki marta oshirib yoziladigan nota ham kam ishlatiladi.

KALITLAR


Tovushlarning muayyan balandligi maxsus belgi bilan belgilanadi va bu belgi kalit deb ataladi. Kalit nota yo'lini boshida asosiy chiziqlarga qo'yiladi. Ana shu chiziqda joylashgan nota tovush balandligini belgilaydi.

Xozirgi zamonga kelib uch xil kalit ko'llaniladi.

- 1) Skripka kaliti (sol kaliti)



- 2) Bas kaliti (fa kaliti)



- 3) Alt va Tenor kaliti (do kaliti)



Alt kaliti alt va trombon asboblari uchun ishlatilindi. Tenor kaliti fagot va trombon asboblari uchun ishlatilindi. Oldingi davrda kalitlar turi ko'p bo'lgan.

Do - soprano kaliti 1 - chiziq ustiga qo'yilgan. 2 - chi chiziqda messo soprano kaliti 5 -chi chiziqda Bariton kaliti joylashgan, bular odam ovozi diapozoniga mos keladi va qo'shimcha chiziqlari ko'p bo'lgan.

1.2. Musiqa savodini o'rgatishda interfaol usullar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi

Nota nima, bolalar?

O'rganishni boshlaymiz.

Barchani savodxonlik,

Festivalga chorlaymiz.

Bilib qo'ying, aziz bolalar,

Hayotimiz yo'ldoshidir kuy,

Yashnar bogu-roglar, dalalar.

Bo'lsa bayram, shodon bazmu to'y.

Musiqasiz yasholmas inson,

Kurashlarga topolmas imkon.

Barcha kuchni qo'shiqdan olar,

Ohang uni yashashga chorlar

Yalla, lapar, terma, qarsaklar,

Baxtli kishi ularni bilar,

Qani ayting qanday chalinar?

Buni faqat nota o'rgatar.

1-Bola: Nota o'zi nima ekan?
Qanday, muxim sir bor unda?
Buni qanday bilsak bo'lar?
Kim ham bizga buni aytar?

2-bola: Xafadirman men juda ham,
Nota yozuv sirli biram.
Shuncha qilib bilolmayman,
Kalitin hyech topolmayman.

Boshlovchi: Xafa bo'lma, axir har ishning,
Yechimini topsa bo'ladi.
Bilib olsang kalitin uning
Bajarishing oson bo'ladi.


Festivalni boshlagan hamon,
Ular bizga bo'lishar mehmon.
Savodxonlik qatnashchilari.
Bilimdondir ularning bari.

1-bola. Ular rostdan bilishadimi?
Nota sirin aytishadimi?
Qani-qani to'rdan o'tingiz,
Bizga aziz mehmon bo'lingiz.

Boshlovchi: Bilasizmi bolalar?
Notalar nechta bo'lar?
Buni tezroq aytish-chun
Ular sahnada turar.

Sol notasi: Chiziq boshida kalit



Notalarni o'rnatar,
U ikkinchi chiziqda
Sol tovushin ko'rsatar



Re, mi, Nishonimiz «sol»imiz,

Fa,lya, Tagida «Fa» binoyi.

si Ustiga gar yozsak «Lya»
Aniq «re, mi, si» joyi.



DO notasi: Pastki chiziq tagiga

«Do» notasin yozish chun,
Chizish lozim atigi
Uzun chiziqdan uchqun.



Boshlovchi: Mana yana bitta mehmon.

U yangrasa yayrar dil,
Suhbat qurish juda oson,
Kuydir nomi uning, bil.

Kuy: Sa'va bulbulu chittak
Kuylaydi mayin, yuksak.
Ularga teng kelolmas
Echki-yu qo'chqor beshak.

Do'rillaydi ayiqvoy
Buni eplolmas chittak.
Hosil bo'lar ajib kuy
Nota yo'liga bitsak.

Topqirlik mashqini yeching:

Bilag'on: Joyini topib, shovvoz,
Mana bu notani yoz.


Mashq bilimning onasi,
Top, bu notalar qaysi?

Rebuslar

1. So'zlar bo'yicha rebus tuzing:



2. She'r misolida rebus tuzing:



14

Boshlovchi: Nechta nota borligin,

Bilib oldik azizlar.

Yana bir yangilik bor –

Axir ular bo'linar.

Notalar bo'linishi

Musiqada eng muhim.

Ularning eng kattasi

Butun nota go'yo tuxum.

Notalarning bo'linishi

«Nota yozuvi»

Nota cho'zimlarini
Sizlarga olib keldik.
Butun, yarim, bir chorak,
Nimchorak, o'n oltilik.

Rasmin aniq ko'rib ol,

- mana bu butun nota,
- mana bu yarim nota,
- mana bu chorak nota.
- sakkiztalik yo nimchorak,
- bunisi o'n oltilik,

Bizga hammasi kerak,

Boshlovchi: Barakalla, mehmonjon,

Senga yana bor savol.

Turli xil bu notalar,

Qay yo'sinda bo'linar?

«**Nota yozuvi**»: Butun notada bordir,

Ikkita yarimtalik.

Yarim notada esa,

Ikkita choraktalik.

Chorak nota bo'linar,
Ikki sakkiztalikka,
Nimchorak nota bo'lsa
Ikki o'n oltilikka.

Tovush cho'zimiga mos

Notalar sanog'i bor.

Nota sanog'i bilan

Hisoblab o'lchash darkor

Boshlovchi: Endi ozroq tanaffus,

Dam olishni o'ylaymiz.

Shuning uchun bolalar,

Gammalarni kuylaymiz.

To'rt xil tezlik olamiz,
Sekin-og'ir, shoshmasdan,
Va o'rtacha tezlikda,
So'ngra jadal va tezda.

Gammalarni kuylaymiz

Nota yozuvi: Notalar bo'linishin,

Formulasin ko'rib ol.

Bu senga bo'lar darkor,

Xotirangda saqlab qol.

Tenglama: Musiqada ham bordir,

Misolu tenglamalar.

Matematika fani

Sizga yordamga kelar

Boshlovchi: Eh-hye, hye hyey kimda-kim

Oqil, bilimdon bo'lsa.

Miyasi to'la bilim,

Mag'zi to'q yong'oq bo'lsa

Musobaqa qilingiz

Tenglamani yechingiz,

Sinab ko'rib o'zingiz,

G'alabaga yetingiz.

Mustaqil yeching

Boshlovchi: Cho'zimlar hisobi teng

Matematik yechimga.

Ko'plab mashqlar ishlasang,

Beshta nota chizig'i

Yettita quvnoq nota

Joyini topdi oson.

Ular takror joylanar


Yangi cho'qqilar tomon.

Beshta nota chizig'i

Besh barmoqqa teng ekan.

Erinmay, bekamu ko'st


Barmoq-la nota o'rgan.



Notalarning guruhlanishi

5-bola:

Sakkiz, o'n oltilikni
 Bog'lanishin bilib ol!
 Qo'shsang kerakligini
 Tepasidan chiz darhol!



Uchinchi chiziqqacha
 «Tayoq» turar yuqori
 «Si» dan boshlab albatta
 Pastga tushadi bari.

Nuqtali notalar:


Nota yonida nuqtaN
 Uchrab qolsa ajabmas.
 Notani cho'z teng yarim,
 Undan ortiq hojatmas.

Mana senga bir misol:

Chorakning yarmi – sakkiz.

Oshmas nuqtali chorak

Bir yarim cho'zimdand hargiz.




Endi qolganlariga

Nuqta qo'ygin xol kabi.

Nuqtaning kuy o'qishda

Bordir qat'iy talabi.



Hisobi qanday bo'lar?

Notalar va pardalar

Pianino sozida

Do, re, mi, fa, sol, la, si,

Kulib boqadi bizga

Oq pardalar hammasi.

Ular rubob, dutorda

Turli pardada bo'lar.

Har birin yaxshi bilsang

Biliming yana to'lar.

Ton va yarim ton

Oq parda, qora parda,

Har birining sharhi bor

Oqu qora o'rtasi,

Yarim tonga farqi bor.

Ikki qo'shni pardaning

Oralig'i yarim ton.

Ikki yarim tonlikdan

Tashkil topadi bir ton.

Alterasiya belgilari

Tovush o'z pardasidan

Ba'zan yarim ton tushar.

Uning belgisi **bemol**

Olti soniga o'xshar.



Sen tovushni yuqori

Ko'tarsang yarim tonga,

Diyez bo'lar belgisi,

Tovush moslashar unga



Maxsus belgi – **bekar-chi**,

Bu holni o'zgartirar.

O'zgargan tovushlarni

O'z joyiga qaytarar.



1.3. Musiqa madaniyati darslarida faoliyatlar ketma-ketligiga amal qilish uslublari.

Bundan o'n yil oldingi davrda yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan bugungi kundagi bu masalaga tegishli munosabat o'ratasida katta farq borligi hych kimga sir emas. Shuning uchun ham tarbiyaning aniq maqsadini belgilab olish pedagogikaning birinchi masalalaridan hisoblanadi. Yosh avlodni qanday ruhda tarbiyalash tarbiyasi maqsadi muammosini hal qilish bilan belgilanadi. Tarbiyaviy ijtimoiy hayotning hayotiy va uzluksiz tushunchasi hisoblanadi, u tarixiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Qadimgi Gresiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi – o'sib kelayotgan yosh avlodda yaxshi fazilatga ega fuqaroni, vatanparvarlikni, jasurlikni, sadoqatli, do'stlikni rivojlantirish bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvoffaqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarning dunyoga keltirgan. Yoshlarimizni tarbiyalashda birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari, dasturamal bo'lib xizmat qilishi kerak.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdek, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarda yetdik. O'zbekistonning ertangi kuni ravnaqi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy kelishi albatta bugungi kun yoshlariga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish ularni har tomonlama yetuk ma'naviyatli qilib tarbiyalash lozim. Hozirgi zamon ta'lim – tarbiya konsepsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak u yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. Bu «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi», «Talim» to'g'risidagi qonunlarda ko'rsatib o'tkazilgan. Ushbu qonunlar lisey tajribasining tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy madaniyatga ijodiy va ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan istiqlool vazifalarini ilgari so'rash va hal etishga qodir maqsadlarning yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va salohiyatlardan to'la xolos etish rivojlangan, demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviyat va

axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tuzilishini yaratishdir

Maqsad va vazifalar.	Maqsad: O'quvchilarga musiqa inson hayotidagi o'rni va mohiyati haqida tushuncha berish, ularning kelib chiqish tarixi haqida umumiy ma'lumot berish musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Vazifalar: Musiqa madaniyati fanining tarkibiy tuzilishini tushuntirish, o'quvchilarni musiqa madaniyati faniga qiziqtirish. Musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan qilib tarbiyalash.
O'quv jarayoni mazmuni	Tarbiyalanuvchilarga mashg'ulot davomida mavzuni ham nazariy ham amaliy tarzda yoritib berish, har xil ritmik harakatlardan to'g'ri va unumli foydalanishni o'rgatish uning musiqa olamidagi o'rni haqida tushuncha berish. Umumiy maqsadga erishishni ta'minlash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: "Nazariy va amaliy, suhbat, o'rgatish hamda yangi pedagogik texnologik usullaridan", Bilog'onlar ko'chasi", "Bumerang" "Klaster", "Insert" usullaridan foydalanish. Shakl: Guruhda va hamkorlikda ishlash. Vosita: Mavzuga oid tarqatma materiallar ko'rgazmali materiallar va tarbiyalanuvchilarni rag'batlantiruvchi mukofot kartochkalari. Har xil ritmik harakatlar mujassamlashgan namunalar DVD va SD diskalaridan o'rinli foydalanish
Kutiladigan natijalar.	Berilgan vaqt ichida maqsadga erishish, tarbiyalanuvchilar faolligini oshirish, mashg'ulot orqali o'quvchilarni musiqa darslariga qiziqtirish.
Kelgusi rejalar	Tarbiyalanuvchilarni musiqa mashg'ulotlarga qiziqtirish. Mashg'ulotlarni zamonaviy uslublarda olib borishni ta'minlash.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni musiqiy bilimlarini mustahkamlash musiqa inson hayotidagi o'rni haqida o'quvchilarga tushuncha berish. Ulardan baxramand qilish. Ularning yaratilish tarixi to'g'risida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash, musiqa janrlari hamda tarixi yuzasidan tushuncha doirasini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Aralash, noan'anaviy

Dars usuli: Pedtexnologik usullar, kartochkalar bilan ishlash.

Dars uchun zarur jihozlar:

Tarqatma materiallar, musiqa savodiga oid tarqatma materiallar, magnitofon, video tasma. SD va DVD disklaridan namunalar.

Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti

№	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism: Davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorlash guruhlariga ajratish, ovoz qizdirish mashqlarini o'tkazish.	2 daqiqa
2	Darsning borishi: O'tilgan darslarni mustahkamlash ekrandagi savollarga javob Tarqatma kartochkalar bilan ishlash.	10 daqiqa
3	Yangi mavzu: 5 – sinf musiqa madaniyati darslarida faoliyatlar ketma-ketligiga amal qilish uslublari.	15 daqiqa
4	Musiqa tinglash: Bahor. T. Bahromov she'ri. Sh. Yormatov musiqasi.	5 daqiqa
5	Musiqa savodi: kartochkalar bilan ishlash	10 daqiqa
6	Dars yakuni. Mustahkamlash, va faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.	2 daqiqa
7	Uyga topshiriq berish.	1 daqiqa

Darsning borishi: O'quvchilar musiqa ostida sinfga kirib keladilar.

Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan tanishuv, guruxlarga ajratish

O'quvchilarni 4 guruxga ajratiladi.

1 – gurux dutorchilar

2 – gurux rubobchilar

3 – gurux doirachilar

4 – gurux changchilar

O'quvchilar pedjyklarni taqib unda tasvirlangan rasmga qarab guruxlarga ajratib oladilar. (Pedjikka o'quvchilarning ismi ham yozilgan, o'quvchilarni dars qoidalari bilan tanishtiriladi. Darsda rag'bat artochkalaridan foydalanishi aytiladi. Aylananing 4 qismga bo'lingan har bir to'g'ri javob uchun bir aylananing bir bo'lagi beriladi Eng ko'p bo'lakcha yig'ib aylanalar hosil qilgan o'quvchilar dars yakunida rag'batlantiriladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash: Aziz o'quvchilar bugun darsimizda mo'jizalar maydonchasi o'yinini ham o'ynaymiz. Maydonchamizda musiqaga oid hikmatli so'z berkitilgan. Kim berilgan savollarga to'g'ri javob bersa xohlagan harfini ochishi mumkin. Agar siz darsda faol ishtirok etsangiz dars yayekunida berilgan hikmatli so'z maydonchada o'z aksini topadi. Agar darsda faol ishtirok etmasangiz hikmatli so'zni ocha olmaymiz. Kelinglar aziz o'quvchilar musiqa qanining sexrli olamiga sayoxat qilib, musiqiy bilimlarimizni sinab ko'ramiz. Ekrandagi savollarga javob beramiz.

1. Butun nota nechaga sanaladi?
 2. Bactakor kim?
 3. Berilgan tasvirdagi cholg'u asboblarini nomlarini sanab bering.
 4. Sinfonik orkestr tarkibiga kiruvchi yog'och va mis damli cholg'ularni ta'riflab bering?
 5. Duskada klaster usulidan foydalanib, sahnaviy musiqa asarlari sanab o'tiladi.
- Aziz o'quvchilar siz qanday musiqa janrlarini bilasiz?



6. DVD diskdan eshitgan asarning nomini va bastakorini ayting?

(Tohir va Zuhra musiqali dramasidan parcha tinglanadi.)

7. Torli - kamonli cholg'ularni sanang?

Yangi mavzuni bayoni. Musiqa o'qitish prinsiplari – musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar yig'indisidir. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida uning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi va umumdidaktik prinsiplarga asoslanadi:

- tarbiyalovchi ta'lim;
- ilmiylik, tizimlilik va izchillik;
- musiqiy materialning qulayligi va bolalar yoshiga mosligi;
- ko'rgazmalilik;
- Tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarning mustahkamliligi;

- o'quvchilar musiqiy faoliyatining faolligi, mustaqilligi;
- musiqiy tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi. Mazkur prinsiplar o'qituvchi hamda o'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha *ta'lim komponentlari* – dars mazmuni, metodlari, dars tuzilishidagi asosiy talablar va yo'nalishlarni belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitish metodikasi o'zining xususiy prinsiplarini ham ilgari suradi. Bulardan: *emosionallik va onglilikning birligi* hamda *badiiylik va texnikaning birligi* prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Emosionallik va onglilikning birligi prinsipi. Bu prinsipning zarurligi musiqa san'ati va uni idrok etishning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Musiqani idrok etishni rivojlantirish undan olingan hissiy taassurotlar, uning ifoda vositalarini anglashni talab etadi. Musiqiy asarni tinglashdan olingan hissiy ta'sirni ong bilan qabul qilish uning mazmunini tushunishga, o'quvchilarda musiqiy tajriba to'plashga yordam beradi. O'quvchilarning fikri, kechinmalari, hissiyotlarini boyitadi, musiqaning ta'sirini kuchaytiradi. Mazkur prinsipni musiqa o'qitishda qo'llash o'quvchilarda idrok etilgan asarga baho berish obilyatini o'stiradi va shu asosda ularning qiziqishi, musiqiy didi, ehtiyojlari tarbiyalanadi.

Badiiylik va texnikaning birligi prinsipi. Musiqiy asarni badiiy va ifodali ijro etish uchun ma'lum bir malaka va o'nikmalar talab etiladi. Masalan, qo'shiqni o'rganish jarayonida o'quvchilarda vokal-xor malakalari shakllantiriladi. Bolalar cholg'ularida ijro etish uchun ham birgalikda chalishning eng oddiy usul va yo'llarini o'quvchilar egallashlari lozim. Bunda ijrochilik malakalari badiiy vazifalarga, ya'ni musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish **maqsad** bo'lib, malaka va ko'nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda **vositadir**.

Bu prinsiplar o'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni, musiqaga qiziqishni, did va musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. *Musiqiy qobiliyatlar*, ularning turlari, maxsus (ijrochilik, bastakorlik) va umumiy musiqiy qobiliyatlar, ularning rivojlanish shart-sharoitlari masalalari ko'plab psixolog (B.Teplov, V.Myasishev, B.Yavorskiy, V.Petrushin va hk.), pedagoglar (L.Barenboym, V.Beloborodova,

Yu.Aliyev, N.Vetlugina), musiqashunoslar (B.Asafyev, A.Alekseyev va b.) tomonidan keng o'rganib iqilgan. Hozirda ham bu muammolar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mutaxassislar musiqiy eshituv, ritm hissi, musiqiy xotirani musiqiy qobiliyatlarning asosiy ko'rinishlari deb belgilaydilar. *Musiqiy eshituv* qobiliyati – bu tovushning baland-pastligi, kuchi, tembri va davomiyligini his etishdir. *Musiqiy ritm tuyg'usi* – musiqadagi vaqt-o'lchovli harakatni, uning ifodaviyligini his etish, aniq ijro etish qobiliyatidir. *Musiqiy xotira* – bu musiqiy asarni tez va uzoq vaqt yodda eslab qolish qobiliyati. Bu qobiliyatlarni umumlashma nom bilan musiqiy pedagogika amaliyotida musiqiylik deb ham yuritiladi. Ammo musiqiylik 3 ta qobiliyat bilan cheklanmaydi. Musiqiylikning asosini musiqadagi ifodaviy mazmun, obrazni tushuna olish, unga hissiy munosabat ko'rsata olish qobiliyatlari ham hosil qiladi. Darsda o'quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglash, asarlarni qiyoslash, taqqoslash, eng yorqin va idrok etilgan asarlarga baho bera olishga o'rgatish, musiqa ijrochiligi uchun lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarga o'rgatish – musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish demakdir. Metodika o'qilayotgan fan xususiyatlarini, o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktikaning prinsiplari asosida o'quv-musiqiy materialning o'zlashtirilishi yo'llarini amalga tatbiq etadi.

Metod yunon tilidan olingan bo'lib, «izlanish yo'li», «o'rganish vositasi» ma'nolarini anglatadi. Fan va san'atning yirik namoyondalari o'z risolalarida musiqa darslari san'at darsi sifatida juda katta tarbiyaviy potensialga ega ekanligini ta'kidlab kelganlar.

XX asr musiqiy pedagogika amaliyotida, metodik risolalar, maxsus izlanishlarda maktab musiqa sharoitida faoliyat turlari bo'yicha qo'llaniladigan ko'plab metod va usullar to'plangan. B.Asafyev, V.Shchaskaya, N.Grodzenskaya, V.Beloborodov, M.Rumer, Yu.Aliyev, V.Sokolov, R.Rigina, D.Kabalevskiy, N.Vetlugina, E.Abdulin va ko'plab boshqa mualliflarni keltirish mumkin. Musiqa o'qitish metodlari «Musiqa madaniyati» darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyatlari asosini tashkil etadi. O'qituvchi – bu faoliyatni

boshqaradi. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan barcha metodlar o'quvchilarda axloqiy, badiiy didni *tarbiyalash*, musiqiy qobiliyatlarni *shakllantirish*, musiqiy idrokni *boshqarish*, ijodiy faollikka *undashga* qaratilgan bo'lishi lozim.

Musika darslarida qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilar: og'zaqi, ko'rgazmali-informativ, badiiy-amaliy. Og'zaki metod (hikoya, suhbat, tushuntirish, izohlash, ilova) – asarning mazmunini ochishga yordam beradi, asarni ongli ijrosiga erishishga tayyorlaydi, o'quvchilarning hissiy kechinmalariga yo'nalish beradi. Og'zaki metodlarni qo'llash o'quvchilarning yoshiga, musiqiy tayyorgarligiga hamda musiqiy asar xususiyatiga bog'liq.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni musiqa tinglashga «tayyorlash», «sozlash» maqsadida qo'llaniladigan jonli, yorqin bayon. Asosan uch holatda qo'llanishi mumkin: - kompozitorning hayoti va ijod yo'lida hikoyabop voqyea va lavhalar mavjud bo'lsa (V.Mosart, L.Betxoven, Yu.Rajabiy, Hoji Abdulaziz Abdurasulovlar ijodlarida); - musiqiy asarning yaratilishi tarixi bayonida; - bolalarni yirik cholg'u va sahna asarlari obrazlariga olib kirishda (U.Musayevning «To'maris» baleti, A.Mansurovning «Hayvonlar sultoni», S.Yudakovning «Maysaraning ishi», M.Ashrafiyning «Dilorom», T.Jalilovning «Tohir va Zuhra» musiqali dramasi va hk.). Suhbat – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, musiqani faol va qiziqish bilan idrok etishga undaydi. Tinglangan asar yuzasidan bo'ladigan bu fikr almashinuv jarayonida mahoratli o'qituvchi muammoli holatlar, tahlil, taqqoslashlarni qo'llagan holda bolalarning e'tiborini musiqiy asarning o'ziga xosligiga, boy ifoda vositalariga qaratadi, musiqiy obrazlarga aniq poetik tavsiflar berishlarida, hayotiy qiyoslashlarga erishishlarida yordam beradi.

D.Kabalevskiy suhbat metodiga musiqa darsini o'tkazish shakli sifatida katta ahamiyat beradi. U o'zining «Bolalarga musiqa haqida qanday so'zlash lozim» kitobida suhbatning «hikoya-suhbat» va «suhbat-dialog» turlarini keltiradi. Hikoya, suhbatlar jarayonida asar, uning fragmentini tinglatish o'qituvchi va o'quvchilar muloqatini yanada to'ldiradi. Tushuntirish, izohlashlar – musiqa savodi elementlari bilan bolalarni tanishtirishda, cholg'ularda ijroga o'rgatishda,

qo'shiq aytirish, ritmik harakatlarni bajarishda qo'llaniladi. **Ko'rgazmalii-informativ metodlar:** Musiqiy asarni ijroda ko'rsatish, asarni qisman ko'rsatish, musiqali ixtibos (sitata), illyustrasiya (ilova), vokal, cholg'u, dirijyorlik ko'rsatib berishlari audio, video, harakatli-ko'rgazmali, reproduksiya, portret, nota yozuvlari va hokazodan iborat. Musiqiy ta'lim-tarbiyada ko'rgazmalilikning eshituv ko'rgazmaliligi, harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmaliligi turlari mavjud. Eshituv ko'rgazmaliligi – bu musiqaning ifodali ijrosidir. Jaranglayotgan musiqa darsning barcha qismlari asosi bo'lib xizmat qiladi. «Musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi», deb yozadi N.L.Grodzenskaya. Musiqani tinglash, eshitish, idrok etish murakkab ish, chunki har bir musiqiy asarning mazmuni doimo harakatda va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ifoda vositalari majmuasi bilan beriladi. Shuning uchun o'quvchilarda avvalo tinglovchilik malakalarini rivojlantirish lozim, ya'ni musiqani doimo boshidan xirigi tovushigacha tinglash, «kuzatish»ga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda o'qituvchining so'zi musiqiy obrazlar olamini tushunish, his etishga yordam beradi. **Harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmaliligi.** O'quvchilarni kuyning grafik tasviri, nota yozuvlari, tovush balandligi, metro-ritm, lad munosabatlari, shakllar, janr, intervallar va hk. bilan tanishtirishda ishlatiladi. Bundan tashqari, vokal-xor va musiqa avodxonligi ishlarida dirijyorlik, musiqani taktlash, chalib ko'rsatish, dirijyorlik ifodalari, registr, ritmni grafik ifodalash kabi ko'rgazmalilik qo'llaniladi. **Badiiy-amaliy metodlar** O'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodlarga aytiladi. Badiiy-amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi, musiqa ifoda vositalarini tahlil qilish, uning janr, shakllarini aniqlash, nota yozuvini o'rganish, cholg'ularda ijrochilik, badiiy ijodkorlik malaka va ko'nikmalari shakllantiriladi. Masalan, cholg'u ijrochiligiga o'rgatishda ijroni birga boshlash, birga tugatish, bir- birini eshitish malakalari ustida ishlaganda chalib ko'rsatish, tushuntirish, eslatish, qaytarish usullaridan foydalaniladi. Vokal-xor ishlarida qo'shiqchilik nafasi, sof unison talaffuz, soz malaka va ko'nikmalarini o'stirishda mashqlarni kuylash, taktlash, dirijyorlik ifodaoariga

e'tiborni qaratish, ritmik chapaklardan foydalaniladi. Vokal, ritmik va raqs improvizasiyasida ijodkorlikmalakalarini o'stirish uchun mustaqil harakat, rag'batlantirish,

Musiqqa savodi:

Musiqani tashkil etuvchi tovushlar bir-biriga nisbatan ma'lum oraliqda joylashgan bo'ladi. Ana shu oraliq lotinchada "interval" deb ataladi. Tovushlarning oralig'i esa turlicha bo'lishi mumkin. Bularni farqlash uchun prima –birinchi, sekunda-ikkinchi, tersiya-uchinchi kabi maxsus atamalar qo'llaniladi.



Musiqqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylash, raqs va hokazo) qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi. Va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va hokazo) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini (musiqqa shakllari, janrlar, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqqa, nota savodi va boshqalar) singdirib borishdan iborat.


Shuni alohida e'tiborga olmoq kerakki, musiqqa idroki (tinglash) va musiqqa savodi faoliyati o'zaro uzviy bog'lanishi bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqqa o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz-ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Tuzuk. Tuzuk so'zi "to'g'ri", "bir-biriga mutanosib, hamohang tovushlar" kabi ma'nolarni bildiradi. Har bir qo'shiqning kuyi esa bir-biriga o'zaro bog'langan tovushlar asosida yuzaga keladi. Demak, tuzuk – bu tayanch pardaga

nisbatan uyushib kelgan ohang tovushlarini anglatar ekan. Agarda biz shu tovushlarni tayanch pardadan boshlab yuqoriga qarab tizib chiqsak, to'g'ri tovushqator – zinapoya hosil bo'ladi.



Tovushqator bosqichlari rim raqamlari bilan belgilanadi.



Dasturda raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rin berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarur. Darsda o'rganiladigan raqs va harakatlar boshqa dars chog'ida (jismoniy tarbiyada, tanaffuslarda) keng qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.


Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilish, ijro eta olish va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi davr talabidir. Bular milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarining sxemasi bo'lib, o'qituvchi ularning ma'nosini mana shunday chizma orqali o'quvchilarga o'rgatadi.

Bolalar musiqa asboblari chalish va musiqa ijodkorligi chapak va cholg'u asboblari chalish faoliyati ham raqs va musiqali harakatlar singari o'quvchilarning musiqa o'quv qobiliyatlari hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doiracha, qayroq, qoshiq, kichik sopol kabi urib chalinadigan cholg'u asboblari foydalanib, o'qituvchi ijrosi yoki

magnitafon tasmasi orqali taraladigan kuylarga jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.


Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun ahamiyatga egadir. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosida doira chertib jo'rnavozlik qilish, sinf ijrosida «dirijyorlik» qilish, kuy ohangiga mos harakatlar (xususan, raqs) topish, she'r parchasiga kuy «bastalash» kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq

Bir-biriga munosibligini aniqlash usuli.



”Baliq skeleti” metodi

Bu metodda o’quvchilarga mavzu bo’yicha biror iborani aniq charhlash, tushuntirib, izohlab berish mumkin bo’ladi. Masalan, xalq aytimlari va cholg’ularining ijod qilinishi jarayonini olsak, skeletning bir tomoni o’zbek xalq ommaviy janrlari bo’lgan mehnat aytimlari, qushiq, lapar, yalla va h.k.lar tashkil etsa, ikkinchi tomoniga o’zbek xalq cholg’ulari nomlarini kiritish mumkin. Baliqning boshini esa tabiiyki “o’zbek xalq musiqa ijodi” tashkil etadi.



II Bob. O'zbek bastakorlik va kompozitorlik san'atining tarixi va taraqqiyoti.

2.1. O'zbek musiqa ijodkorligida bastakorlik uslubining shakllanishi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi (dastlabki nomi «O'zbekiston kompozitorlar soyuzi») O'zbekiston Xalq Komissarlari kengashining 1938 yil № 203-r qaroriga binoan tashkil topgan. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan kompozitor va musiqashunoslarni g'oyaviy va ijodiy birlashtirish maqsadida O'zbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor va dirijyor Tolibjon Sodiqovga uyushmani tuzish uchun rasman vakolat berildi. Respublika hukumatining xalq Komissarlari 1940 yil 21 fevral № 258 - qaroriga binoan O'zbekiston bastakorlar uyushmasi 1 syezdini 1941 yil oktyabr oyida o'tkazish belgilandi hamda a'zolari tasdiqlandi: Tolibjon Sodiqov—rais, Muxtor Ashrafiy - rais o'rinbosari, Karim Abdullayev - mas'ul kotib, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Nikolay Mironov, Aleksey Kozlovskiy, Yelena Romanovskaya, Mutal Burhonov, Viktor Uspenskiy, Sharif Ramazonov, Imomjon Ikromov, Matyusup Xarratovlar - hay'at azolari qilib saylandilar. K. Abdullayev o'z arizasiga ko'ra mas'ul kotib vazifasidan ozod etilgach, o'rniga musiqashunos Ye. Ye. Romanovskaya saylandi.

Sobiq ittifoq hukumati qaroriga asosan 1939 yili «Kompozitorlar uyushmasi» va «Musiqa fondi» ta'sis komiteti tashkil etilgan edi. Hay'at raisi vazifasiga atoqli kompozitor va musiqashunos, akademik Boris Vladimirovich Asafyev (adabiy taxallusi Igor' Glebov (1884 - 1949) tayinlandi. Uyushmaning birinchi tashkiliy qurultoyini o'tkazish 1941 yil noyabr oyiga belgilandi. Mazkur tashkilot tarkibiga boshqa respublikalar uyushmalari qatori O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi ham kiritildi va «O'zbekiston musiqa fondi bo'limi» tashkil topdi. Sinsadze – direktor, Kolesnichenko bosh hisobchi etib tayinlandilar. 1941 yil 22 iyunida boshlangan Ikkinchi Jahon urushi mazkur ijodiy uyushma qurul-toylarini o'tkazishga imkoniyat bermadi. Urush yillari O'zbekistoi kompozitorlar uyushmasi va uning «Musiqa fondi» jangovar shtabga aylandi. Ayrim sanatkorlar qo'llariga

qurol olib jang maydonlariga otlandilar, qolganlari esa adabiyot va sanatning rivojlanish jarayonida faol mehnat va ijod qildilar. Bastakor va kompozitorlar, shoir va dramaturglar bilan hamkorlikda musiqaning barcha shakl va janrlarida ijod qilib, yangi - yangi musiqiy va saxna asarlar yaratdilar. Bu jarayonda, yukorida tilga olingan hay'at a'zolari bilan birgalikda K. Jabborov, F. Sodiqov, S. Kalonov, N. Xasanov, P. Raximov, M. Niyozov, Nishonov, M. Salimov, O. Toshmatov (Orif garmon), K. Mansurov, M. Murtazayev, A. Allaberganov kabi bastakorlar, 1941 yilning iyun oyida Toshkent davlat konservatoriyasining ilk bitiruvchilari I. Akbarov, B. Giyenko, V. Meyen, I. Hamzin (urushda xalok bo'lgan) hamda konservatoriya pedagoglaridan G. Mushel, B. Nadejdin, Yan Pekker va yukori kurs kompozitor - talabalari urush mavzusiga bagishlangan asarlar yarata boshlashdi. Bu ijodiy jarayonga Moskva va Leningrad, shuningdek, Belorusiyadan vaqtincha ko'chib kelgan taniqli kompozitorlardan B. Arapov, S. Vasilenko, V. Voloshinov, L. Revuskiy, O. Chishko, Yu. Tyulin, M. Shteynberg, N. Boguslavskiy, G. Taranov va Leningrad konservatoriyasining professor, pedagog va talabalari ham qo'shildilar.

1948 yil 11 - 14 oktyabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining 1 qurultoyi bo'ldi. T. Sodiqov hisobot ma'ruzasida respublikamiz musiqa madaniyatining rivojlanishidagi yutuq va muammolariga to'xtab o'tdi. Qurultoy dasturida kompozitorlarning musiqali spektakllari, turli janrlarda yaratilgan musiqali asarlari yangradi. Qurultoyda uyushmaning hay'at azolari, rais lavozimiga kompozitor Sobir Boboyev, rais o'rinbosari lavozimiga B. Giyenko, taftish komissiyasi a'zolari va uning raisi etib I. Akbarov, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'at a'zolari, uning raisi etib V. Meyen saylandi. Direktor vazifasiga R. Gisin tasdiqlandi.

Shuni aytib o'tish joizki, 1945 - 59 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga konservatoriyani bitirgan 27 nafar yosh kompozitorlardan quyidagilar qabul qilindi: I. Hamroyev, G. Kodirov, G. Sobitov, Pak Yendin, I. Akbarov, G. Zubatov, V. Knyazev, X. Izomov, D. Zokirov, S. Boboyev, D. Soatkulov, S. Abramova, A. Berlin, X.

Raximov, S. Varelas, A. Muhamedov, V. Zudov, F. Nazarov, O. Salimov, Yu. Nikolayev, A. Malaxov, F. Yanov - Yanovskiy; Konservatoriyanı bitirgan 54 nafar yosh musiqashunoslardan I. Dulgarova, Yu. Kon, K. Alimbayeva, F. Karomatov, M. Kovbas, A. Asinovskaya, T. Solomonova, T. Adambayeva, T. Golovyans, T. Jumayev, M. Axmedov va N.Yanov-Yanovskayalar qabul qilindi.

1955 yilning 10 - 16 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining II qurultoyi bo'lib o'tdi. Uning dasturida uchta simfonik konsert, bitta o'zbek xalq cholg'ulari orkestri konserti, kamer konsert, xor konserti hamda G. Mushelning «Raqqosa» baleti, T. Sodiqov va R. Glierning «Gulsara» operasi, T. Jalilov va G. Mushellarning «Muqimiy» musiqali dramalari namoyish etildi. S. Boboyev «O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoni, muammolari va san'atkorlarning vazifasi» mavzuida ma'ruza qildi. Minbarga chiqkanlar konsert dasturlariga kiritilgan asarlarning yutuq va kamchiliklari, musiqani targibot qilishdagi muammolar to'grisida o'z fikr va mulohazalarini bayon qildilar. Hay'at raisi lavozimiga Mutal Burhonov, uning o'riibosari etib B. Giyenko, mas'ul kotib etib M. Aliyev, taftish hay'ati raisi etib I. N. Karelova saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi» raisi vazifasiga V. A. Meyen, direktori etib L. R. Gisin tasdiqlandi.

1960 yilning 8-14 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Sh - chi qurultoyi bo'ldi. Uning konsert dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan yangi musiqiy asarlari 7 ta konsertda namoyish qilindi, shuningdek, quyidagi spektakl va kinofilmlar delegat va mexmonlar e'tiboriga xavola etildi: S. Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi, T. Jalilov va G. Sobitovlarning «Nurxon» musiqali dramasi, I. Akbarov musiqasi bilan «Ikkinchi gulshan» va M. Leviyev musiqasi bilan «Mahallada duv - duv gap» («Syurpriz») badiiy kinofilmlari ko'rsatildi. M. Burhonov «O'zbekiston musiqa san'atining rivojlanish jarayoni va san'atkorlarning vazifalari» mavzuida ma'ruza qildi. U respublikaning musiqiy hayotidagi yutuq va kamchiliklarga, hamda yechilmagan muammolariga to'xtalib o'tdi. Shu

bilan birga kompozitorlarning ijodiy faoliyatidagi jiddiy nuksonlar tankid ostiga olindi. Taftish hay'ati raisi I. N. Karelova o'z ma'ruzasida M. Burhonov so'zlarini tasdiqladi. Qurultoy kun tartibi haqida qaror qabul qildi va tashkiliy masalani ko'rib chiqdi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining hay'at raisi lavozimiga Sobir Boboyev, uning o'rinbosari etib Raximov, mas'ul kotib A. A. Berlin, taftish hay'at raisi lavozimiga I. N. Karelovalar saylandilar.

«O'zbekiston musiqa fondi» hay'at azolari va uning raisi etib I. Akbarov saylandilar. Fond direktorligiga L. R. Gisin tasdiqlandi.

1962 yilning 13 - 18 fevralida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining navbatdan tashqari bo'lib o'tgan IV syezdida S. Boboyev va D. B. Kabalevskiy maruza qilishdilar. Syezd konsert dasturida turli janrlarda yaratilgan musiqiy va saxna asarlar namoyish qilindi.

1965 yilning 7 - 15 martida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining V syezdi bo'ldi. Syezd dasturida turli janrlarda yaratilgan asarlar, jumladan S. Boboyevning «Hamza», M. Ashrafiyning «Shoir qalbi», M. Yusupovning «Xorazm qo'shig'i» va R. Hamroyevning «Zulmatdan ziyo» operalari, G. Mushelning «Kashmir afsonasi» baleti, M. Leviyevning «Toshbolta oshiq», S. Boboyevning «Ikki bilaguzuk» va A. Muhamedovning «Jon qizlar» musiqali komediyalari, Hamid Raximovning «Ishqing bilan» musiqali dramasi namoyish qilindi. Hay'at raisi S. Boboyev «O'zbekiston kompozitorlari va musiqa-shunoslarining ijodiy faoliyatidagi yutuq va muammolar» mavzuida ma'ruza qildi. Syezd tashkiliy masalani ko'rib chiqdi. Uyushma hay'ati rais lavozimiga Ahmad Hamidovich Jabborov, uning o'rinbosari etib B. Giyenko, mas'ul kotiblikka G'. Qodirov, taftish hay'ati va uning raisi vazifasiga Tovur Jumayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati a'zolari, uning raisi etib Ilyos Akbarov saylandi. Fond direktori lavozimiga

M. T. Gisin tasdiqlandi. 1967 yilning sentyabr oyida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Qoraqalpog'iston bo'limi ochildi. Bunga bag'ishlaigan ikkita konsertda qoraqalpoq kompozitorlarining turli janrlardagi asarlari va ikkita musiqali drama namoyish etildi, O'zbekiston Kompozitorlar

uyushmasining hay'at raisi A. X. Jabborov ma'ruza qildi. Mazkur uyushma bo'limining raisi lavozimiga Olimjon Halimov, mas'ul kotiblikga Tojigul Adambayevalar saylandilar.

1971 yilning 15 noyabr - 2 dekabr kunlari O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VI syezdi bo'ldi. Uning dasturida kompozitorlarning simfonik, vokal - simfonik, kamer cholg'u, kamer - vokal asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun kuy va qo'shiqlar, qo'shiq va romans, estrada, xor jamoalari va bolalar uchun yozilgan asarlar yangradi. quyidagi sahna asarlari: A. Berlinning «To'y kuni» (A. Rozov librettosi) operasi, M. Ashrafiyning «Temur Malik» baleti, R. Vil'danovning «O'n ikkinchi kecha» (Shekspir pyesasi asosida) musiqali komediya, D. Zokirov va K. Jabborovlarning «Mening jannatim» (S. Abdulla pyesasi) musiqali dramalari namoyish etildi. Hay'at raisi A. K. Jabborov O'zbekiston kompozitor va musiqashunoslarning ijodiy faoliyatlari res-publikaning zamonaviy musiqiy sanatining rivojlanish jarayonidagi yutuq va muammolar hamda musiqa targ'ibotidagi nuqsonlar to'g'risida ma'ruza qildi. Hay'at azolari va uning raisi lavozimiga A. K. Jabborov, uning o'rinbosari etib B. Giyenko, mas'ul kotiblikga E. Soliqov, taftish hay'ati a'zolari va uning raisi etib T. Jumayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hakami va uning raisi lavozimiga I. Akbarov saylandi. Direktor bo'lib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Toshtemir Sharipov tasdiqlandi. 1976 yilning 12 - 19 martida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VII syezdi bo'ldi. Syezdning konsert dasturida kompozitorlarning turli janr va shakllarda yaratgan yangi musiqiy asarlari yangradi. N. Zokirovning «Sohil bo'yida to'qnashuv» operasi, M. Ashrafiyning «Muhabbat va qilich» («Temur Malik») baleti, S. Jalilning «Laqma», M. Leviyevning «Zamonali va Omonali» musiqali komediyalari namoyish qilindi. Tashkiliy masala ko'rilib, hay'at a'zolari va uning raisi lavozimiga Enmark Solihov saylandi. Uning o'rinbosarlari lavozimiga B. Giyenko va N. Zokirov, mas'ul kotiblikga V. Zudov saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi»

hay'ati va uyushmaning raisi I.Akbarov saylandi. Fond direktori etib T. Sharipov tasdiqlandi.

1982 yilning 13 - 19 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VIII syezdi bo'ldi. Uning dasturida N. Zokirovning «Uyg'onish» nomli operasi, A. Berlining «Vasilisa prekrasnaya» bolalar uchun baleti, T. Xrennikoviing «Lyubovyu za lyubov» baleti, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi ijro etildi. Hay'at raisi Enmark Solixov va taftish hay'ati raisi Tovur Jumayev hisobot maruza qildilar. hay'atining birinchi kotibi lavozimiga Sobir Boboyev, mas'ul kotiblik Mirsodiq Tojiyev, Aleksandr Berlin, Ulug'bek Musayev va Galina Kuznesovalar, taftish hay'ati va uning raisi etib M. S. Kovbas, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va raisi qilib Ilyos Akbarovlar saylandilar. Musiqa fondi direktori etib Toshtemir Sharipov tasdiqlandi. (izoh: Bastakorlar uyushmasi hay'atining birinchi kotibi Sobir Boboyev bemor bo'lib qolganligi sababli, o'z arizasiga ko'ra 1984 yilning oktyabr oyida vazifasidan ozod etildi. Uning o'rniga Mirsodiq Tojiyev, mas'ul kotib lavozimiga kompozitor Rustam Abdullayev, musiqashunos Irina Kul'bashnayalar tayinlandi).

1987 yilning 12 - 18 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining IX syezdi bo'ldi. Musiqali teatrlarda R. Abdullayevning «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi, S. Jalilning «Zebuniso» operasi, U. Musayevning «To'maris» baleti, M. Bafoyevning «Yettinchi jin» musiqali dramasi, M. Leviyevning «Mangulik» musiqali dramasi tomosha-binlarga havola etildi. Syezd minbaridan uyushmaning birinchi kotibi Mirsodiq Tojiyev va taftish hay'ati raisi M. S. Kovbas hisobot ma'ruza qildilar. Uyushma hay'ati raisi lavozimiga musiqashunos Axmad Hamidovich Jabborov, masul kotiblik kompozitorlar Ulug'bek Musayev va Rustam Abdullayevlar, taftish hay'ati va uning raisligiga Rustambek Abdullayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va uning raisi, Mardon Nasimov saylandi. Fond direktori etib Toshtemir Sharipov tasdiqlandi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining tashkil topganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan 1988 yilning 27 noyabridan 8 dekabrigacha yubiley Plenumi

bo'lib o'tdi. Plenum konsertlari va ijodiy uchrashuvlar haqiqiy musiqa bayramiga aylanib ketdi. Plenum ishini tugallash arafasida 24 - 26 ioyabr kunlari dunyodan ko'z yumgan kompozitorlar va musiqashunoslarga bag'ishlangan «Xotira kechalari» o'tkazildi va qabrlari ziyorat qilindi. Marhum kompozitorlarning musiqiy asarlari uchta konsert dasturida jarangladi. N. Zokirovning «Gamlet» S. Yudakovning «Maysaraning ishi» operalari, R. Abdullayevniig «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi M. Ashrafiyning «Sevgi tumori» baleti, U. Musayevning «To'maris» hamda Samarqand opera va balet teatrida D. Qodirovaning «Sayyora» baleti,

M. Bafojevning «Prometey» musiqali dramasi, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Shuni aytib o'tish joizki, XX asrning 60 – 70 – 80 - yillarida O'zbekistoi Bastakorlar uyushmasi tashabbusi bilan Toshkentda har yili O'rta Osiyo va Qozogiston kompozitorlarining asarlaridan «Simfonik musiqa festivali» o'tkazildi. Mazkur festivalni o'tkazishda O'zbekiston xalq artisti, professor dirijyor Z.Haqnazarov rahbarligidagi simfonik orkestrning faoliyati muhim rol o'ynadi.

1972 yilning may oyida O'zbekistonda «Gruziya musiqa haftaligi», 1 - 7 noyabrda esa «O'zbekiston musiqa haftaligi» Gruziyada bo'lib o'tdi. Mazkur haftaliklarda gruzin va o'zbek kompozitorlarining simfonik, vokal - simfonik, kamer - cholg'u, kamer - vokal musiqiy asarlari konsert dasturlarida jarangladi. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlari musiqa bilim yurtlari, bolalar musiqa maktablarida va shahar faollari bilan gruzin kompozitorlarning ijodiy uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlarning konsert dasturida gruzin va o'zbek ijrochilari faol qatnashdilar. Xuddi shunday o'zbek kompozitorlarining ijodiy uchrashuvlari va konsertlari Tbilisi, Barjomi, Kutaisi, Suxumi va Poti shaharlarida bo'lib o'tdi. Bu ijodiy uchrashuvlar va konsertlar ikki xalqning musiqiy bayramiga aylanib ketdi. O'zbekistondan A. Jabborov rahbarligida M. Ashrafiy, M. Burhonov, S. Yudakov, B. Giyenko, Sayfi Jalil, S. Boboyev, R. Abdullayev kabi kompozitorlar, dirijyor B.

To'laganov, skripkachi Marlis Yunusxonov, xonandalar M. Xojiniyozov, R. Yusupova, T. Sharipov va Gruzija san'atkorlari faol qatnashdilar.

1991 yilning 1 sentyabri O'zbekiston mustaqilligi bayrami deb e'lon qilindi. O'zbekistonda sobiq totalitar davlat o'rniga mustaqil demokratik, huquqiy davlat o'rnatildi. Bular tufayli mustaqil davlat qurilishida respublikada jahon sivilizasiyasi tomonidan erishilgan tajriba va siyosiy - huquqiy ta'limotlar, xalqimizning boy haqiqiy, madaniy merosini mukammal tiklashga, o'rganishga katta imkoniyatlar vujudga keldi. O'zbekistonda keskin ravishda siyosiy -ijtimoiy, iqtisodiy - madaniy hamda ma'naviy o'zgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz I.A.Karimov iftixor bilan ta'kidlaganidek, «Ma'naviyat insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch -quvvatidir». Respublikamizdagi iqtisodiy - ijtimoiy va madaniy hayotdagi bunday ijobiy o'zgarishlar xalqimizni, yangi - yangi ijodiy zafarlarga chorlamokda.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining 1990 yil 29 oktyabrda o'tkazilgan umumiy majlisida tashkilotning yangi Nizomi ishlab chiqilib, 1991 yilning 3 yanvarida tasdiqlandi va o'sha kundan kuchga kirdi. Mazkur Nizomda uyushma maqsadi va vazifalari aniqlandi. Uyushmaning asosiy maqsadi: «O'zbekiston milliy musiqasini keng ko'lamda boyitish va yuksaltirish, O'zbekistonda yashaydigan boshqa xalqlar musiqasi kamol topishiga muntazam yordam berish, musiqiy tarbiyalashga butun kuch - kudratini safarbar etish, O'zbekiston kompozitor va musiqashunoslarini jumhuriyat va xorijiy davlatlarda targ'ibot qilish» dan iboratligi belgilab olindi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining a'zolari ozod va obod Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar. Mustaqillikning o'tgan davrida kompozitorlar A. Navoiy nomidagi opera va balet teatrini, ayniqsa, Muqimiy nomidagi musiqali teatrni va viloyatdagi barcha teatrlarni, milliy simfonik orkestrni, xor jamoalarini o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlarini, estrada simfonik orkestrini, kamer simfonik orkestrini, drama teatrlarni, bolalar xor jamoalarini, O'zbekiston Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va chegarachilar qo'shinlari tarkibidagi

«Ashula va raqs ansambli» va damli cholg'u asboblari orkestrlari va boshqa ijrochi jamoalarining repertuarlarini yangi - yangi musiqiy asarlar, spektakllar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. Shu bilan birga uyushma a'zolari respublikamizda har yili o'tkazilayotgan «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq tanlovida, har ikki yilda Samarqand shahrida o'tkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida faol qatnashmoqdalar. Zamonaviy simfonik musiqa san'atini rivojlantirish va targ'ib qilish niyatida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zteleradio kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi va «O'zbeknavo» bilan hamkorlikda har ikki yilda Toshkent «Xalqaro simfonik musiqa festivali» nomli anjumanni, Yoshlar «Ilhom» teatr jamoasi har yili Toshkentda «Xalqaro zamonaviy musiqa festivalini», Bastakorlar uyushmasi «Davr sadolari» anjumanini o'tkazib kelmoqda. Mazkur festivallarni o'tkazishda kompozitor va musiqashunoslar tashkilotchi va musiqa muallifi sifatida ishtirok etmoqdalar.

1995 yilning 1 - 6 noyabrida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi X qurultoyini o'tkazdi. 6 kun davom etgan qurultoy dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan asarlari jarangladi. Konsert dasturida quyidagi sahna asarlari tomoshabinlar etiboriga havola etildi: N. Zokirovning «Taxtga yo'l», M. Bafoyevning (O. Uzoqov va J. Kamol librettosi) «Umar Hayyom», S. Jalil va T. To'lalarning «Malikai sayyor» operalari, S. Hayitboyev, E. Samandarovlarning «Bashorat», F. Alimov, O'. Umarbekov, R.Ma'diyevlarning «Fotima va Zuhra», Sh. Shoyimardonova, X. G'ulomlarning «Muhabbat navosi» musiqali dramalari, A. Mansurov, N. Qobillarning «Bir soatlik halifa» musiqali komediyasi namoyish etildi. Qurultoy tashkiliy masalani ham ko'rib chiqdi. Uyushmaning kengash a'zolari saylandi. Kengash raisi lavozimiga kompozitor Rustam Abdullayev, o'rinbosarlar etib kompozitor Habibulla Raximov, musiqashunos Ravshan Yunusov va bastakor Avaz Mansurovlar, taftish hay'ati va uning raisi qilib musiqashunos Rustambek Abdullayev saylandi. Uyushma «O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi» deb ataldi va Nizomga ayrim o'zgarishlar kiritildi.

2.2. O'zbek kompozitorlarining ijod janrlari tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasining muallifi, O'zbekiston xalq artisti, Mutal (Mutavakil) Burhonov hayoti va ijodiy faoliyati zamonaviy o'zbek professional san'atining rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu nodir iste'dod sohibi barkamol, shirador va jozibali asarlari bilan yurtimizni dunyoga tanitdi. Uning barcha asarlari originalligi, milliyligi bilan ajralib turadi. Kompozitorning qo'shiq va romansi, simfonik va vokal - simfonik asari, saxna va kino musiqasi tinglovchining qalbiga yetib boradi.

O'zbek xalqining asl farzandi Mutal Burhonov 1916 yil 5 - mayda Buxoro shahrida Bozori nav, Kavshi olak mahallasida (hozirgi Pushkin ko'chasi, 24 - uyda) madrasa mudarrisi Muzainiddin Burhonov oilasida tug'ildi.

Kompozitorlik ta'limini olish orzusida u 1935 yili Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan «O'zbek opera studiya» sida tahsil ko'rdi. 1939 yilda Moskva konservatoriyasi asosiy kursida professor S. N. Vasilenko sinfida o'qishini davom ettirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko'ngillilar armiyasi safida Moskva shahrining himoyasiga otlandi, 1942 yili esa kattik betob bo'lib, Toshkentga qaytib davolandi, ijod bilan shug'ullandi. 1946 yildan o'qishini davom ettirib, 1949 yili Moskva konservatoriyasi kompozitorlik kulliyotini muvafaqiyatlili tugalladi.

Kompozitor ijodining asosiy qismini vokal musiqasi tashkil etadi. U talabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir A. Lohutiy she'rlariga bastalagan «Ey bulbul» romansi va «Buti nozaninam» («Mening go'zalim») qo'shig'idan va Mashrab she'riga «Ishq o'ti», yakkaxon va simfonik orkestr uchun bastalagan balladasi kabilardan boshladi. Urush yillari «Jangchilar qo'shig'i» (Uyg'un so'zi), «Samolyot» (H. Olimjon so'zi), «Uchib ketasan» (Z. Diyor so'zi), «Paxtam ochilsa» (Kamtar so'zi) qo'shiqlar, «Ishqida» (Uyg'un so'zi), «Dilbarimo» (A. Lohutiy so'zi) romanslar paydo bo'ldi. M. Burhonov qalamiga mansub «Maftuningman» kinofilmida Botir Zokirov ijro etgan «Maftuningman», Klara Jalilova ijrosidagi «Yulduz qo'shig'i» va «Do'ppi tikdim ipaklari tillodan» (T. To'la so'zi), Laylo Sharipova ijro etgan «Bahor qo'shig'i» (T. To'la so'zi) va «Samolyotlar qo'nolmadi» kinofilmida arab ayolining qo'shig'i, Yunus To'rayev ijrosidagi «Gul diyorim» (E. Vohidov so'zi) va «Go'zal Nukus shahrim» (I. Yusupov

so'zi), Tamaraxonim ijro etgan «Go'zal Farg'ona» (A. Bobojon so'zi), «Uyg'ur qiziga» (Mamatxonova so'zi), «Vatan qo'shig'i» (G'. G'ulom so'zi), «Yorim bor» (Mirtemir so'zi), «Go'zal O'zbekiston» (Shuhrat so'zi), «Boy ila xizmatchi» kinofilmdan Gulbahor allasi kabi ajoyib qo'shiqlar keng kanot yozdi.

M. Burhonov vokal - simfonik janrlarda ham barakali ijod qildi. 1949 yilda yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Gullagay O'zbekiston» kantatasi, «Bahor qushlari» (S. Umariy so'zi) vokal - simfonik poemasi, «Oq oltin» (I. Yusupov so'zi) vals - qo'shiq poemasi. Shu asarni M. Turg'unboyeva o'z vaqtida «Bahor» raqs ansambli uchun sahnalashtirgan va hujjatli film olingan. Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga bag'ishlab A. Oripov bilan hamkorlikda «Alisher Navoiyga qasida» (1968 y.) vokal - simfonik poemasi, shu shoir bilan 1975 yili urushda halok bo'lganlar xotirasiga bag'ishlab xor va simfonik orkestr uchun «Epitafiya» marsiyasini yaratdi.

M. Burhonov birinchilardan bo'lib 50 - yillarning boshlarida o'zbek xalq qo'shiqlari «Go'zal qizga», «Yorlarim», tojik xalq qo'shiqlari «Sari ko'hi baland» va «Zarragul», qoraqalpoq xalq qo'shiqlari «Bibigul», «Ayrilik», uyg'ur xalq qo'shig'i «Sayra», qozoq xalq qo'shig'i «Dudaray», keyingi yillarda afg'on xalq qo'shig'i «Chashmi siyoh», eron xalq qo'shiqlari - «Guli gandum» va «Damkul - damkul» kabilarni akapella xori uchun moslashtirib, murakab ijodiy masalani muvaffaqiyat bilan yecha oldi.

Noyob iste'dod sohibi M. Burhonov 1990 yilda Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlab «Alisher Navoiy» operasini yaratdi. U Uyg'un va I. Sulton dramasini qayta ishlab, opera janriga moslagan holda libretto tuzib, jozibali musiqa yaratdi va u 1990 yilning oxirida Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat Akademik opera va balet katta teatrida sahna yuzini ko'rdi.

M. Burhonov ijodiy faoliyatida kino musiqasi ham muhim o'rin egallaydi. Uning 50 – 70 - yillarda «Boy ila xizmatchi» (rejissyor L. Fayziyev), «Abu Ali ibn Sino» (rej. K. Yormatov), «Samolyotlar qo'nolmadi» (rej. Z. Sobitov), «Surayyo» (rej. U. Nazarov), «Tark etilgan kelin» (rej. Y. A'zamov) badiiy kinofilmlarga yozilgan musiqasi madaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirdi. M. Leviyev va I. Akbarovlar

bilan hamkorlikda «Maftuningman» va «Orol baliqchilari» kinofilmlariga yaratgan dilbar qo'shiqlari yangrab kelmoqda.

Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatrida sahnalashtirilgan: «Alisher Navoiy» (Uyg'un va I. Sulton pyesasi, 1943 y.), «Hikmat» (Sh. Tuyg'un pyesasi, 1950 y.), «Boy ila xizmatchi» (Hamza pyesasi, 1953 y.) spektakllariga M. Burhonov musiqa bastalagan. Respublika qo'g'irchoq teatrida namoyish qilingan H. Olimjonning «Oygul va Baxtiyor» spektakliga ham kompozitor musiqa yaratgan. M. Burhonov «O'zbek xalq cholg'ulari orkestri» uchun «Mavrigi», har xil pyesalar, syuitalar, simfonik orkestr uchun syuitalar, skripka va violonchel ansambli uchun vals va pyesalar yaratdi. Bolalar xori uchun qator qo'shiqlar bastalagan.

M. Burhonov tabarruk 80 yoshlik to'yini yangi musiqiy asarlar bilan kutib oldi. Jomiy do'sti Alisher Navoiyga bag'ishlab «Shiru shakar» she'riga qo'shiq, bolalar xori uchun «Vatan bizga mehribon» (M. Mirzo so'zi) qo'shig'i, akapella xori uchun «Buxoroi Sharif» (Rudakiy she'ri) qo'shiqlarini yaratdi. Shu bilan birga O'zbekiston musiqasi tarixida M. Burhonov birinchi bo'lib yakkaxonlar xor va simfonik orkestr uchun besh qismli «Abadiy xotira» nomli rekviyem yaratdi. Bu asarda qatag'on yillari qurboni bo'lgan o'zbek xalqining ulug' farzandlari Abdulla Kodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jayev, kompozitorning katta akasi Misboh, amakilari Masxariddin, Mukammil va Muammir Burhonovlar xotirasiga bag'ishlangan. Bu asar 1996 yil 14 mayda «Turkiston» saroyida kompozitorning yubiley kechasiga bag'ishlangan konsert dasturida ilk bor ijro etildi. S. Qobulova, F. Zokirov, badiiy so'z ustasi T. Mo'minov, A. Abduqodirov, Z. Haknazarov rahbarligidagi milliy simfonik orkestr, xormeysterlar A. Hamidov va J. Shukurovlar rahbarliklaridagi qo'shma xor jamoalari qatnashgan edi.

Kompozitor Mutal Burhonov O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda buyuk xizmatlari uchun «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlariga, «Mehnat shuhrati» medali, O'zbekiston, Tojikiston va Belorusiya hukumatlari faxriy yorliqlari bilan mukofotlangan. 1999 yili Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning qo'lidan «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini M. Burhonov qabul qilib olishga muyassar bo'ldi. M. Burhonov

tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan yubiley konsert Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrda 2001 yil 17 mayda o'tdi. Shu munosabat bilan u «El - yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandi.

2002 yil 24 mayda esa O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida M. Burhonov tavalludining 86 yilligi konserti bilan nishonlandi. Konsert dasturida kompozitorning ilgari bastalagan musiqiy asarlari bilan birga 2002 yilda yaratgan ikkita yangi asari: skripka va kamer orkestr uchun «Lirik poema» Yayra Matyoqubova ijrosida va Buxoro universiadasi bag'ishlangan damli cholg'u orkestri uchun «Marsh» ni O'zbekiston ichki ishlar vazirligining «Namunali» damli cholg'ular orkestri ijro etdi. Mutavakil Burhonov Buxoro shaxrida 2002 yilning 15 iyunida dunyodan ko'z yumdi.

O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor, sozanda To'xtasin Jalilov XX asr o'zbek musiqasi tarixida katta o'rin egalladi. Benazir mahorat bilan ajoyib qo'shiq, lirik ashula va raqs kuylar, qirqqa yaqin musiqali drama va komediya, «Tohir va Zuhra» (B. Brovsin bilan hamkorlikda) nomli opera yaratib, respublikamizda mazkur janrlarning taraqqiy etishiga ulkan hissa ko'shdi. Ustoz ijodiy izlandi, tinmay mehnat qildi, ko'p qirrali ijodiy, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san'atida chuqur iz qoldirdi. Shuni aytish joizki, u yetishtirgan yuzlab shogirdlar ham O'zbekiston musiqa san'atining ravnaqi yo'lida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu ulug' insonni san'atkor ahli va xalqimiz hurmat qilib «Usta», deb e'zozladi.

1923 yili Moskvada o'tkazilgan hunarmandlar ko'rgazmasi konsert dasturida T. Jalilov ham qatnashdi. 1925 yildan Hamza tuzgan Farg'ona teatr truppasida ishladi, keyingi yili mashhur san'atkor M. Qoriyoqubov Samarqandda tashkil etgan O'zbek davlat etnografik ansambliga taklif qilindi. 1927 yili ansambl bilan Moskva, Leningrad, Boku, Qozon va Ufa shaharlarida o'tkazilgan gastrol konsertlarida bo'ldi. 1928 yil Andijondagi O'zbek davlat musiqali drama teatriga musiqa rahbari vazifasiga taklif qilindi. Mazkur teatrda T. Jalilov «Lolajon» (K. Yashin pyesasi), «Qashqar qizi», «Oyxon» (S. Abdulla pyesalari), «O'rtoqlar» (K. Yashin pyesasi), «Halima» (G'. Zafariy pyesasi), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» (Sh. Xurshid pyesalari)

spektakllari uchun kuy, qo'shiq va ashulalarni xalq musiqa merosidan tanlab oldi. T. Jalilov O'zbek davlat musiqali teatrining musiqa rahbari etib tayinlandi. G'. Zafariyning «Halima», K. Yashinning «O'rtoqlar» pyesalari hamda konsert dasturi ustida ijodiy ish olib bordi. Mazkur spektakllar musiqasini qayta ishladi.

1936 yili Londonda o'tkazilgan jahon raqs festivalida T. Jalilov, M. Qoriyoqubov, Tamaraxonim va Usta Olim Komilovlar qatnashib, qo'sh mukofotlarga sazovor bo'ldilar.

1936 yilda Toshkentda O'zbek davlat filarmoniyasi M. Qoriyoqubov rahbarligida tashkil topdi. Filarmoniya jamoalarida Moskvada o'tkaziladigan O'zbek san'at va adabiyotining birinchi dekadasiga tayyorgarlik qizg'in boshlanib ketdi. T. Jalilovga 120 kishidan iborat bo'lgan O'zbek ashula va raqs ansambli tashkil etish va boshchilik vazifasi topshirildi. Mazkur ansambl ustoz rahbarligida Moskva, shuningdek Ozarbayjon, Ukraina va Belorusiya bo'ylab gastrol safarlarida bo'ldi.

1939 yilning oxirida Muqimiy nomidaga O'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri tashkil topdi. Mazkur teatrga T. Jalilov rahbar etib tayinlandi. Uning bastakorlik faoliyati bu yerda yanada samaraliroq bo'ldi. U dramaturg S. Abdulla bilan hamkorlikda 1939 yilda yaratgan «Tohir va Zuhra» musiqali dramasini sahnalashtirishdan boshlandi. 1941 yili «Qurbon Umarov» (S. Abdulla pyesasi, kompozitor G. Shperling bilan hamkorlikda); 1942 yili «Nurxon» (K. Yashin pyesasi, kompozitor G. Sobitov bilan hamkorlikda); 1943 yili «O'zbekiston qilichi» (H. Olimjon pyesasi, K. Yashin, Uyg'un va N. Pogodinlar, bastakorlar T. Sodiqov, M. Burhonov, N. Hasanov, Klimov va Vaynberglar hamkorligida); 1943 yili «Asrlar» (Uyg'un pyesasi, kompozitor B. Nadejdin bilan hamkorlikda); 1945 yili «G'unchalar» va 1947 yili «Orzu» (S. Abdulla pyesasi, kompozitor B. Brovsin bilan hamkorlikda); 1949 yili «Alpomish» (S. Abdulla pyesasi, kompozitor B. Nadejdin bilan hamkorlikda); 1949 yili «Muqimiy» (S. Abdulla pyesasi, kompozitor G. Mushel bilan hamkorlikda); 1952 yili «Nurxon» ning musiqasi G. Sobitov bilan, 1953 yili «Tohir va Zuhra» musiqasi B. Giyenko bilan qayta tahrir etilgan; 1956 yili «Surmaxon» (B. Raximov pyesasi, kompozitor L. Stepanov bilan hamkorlikda); 1957 yili «Ravshan va Zulxumor» (K. Yashin pyesasi, kompozitor G. Mushel bilan hamkorlikda); 1957 yili «Istibdod» (S.

Abdulla pyesasi, kompozitor G. Sobitov bilan hamkorlikda); 1962 yili «Farg'ona hikoyasi» (H. G'ulom pyesasi, kompozitor B. Zeydman bilan hamkorlikda); 1962 yili «Dala malikasi» (Jalol Mashrabiy pyesasi) va 1949 yili B. Brovsin bilan hamkorlikda «Tohir va Zuhra» operasini yaratdi. 1977 yili shu opera qayta taxrir etildi.

O'zbek musiqa merosining bilimdoni T. Jalilov yillar davomida ijodiy izlandi, yangilika intildi va noyob musiqiy asarlar bastaladi. Uning zamonaviy uslubda yaratgan ilk kuyi «Signal», qo'shiqlaridan to «Yer ekaniki», «Oq oltin», (Kamtar so'zlari), «Dovrug'» (K. Ahmadiy so'zi) kabilargacha Vatanni madh etdi, insonning orzu - umidlari, inson muhabbati kabi nafis his - tuyg'ularini qo'shiq va ashulalarida ifoda etdi. Uning «Ey, hur Vatan», «Azim Vatan», «Ona Vatan», «Farhod qahramonlari», «Oldinga bos, bolam», «Yalla» (Uyg'un so'zi) kabi qo'shiqlari o'zbek qo'shiqchilik san'atiga zamon ruhiga mos keladigan yangi ohanglar olib keldi. Bulardan tashqari, «Kokiling», «Kuylasam» (Uyg'un so'zlari), «Bahor ayyomida» (Furqat she'ri), «Gulistonim mening» (Muqimiy she'ri) kabi lirik ashulalari muallifning ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Ustozning «To'ylar muborak» qo'shig'isiz esa o'zbek to'ylarini tasavvur etish qiyin.

Yunus Rajabiy o'zining hayoti va musiqa san'atiga kirib kelishini «O'zbekiston san'ati» jurnalining 1987 y. 3 - sonida bosilgan «O'zim va hamkasblarim haqida» esdalik maqolasida shunday ta'riflagan: «Men 1897 yilning 5 yanvarida Toshkent shahrida oddiy bog'bon, qassob oilasida dunyoga keldim.

7 yoshimdan eski maktabda o'qidim. 1910 yilda uni tugatib, madrasada uch yil tahsil ko'rdim. Bu yerda o'zbek she'riyati durdonalari bilan ko'proq tanishishga harakat qildim.

Mashhur san'atkorlar Sultonxon, Qurbonxon, Imomxon, Hoshimxon Hakimovlar bilan tanishdim. Ustozlarimning repertuarlarini mukammal o'rganib, yetuk sozanda va xonanda bo'lib, 1916 yilda Chimkentdan qaytdim. Shu yili mashhur musiqachi va ashulachi Shorahim Shoumarovga shogird tushib, u kishidan ta'lim oldim. Ustozim shu yili akam tanburchi Risqi va men naychi - dutorchi, xonanda Rajabiylar, kamonchi Imomjon Ikromov, doirachi Shojalilovlardan iborat ansambl tuzib, repertuarimizni boyitib xalq davrasiga chiqadigan bo'ldik. Bizning guruhimizni to'y - tomosha, gap, xilma - xil ma'rakalarga chaqiradigan bo'lishdi va hurmat -

e'tiborimiz ko'tarilib ketdi. 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi xalqimiz boshiga ko'p mushkulliklar keltirishiga qaramasdan, biz san'atkorlarni avaylab, e'zozlashardi.

1918 yili Toshkentda «Turkiston xalq konservatoriyasi» tashkil topdi. 1919 yili esa kompozitor V.Uspenskiyning tashabbusi bilan Baland masjid, Rohat bog'ida mazkur konservatoriyaning bo'limi ochildi. Bu bo'lim musiqa texnikumi deb ham atalar edi. Bu o'quv yurtiga menga o'xshagan yoshlarni qabul qilishdi. Bizga hofiz Shorahim Shoumarov, tanburchi Shobarot aka, doirachi Shojalil aka, doirachi Abdusoat Vahobov, changchi Ismat aka, g'ijjakchi Qurbonxon Hakimov, naychi Imomjon Hakimovlar ustoz - domlalik qilishar edi. V. I. Uspenskiy esa nota yozuvi va musiqa nazariyasidan, Saodatxonim Yenekeyeva pianino chalishtan dars berishar edilar. Shu davrda Uspenskiy ustozlarimizdan o'zbek musiqasi bilan tanishishga va uni yozib borishga kirishdi. U Shoumarov bilan birinchi yil birga ishladi va buning natijasida chormaqomdan anchagina qismini notaga yozib oldi.

1925 - 1926 yillarda Samarqand musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishladim. «Abdulfayzxon», «Yorqinoy», «Padarkush» kabi dramalar qo'yildi, ularga musiqa bastaladim. Shu orada «Farhod va Shirin» ham Samarqandda qo'yiladigan bo'lib qoldi, musiqasini qayta ishlab berdim. 1926 yilda «Layli va Majnun» (Sh.Xurshid pyesasi) musiqali dramasiga musiqa bastaladim.

1926 yili umr yo'ldoshimning vafoti sababli Toshkentga qaytib keldim. Toshkent radiouzelida radiostansiya 1927 yili tuzildi. Biz har kuni shu yerda yarim soatdan konsert berib turdik. Keyinroq shu yerda 12 kishilik ansambl tashkil topdi. Ansambl tarkibi borgan sari kengayib boraverdi. Mashhur san'atkorlardan Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov, Imomjon Ikromov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarratov (Chokariy), Anvar Rajabiy, Nazira Ahmedova, Maryam Alishayevalar ansamblimizning dastlabki yillaridagi a'zolari edi. 1935 yillarga borib ansamblimiz soni 40 taga yetdi va men ularga bevosita rahbarlik qildim. 1934 yili uch oy Moskvadagi malaka oshirish kursida, so'ngra Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursida Imomjon Ikromov bilan birgalikda saboq oldik.

1937 yilda Moskvada o'tadigan birinchi O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasi tayyorgarlik boshlandi. Dekadaga atab «Yolg'iz» (katta ashula), «Endi sendek» va «Hammamiz» kuylari asosida uch qismdan iborat syuita yaratdim va ijro etildi. Oltin soat bilan mukofotlandim. 1938 yili Bastakorlar uyushmasi tashkil topdi. Men esa a'zolika qabul qilindim. Bu tashkilot bastakor va musiqashunoslar hamda mening taqdirimda va respublikamiz musiqiy madaniyatini rivojlantirishda beqiyos rol o'ynab kelmoqda.

1939 yilda O'zbekistonda o'ttiz ijrochidan iborat birinchi xotin - qiz dutorchilar ansambli tuzish hukumat tomonidan mening zimmamga va Lutfixonim Sarimsoqovaga topshirildi. 1939 yilda hayotimda shu unutilmas voqeya sodir bo'ldi. Hukumatimiz ko'p yillik mehnatimni munosib taqdirlab, menga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» degan faxriy unvon berdi va «Shavkatli mehnat uchun» medali bilan taqdirlandim.

Bilimimni oshirish uchun 1941 yil boshida Moskvaga malaka oshirish kursiga Imomjon Ikromov, Muhammadaziz Niyozovlar bilan bordik. Professor G. I. Litinskiy, V. Vinogradov, san'atshunoslik fanlari doktori V. A. Sukerman, professor V. M. Belyayevlardan ta'lim ola boshladik. Favqulodda boshlangan Ikkinchi Jahon urushi o'qishni davom ettirishimga to'siqlik qildi. Toshkentga qaytib Yangiyo'l shahridagi Toshkent viloyati musiqali drama va komediya teatrida musiqa rahbari bo'lib ishlay boshladim.

1945 yili 9 mayda urush bizning g'alabamiz bilan tugagandan so'ng, hokimiyat rahbarlari meni yana Radio ansambliga rahbar qilib tayinlashdi. 1948 yili musiqa san'ati tarixida anchagina jiddiy g'oyaviy tortishuvlar ro'y berdi. Ya'ni xalqimizning asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan, milliy g'oyalar bilan sug'orilgan Shashmaqom, Farg'ona - Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari «Saroy musiqasi» deb, ijro etilishlari taqiqlab qo'yildi. 1953 yilda esa radioning O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrini tarqatib yubordilar. O'zbekiston radio musiqa eshittirish tahririyati faoliyati besh yilga yaqin radio karnaylaridan eshittirishlar va konsertlarda O'zbekiston Markaziy Komitetining ko'rsatmasiga asosan dasturlar tuziladigan bo'ldi. Yaratganga ming shukur. 1956 yildan boshlab ma'naviyatimizda bir oz bo'lsada erkinlik paydo

bo'la boshlandi. 1957 yili radioda O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrini qaytadan tiklash uchun topshiriq bo'ldi. Men orkestrga badiiy rahbar, Doni Zokirov bosh dirijyor qilib tayinlandi. 1958 yildan esa maqomchilar ansambli mening rahbarligimda ishlay boshladi.

Xalq musiqa merosining durdonalarini ko'pdan buyon to'plab notaga yozib olayotgan edim. 1947 yildan e'tiboran qayta sayqal berib, notaga tushira boshladim. 1955 yilda «O'zbek xalq musiqasi»ning birinchi tomi san'atsevar xalqimiz qo'liga borib yetdi. Bora bora, kelgusi 1957 - 1959 yillarda musiqashunos I. Akbarov tahririda yana to'rt jildi nashr etildi.

Keyingi 60 - 70 yillarda Shashmaqomning olti tomligi, har bir olti maqom alohida - alohida musiqashunos F. Karomatov tahririda nashr etildi. O'zbekiston radio eshittirish va televideniye Davlat komiteti qoshidagi maqom ansambli ijrosida Shashmaqomning ashula bo'limiga kirgan barcha sho'balarini shogirdlarimga o'rgatib, ular ijrosida magnit lentalariga, plastinkalarga ko'chirishga muvaffaq bo'ldim.

1920 - 1940 yillarda Yu.Rajabiy har xil mavzularda, klassik va zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlariga ashula, qo'shiqlar, marsh, xor qo'shig'i, kuylar yaratishdan boshlab uning «Fabrika yallasi» (K. Hoshimov so'zi), «Davron - davron» (G'ayratiy so'zi), xor: «Yashnadi» (M. G'ani so'zi), «Sirdaryo» (A. Kamtar so'zi), «Hamamiz» (Jipak so'zi), «G'alaba» (Mirtemir so'zi), «O'zbekiston» (A. Kamtar so'zi), «Kaxramon» (G'ayratiy so'zi), «Paxta» (A. Qodirov so'zi), «Vatan» (A. Muhammadxon so'zi), kabi juda ko'p qo'shiqlarlari radio to'lqinlarida yangrab tez orada ommalashib ketdi. Bular qatorida «Gulbog'lar», «Mirzacho'lda to'y», «Qahramonlar marshi», «Xalqlar do'stligi» kabi ommaviy qo'shiqlar o'zbek xalq qo'shiqlarining tuzilishiga yaqin bo'lsada, ular ohang jihatidan originalligi bilan ajralib turadi. Shular qatori bastakor yaratgan «Sog'inganman», «Yor keldi», «Kelding», «Muncha ham», «Koshki», «Judo», «Ishq», «Mustazod», «Hajringda», «Gul sochar», «Ra'nolanmasun» kabi qator lirik ashulalari xonandalar tomonidan sevilib ijro etilib kelmoqda.

Yu. Rajabiy ijodida teatr uchun musiqa bastalash muhim o'rin tutdi. U Samarqand teatrida ishlagan paytlarida yuqorida qayd qilingan sahna asarlardan tashqari, 1932 yili

Umarjon Ismoilov bilan hamkorlikda 1934 yili «Rustam» nomli musiqali dramani yaratib, keyinchalik yana quyidagi sahna asarlarga musiqa bastaladi: 1934 y. «Avaz» (A. Hidoyatov pyesasi), 1941 y. «Qasos» (A. Umariy va Tuyg'un pyesalari, musiqasini yozishda B. Nadejdin hamkorlik qilgan). Kompozitor N. Mironov bilan birgalikda 1942 yili «Qo'chqor Turdiyev» (S. Abdullo va R. G'ulomov pyesalari), 1943 yili «Nodira» (L. Qosimov pyesasi), G. Mushel hamkorligida 1944 yili «Muqanna» (H. Olimjon pyesasi) va 1944 yili «Farhod va Shirin» (K. Yashin pyesasi), 1968 yili kompozitor Sayfi Jalil bilan hamkorlikda «Alisher Navoiy Astrobodda» (I. Maqsumov pyesasi), 1964 yili S. Yudakov va B. Zeydmanlar bilan hamkorlikda «O'g'il uylantirish» (H. G'ulom pyesasi) musiqali dramalarini yaratdi. Shu bilan birga quyidagi drama spektakllariga musiqa bastaladi: 1938 yili «Boy ila xizmatchi», 1939 yili «Xolisxon» (Hamza asarlari) va quyidagi radiopostanovkalarga ham musiqa bastaladi: 1935 yili «Navoiy», 1936 yili «Muqimiy», 1938 yili «Furqat» va 1938 yili «Lola».

1957 yili O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Tolibjon Sodiqov, Boris Zeydman hamkorligida yaratilayotgan «Zaynab va Omon» (Zulfiya librettosi asosida) operasi, T. Sodiqovning bevaqt vafot etganligi sababli operani Yu. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar bilan 1958 yili oxirigacha yetkazildi va o'sha yili asar A. Navoiy nomidagi opera va balet katta akademik teatrida sahna yuzini ko'rdi.

Yu. Rajabiy musiqaning boshqa janrlarida ham qator asarlar yaratdi. Masalan: B. Nadejdin bilan «Paxta» nomli simfonik orkestr uchun raqs syuitasi, «Farg'onacha» syuitasi va «Segoh» simfonik pyesasi, o'zbek xalq cholg'ulari ansambli uchun «Raqs», shoir Furqatning she'riga bastalagan «Naylagayman», «Tong nasimi» va «Yuzing oydek» nomli uch qismli vokal - simfonik syuita va o'zbek cholg'ulari ansambliga bir talay kuylar bastaladi.

Yunus Rajabiy O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ulkan xizmatlari uchun qator orden va bir necha medallar bilan taqdirlangan. 1939 yili unga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 1953 yili «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlari berilgan. 1966 yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylangan.

Ustoz san'atkor Yunus Rajabiy O'zbekiston musiqa madaniyatiga, xalqiga bir umr sidqi dildan halol xizmat qilib, tirikligidayok o'ziga haykal qo'ygan mumtoz san'atkordir. Jizzax viloyat musiqali drama teatri, Toshkent pedagogika kolleji, Toshkent metrosi bekati, Toshkentning ko'chalaridan biri va o'zi asos solgan O'zbekiston radiosi «Maqom ansambli» uning nomi bilan ataladi. Yunus Rajabiy uy - muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor va dirijyor Tolibjon Sodiqov zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga 1920 yillarning boshida kirib keldi. Ustozlardan san'at sirlarini o'rgandi, o'qidi, dutor, tanbur, nay kabi cholg'ularda mohir ijrochi sifatida tanildi. O'zining ijodiy, tashkilotchilik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san'atimizning rivojlanishiga birinchilar qatorida tamal toshini qo'ydi. Uning yaratgan qo'shiq, romans, simfonik va vokal simfonik asarlari, ayniqsa, musiqali drama va operalari yakkaxon, konsert va teatr jamoalari repertuarini boyitdi.

Sodiqov Tolibjon Samarqand shahrida ziyolilar oilasida 1907 yilda tavallud topdi. U eski maktabda 7 yoshidan boshlab o'qidi, 1920 yildan yangi maktabda o'qishini davom ettirdi. Bu yerda tashkil topgan musiqa to'garagiga qatnashadi. Tug'ma iste'dod sohibi musiqa, adabiyot va tarixga mehr qo'ygan Tolibjon astoydil o'qidi, tinimsiz dutor va tanburda mashq qilib, tez orada hammani hayratda qoldira oladigan ijrochi sifatida tanildi. 1924 yili Samarqand O'zbekiston respublikasining poytaxti deb e'lon qilingan yili Tolibjonning taqdirida ham keskin burilish ro'y berdi. Poytaxtda madaniyat va san'at muassasalariga e'tibor qaratilishi bilan san'at guruhlar, teatr va konsert tashkilotlari, badiiy havaskorlik to'garaklari birin - ketin paydo bo'ladi va ular o'rtasida tanlovlar o'tkazish an'anaga aylana boshlandi. Tolibjon shahardagi san'at guruhlariga qo'shilib, konsertlarda qatnashar edi. 1927 yili Samarqandda mashhur, kelgusida O'zbekiston xalq artisti Ali Ardobus (Ibrohimov) yosh havaskor san'atkorlardan «Ko'k ko'ylaklilar» to'garagini tuzdi. Musiqa rahbari etib Tolibjon Sodiqovni taklif etdi. Mazkur to'garak kelgusida san'atimiz namoyandalari Doni Zokirov, Manas Leviyev, Isoxor Oqilov, Nabi Hasanov, M. Xalilov, Asror Jo'rayev, Vohid Abdullayev, Jalol Obidov, Mirbobo Ziyoyev, Mikoel Kalantarov va boshqalar qatnashdilar. 1925 yilda Samarqand musiqali teatriga Toshkent xalq konservatoriyasini

bitirgan Yunus Rajabiy musiqa rahbari etib tayinlandi. Shu yildan boshlab Tolibjon Sodiqov ustozdan nay chalishni o'rgandi va teatr sozandalar ansamblida qatnashib turdi. 1928 yildan boshlab naychi bo'lib teatrdagi ishladi. 1930 yili sahna yuzini ko'rgan «Bog'bon qiz» (S.Abdulla pyesasi) spektakli uchun u musiqa bastaladi. 1928 yili Samarqandda N.Mironov rahbarligida O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Birinchi talabalar qatorida T. Sodiqov ham bor edi. Bu dargohda u ustozlardan: Ota Jalol Nazirov, Domla Halim Ibodov, hofizlardan, Hoji Abdurahmon tanburchi, M.Xarratov changchi, A. Ismoilov naychi, A.Umurzoqov - qo'shnaychilardan Farg'ona -Toshkent, Buxoro va Xorazm musiqa uslublarini o'rgandi. N. N. Mironov nota yozuvi, solfedjio, musiqa nazariyasi va tarixidan saboq berdi. Institut rejasiga asosan T. Sodiqov kursdoshlari M. Ashrafiy va Sh. Ramazonovlar bilan N. N. Mironov boshchiligida birinchi marotaba xalq qo'shiq va kuylarini notaga yozib, 1931 yilda «Pesni Ferganы, Бухары, Хивы» nomli to'plam nashrdan chiqdi. Kursdoshlar «Sadrasht» nomli ilk simfonik asarni ham hamkorlikda yaratishdi.

1930 yili T.Sodiqov Hamza nomidagi o'zbek drama teatrining sozandalar ansambliga rahbarlikga taklif qilindi. U 1932 yilga qadar ishlab, cholg'u ansambli tarkibini kengaytirdi, ijro sifatini yaxshiladi, teatr repertuaridagi sahna asarlarining musiqasini qisman yangiladi, dramaturg K. Yashinning «Yondiramiz» dramasiga musiqa bastaladi. 1933 yili O'zbekiston davlat musiqiy teatr orkestriga (1939 yildan boshlab A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri) dirijyor lavozimiga taklif etiladi. Dirijyorlik ishi bilan birga 1933 yili «Layli va Majnun» (Sh. Xurshid pyesasi), 1935 yili «Hujum» (Cho'lpon va V. Yan pyesalari) va 1936 yili «Po'rtana» spektakllariga musiqa bastaladi.

1934 yili T. Sodiqov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasini tashkil etish vakolatini oldi. Mazkur uyushmaning ta'sis hay'ati 1938 yilda O'zbekiston San'at Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlandi. Ta'sis hay'atiga Tolibjon Sodiqov - rais, M. Ashrafiy - rais o'rinbosari, Karim Abdullayev - mas'ul kotib va a'zolar buyruq bilan tayinlandilar. Ularga qurultoyga

tayyorgarlik ko'rish vazifasi topshirildi. Ikkinchi jahon urushi sababli O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi birinchi qurultoyi 1948 yili bo'lib o'tdi.

1937 yili Moskvada o'tadigan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasiga 1936 yildan boshlab katta tayyorgarlik boshlandi. T.Sodiqov «Birinchi deputat» (M. Pyotr so'zi) va «Safarbar» (Mirtemir so'zi) qo'shiqlarini, ovoz va simfonik orkestr uchun «Yor» (Mirtemir so'zi) romansini, simfonik orkestr uchun «Shodiyona» poemasi va «Raqs», R. M. Glier bilan hamkorlikda «Gulsara» (K. Yashin pyesasi) musiqali dramasi kabi asarlarni yaratdi. Bular dekada dasturlarida ijro etildi va olqishlarga sazovor bo'ldi. 1940 yili R. M. Glier bilan hamkorlikda «Layli va Majnun» (Xurshid librettosi asosida) operasini yaratdi.

1935 yili Moskva konservatoriyasi qoshida M. Qoriyoqubov tashabbusi va rahbarligida O'zbek opera studiyasi tashkil topgan edi. Tolibjon Sodiqov kompozitorlik malakasini oshirish niyatida 1939 -1941 yillarda mazkur studiyada professorlar R. M. Glierdan, kompozisiyadan Melik Pashayevda dirijyorliqdan saboq oldi. 1941 yilda boshlangan Ikkinchi jahon urushi uning o'qishini to'xtatdi.

T. Sodiqov ijodiy faoliyati urush va tinchlik yillarida samarali bo'ldi. U birin - ketin musiqaning turli shakl va janrlarida ko'plab asarlar yaratdi. Ular orasida A. F. Kozlovskiy bilan hamkorlikda «Davron ota» (S. Abdulla pyesasi, 1941y.) M. Burhonov, M. Vaynberg, T. Jalilov, N. Hasanov, A. Karimovlar bilan hamkorlikda «O'zbekiston qilichi» dramalarini (1942 y.), «Gulxan» (Sh. Sa'dulla pyesasi, 1943 yil) bolalar uchun spektaklga musiqa bastaladi. 1942 yilda Mirtemir bilan hamkorlikda 5 ta qo'shiq va 4 ta romans yozdi. Ayniqsa, uning «Bulbul» (Kamtar she'ri), «Baxor» (Mirtemir she'ri), «Sarvigul» (Navoiy she'ri), «Jonon ko'rinur» (Nizomiy sheri) romanslari mashhur bo'lib ketdi. Bularni xonandalarning bir nechta avlodlari ijro etib kelmoqdalar.

Urush yillari yana yakka xonanda va simfonik orkestr uchun «Intizor» nomli vals, «Farhod qurilishi» simfonik poemasi va jangchilarga bag'ishlangan maxsus «Kino konsert» filmiga musiqa tanladi va yozdi. Urushdan keyingi yillarda u «Sevaman» (S.Abdulla pyesasi) musiqali komediya (1945 y.) «Armug'on»

(A.Bobojonov pyesasi) musiqali drama R.M.Glier bilan hamkorlikda «Gulsara» (K.Yashin librettosi) (1949 y.), «Layli va Majnun» (Sh.Xurshid librettosi) operasini 1949 yil tahrir qildilar., «Zaynab va Omon» operasining (1957 y.) birinchi pardasini yozishga ulgurdi. 1958 yili Zulfiya librettosi asosida yozilgan ushbu operani Yu. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar oxiriga yetkazishdi va o'sha yili premyerasi bo'ldi. Mazkur opera 1959 yili Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati 10 kunligida boshqa operalar qatori namoyish etildi. 1951 yilda Moskvada o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati dekadasiga bag'ishlab yakka ovoz va simfonik orkestr uchun «Moskva» (A. Po'lat so'zi) nomli qo'shiq, mumtoz «Ushshoq» maqom ashulasini qayta ishlab, simfonik orkestrga moslashtirdi, «Vatan» haqida turkum qo'shiqlar kompozitor B. Brovsin bilan hamkorlikda ikkinchi «Kinokonsert» yaratdi. Muqimiy she'rlariga to'qilgan o'zbek xalq ashula va yallalarni ovoz va simfonik orkestr uchun moslashtirdi. Turli mavzularda, klassik va zamondosh o'zbek shoirlarning she'rlariga bir qator qo'shiq, ashula va romanslar yaratdi. Ularning aksariyati 1949 - 1956 yillarda to'plamlarga kiritilib chop etilgan. T. Sodiqov 1957 yili «Hur Vatan» va «Baxtiyor yoshlik» (A. Bobojon so'zlari), «Jonim, ishon» (Mirmuhsin so'zi) nomli qo'shiqlar yaratdi.

Kompozitor Tolibjon Sodiqov O'zbekistonning zamonaviy musiqa madaniyatini rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun, 1939 yili «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni, O'zbekiston hukumatining faxriy yorliqlari, orden va medallar bilan taqdirlangan.

Ajoyib inson, xalqimizning sevimli kompozitori, dirijyor va jamoat arbobi Tolibjon Sodiqov 1957 yili olamdan ko'z yumdi. Toshkent shahar bolalar musiqa maktabi va poytaxti ko'chalaridan biriga uning nomi berildi. 2003 yilda T. Sodiqov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Sharif Abdullayevich Ramazonov XX asr ko'p ovozli o'zbek musiqa san'atining tamal toshini qo'ygan kompozitorlar: K. Abdullayev, V. Uspenskiy, N. Mironov, M. Ashrafiy, M. Burhonov T. Sodiqov, M. Leviyev, S. Yudakovlarning safdoshidir. U ijodkorlik, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Ramazonov Sharif

Abdullayevich Xorazm viloyati Xiva tumani Gandimyon qishlog'ida 1910 yili 16 iyunda dehqon oilasida tavallud topdi. Ota - onasidan juda erta yetim qolgan Sharif xolasinikida va begonalarning xonadonlarida kun kechirdi. 1920 yilda Xorazm xalq respublikasi rahbariyati davlat bolalar uyini tashkil etib, ularni o'qitdi, tarbiya hamda musiqadan birinchi saboq berdi. 1923 yil Xivada bolalar musiqa maktabi ochilishi bilan Sharif birinchilardan bo'lib skripka sinfiga kirdi, so'ngra o'qishini Toshkent musiqa texnikumida davom ettirdi. 1928 yili Samarqandda O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topishi munosabati bilan mazkur institutga ko'chirma qilindi. Bu o'quv dargohida u T. Sodiqov, M. Ashrafiy, M. Burhonov, Sh. Sohibov, M. Leviyev, O. Halimov, M. Nasimov, N. Hasanov, F. Shamsuddinov, D. Zokirov, F. Shahobov, P. Rahimovlar bilan o'zbek musiqa merosining bilimdonlari: Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Domla Halim Ibodov, M. Xarratov, Ahmadjon Umurzoqov, Abduqodir Ismoilov kabi ustozlardan hamda Ovro'po musiqa nazariyasi va tarixidan saboq oldi. Shu institutda u musiqa bastalashga ham ilk qadam ko'yib, bir necha kuy va qo'shiqlar yaratdi. Jumladan, N. Mironov rahbarligida M. Ashrafiy, T. Sodiqov va Sh. Ramazonovlar birgalikda «Sadrash» nomli simfonik orkestr uchun marsh yozdilar. O'zbek xalq qo'shiq va kuylarini notaga yozib olib, «Farg'ona, Buxoro va Xiva qo'shiqlari» nomli to'plamni 1931 yilda nashrdan chiqardilar.

Sh. Ramazonov o'qishni bitirgandan so'ng 1933 - 41 yillarda Toshkent davlat musiqa teatri dirijyori, Urganch musiqali drama teatri badiiy rahbari va bosh dirijyori, Xorazm viloyat san'at bosh boshqarmasining boshlig'i lavozimlarida ishladi. 1936 yilda Urganch musiqali drama teatrida uning «Xolisxon» (Hamzaning shu nomli dramasi asosida M. Majidiy tomonidan tayyorlangan), 1940 yil «Varka» (M. Majidiy pyesasi), 1940 yil «Shoxsanam» (S. Abdulla pyesasi) musiqali dramalari sahna yuzini ko'rdi. Shu yillarda u bir talay qo'shiqlar ham yaratdi. 1942 yili Sh. Ramazonov harbiy xizmatga chaqiriladi va front janglarida qatnashdi. So'ngra o'zi tashkil etgan damli cholg'ular orkestri bilan urush tugaguncha diviziya qaramog'ida xizmatda bo'ldi va 1946 yili armiya safidan zaxiraga o'tkazilib, vataniga qaytadi.

Sh. Ramazonov 1946 - 55 yillarda Namangan viloyati Navoiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri dirijyori, keyinchalik direktor, ayni paytda,

Namangan musiqa bilim yurti va musiqa maktabi direktori, 1948 yildan esa Namangan viloyati madaniyat va san'at bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1955 yili Toshkentga ko'chib kelgan Sh. Ramazonov O'zbek davlat estradasi konsert tashkilotiga badiiy rahbar etib tayinlandi. 1958 yilda O'zbekiston estrada - jaz orkestri tashkil etildi.

Sh. Ramazonovning o'zi ham estrada qo'shiqlari yaratadi va tez orada bu jamoa respublikamizda mashhur bo'ldi. Sh. Ramazonovning otalarcha g'amxo'rligi tufayli mazkur jamoaga sevimli estrada xonandalaridan Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Elmira O'razboyeva, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, Yunus To'rayevlar dadil ijodiy qadamlarini qo'ygan edilar.

Sh. Ramazonov mas'ul lavozimlarda mehnat qilishi bilan birga ijodga ham vaqt topib, Namangan teatrida sahna yuzini ko'rgan «Asl farzand» (A. Mirtemir pyesasi, 1947 y.), «G'unchalar» (Z. Fatxulin pyesasi, 1947 y.) musiqali dramalar, simfonik orkestr uchun «Quyoshli O'zbekiston» (1948 y.), «Xorazmcha» (1951 y.) syuitalari, «Mard paxtakorlar» (A. Po'lat so'zi, 1953 y.) kantatasi; simfonik orkestr uchun syuita №3 (1955 y.), O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Mirzacho'l» uvertyurasi (1956 y.), kompozitor A. Malaxov bilan hamkorlikda «Plyus bir» kinofilmiga musiqa (O. Yoqubov ssenariysi, 1967 y.) kabi yirik asarlar yaratdi. Shuni alohida aytish lozimki, Sh. Ramazonovning ijodida qo'shiq janri muhim o'rin egallaydi. Uning ovoz uchun, xor va bolalar uchun, ayniqsa, estrada qo'shiqlari uchun yozgan kuylari alohida qimmatga ega.

Jumladan «Ozod diyorim», «Tinchlik uchun», «Go'zal Farg'ona» (A. Bobojonov so'zlari), «Raqqos», «Oltin ter», «Toshkent gulshani» (O. Kamtar so'zlari), «Yayrayman» (M. Rahmonov so'zi), «Bir o'zimga havola» (T. To'la so'zi), xor uchun: «O'zbekiston» (A. Isroilov so'zi), «Andijonim» (X. Xo'jayev so'zi), «Terimchi qizlar taronasi» (A. Po'lat so'zi), «Qutlayman» (E. Vohidov so'zi), xor va raqsga mo'ljallab «Raqsga tushing, dugonalar» (B. Isroilov so'zi), xor, solist va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Muborak ellik bahor» (O. Kamtar so'zi), «Namanganning olmasi» (Xalq kuyi) va «Ey mehribonim» (Ogahiy so'zi) kabi qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shiqlari Luiza Zokirova ijrosida, «Intizorman», «Dilrabo», «Shahlo ko'zim» (O.

Kamtar so'zlari); «Gulchi qiz» (M. Qoriyev so'zi), «G'azalxon», «Bog' yerda barno qiz», «Yigitlar» (T. To'la so'zi), «Sevdim dildan» (A. Isroilov so'zi), «Sir o'zingga havola» (A. Po'lat so'zi), «Ra'no qiz» (B. Nasriddinov so'zi), «Do'stlik vatani» (D. Polinin so'zi) kabi qo'shiqlar Ra'no Sharipova, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, Yunus To'rayev, T. Sharipov, E. O'razboyeva, E. Qandov va M. Shamayevalarning ijrolarida mashhur bo'lib ketdi. O'zbekiston radiosining G'. Toshmatov nomidagi Dutorchilar ansambli uchun: «Yayrayman» (M. Rahmonov so'zi), «To'quvchi qiz qo'shig'i», «Yor yaxshi» va «Mirzacho'l yo'lida» (A. Po'lat so'zlari) kabi qo'shiqlarni yaratgan.

Shuningdek, «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun qator quvnoq, jozibali, «Paxtaoy» bolalar estrada ansambli uchun «A'lochi» (X. Muhammadali so'zi), «Bugun bayram» (B. Isroilov so'zi), «Ko'zichog'im», «Bo'shashmayman», «Jibilajibon» (P. Mo'min so'zlari) va boshqa qo'shiqlari ular ijrosida keng ommaga tanildi. Sh. Ramazonov «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» (1952 y.), «O'zbekiston xalq artisti» (1970 y.) faxriy unvonlari, jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan.

O'zbekiston xalq artisti, Nosir va Neru xalqaro mukofotlari, respublika Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor, dirijyor, muallim, yirik jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr O'zbekiston musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Uning opera, musiqali drama, balet, simfonik, vokal simfonik kamer cholg'u, qo'shiq va romans janrlarida yaratgan asarlari, zamonaviy o'zbek musiqasi tarixida chuqur iz qoldirdi.

O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Leviyev Manas XX asr o'zbek musiqasi tarixi saxifalarida yorqin, unutilmas iz qoldirdi. U zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atining rivojlanish jarayoniga tamal toshini qo'ygan kompozitorlardan biridir. U yaratgan jozibali qo'shiq - romanslar, simfonik, vokal - simfonik asarlar, balet, ayniqsa, musiqali drama, musiqali komediya va kinomusiqasi bilan el - yurt hurmatiga sazovor bo'ldi.

Leviyev Menashe (Manas — taxallusi) Betyanovich esdaliklaridan: «...Men Namangan shahrida 1912 yilning 25 iyulida tug'ildim. Ota-onam Samarqand shahrida istikomat qilishgan, 1910 yili iktisodiy ahvolimiz yomonligi sababli Namangan

shahriga ko'chdik. 1917 yili Qo'qonga jo'nadik. Bu shaharda notinchlik tufayli yana Samarqandga ko'chib ketdik. Men eng avval akalarimdan doira va dutor chertishni, keyinchalik Yaguda va Izro akalarim nay chalishni o'rgatdilar. Samarqandda 1920 yili o'rta ta'lim «Turon» nomli o'zbek maktabiga qabul qilishdi. Bir yildan so'ng 26 - maktabga ham qatnab turishga ruxsat berishdi. Mening hayotimda 1928 yil unutilmas yil bo'ldi. 8 - sinfni bitirishim bilanok, O'zbekiston xalq artisti, san'atkor Ali Ardobus Ibragimov o'zi tuzgan 120 kishidan iborat «Ko'k ko'ylakpiklar ansambli» ga ishga taklif qildi. Mazkur ansamblning musiqa rahbari T. Sodiqov edi. Ansamblida mendan tashqari D. Zokirov, N. Hasanov, I. Oqilov, A. Jo'rayev, V. Abdullayev va boshqalar faol qatnashar edi. Usha yili N. N. Mironov rahbarligida Samarqandda Musiqa va xoreografiya instituti ochildi. Men, M. Ashrafiy, M. Burhonov, T. Sodiqov, Sh. Ramazonov, O. Halimov, R. Olloberganov, M. Kalantarov, Sh. Sohibovlar birinchilardan bo'lib o'qishga kirdik. 1929 yili O'zbekiston yoshlar markaziy ko'mitasi meni Turkmaniston Respublikasi Kerki shahridagi o'zbek teatriga yordam berish uchun musiqa rahbari qilib tayinladi. Teatrda cholg'u ansamblini tuzdim. 1930 yildan yana do'stlarim bilan institutda o'qishni davom ettirdim. Samarqandda joylashgan o'zbek harbiy diviziyasi ko'mondoni Harbiy ofiserlar uyida ashula va raqs ansambli tuzishni iltimos qildi. «Diviziya qadam tashlamokda» (M. Rahmatullayev so'zi) ommaviy marsh qo'shiq va ikkita raqs kuylarini yaratib, konsertlar bera boshladik. 1933 yili Leningrad musiqa texnikumiga nazariy kompozitorlik bo'limiga o'qishga kirdim. 1938 yili musiqa texnikumini bitirib, Leningrad davlat konservatoriyasiga imshhonlarni topshirib, o'qishga kirdim. 1941 yili 1 kurs imtihonlarini topshirib uyga qaytish arafasida urush boshlanib ketdi. Kursdosh va pedagoglarim bilan ko'ngilli askarlar diviziyasi safiga qo'shildim va Petergof shahrini himoya qilish jangida qatnashib, oyog'imdan yarador bo'lib, Leningrad va Volxov shaharlaridagi harbiy shifoxonalarda davolanib, 1942 yilning iyun oyida Toshkentga qaytib keldim. Ma'lumki, urush boshlangan yili Leningrad konservatoriyasi Toshkentga ko'chib kelib o'qish jarayonini davom ettirgan edi. 1942 - 43 o'quv yilidan boshlab o'qishimni davom etdim. Urushdan avval Leningradda o'qib yurgan kezlirimda har xil yakka cholg'u va ansamblarga musiqa bastaladim. Konservatoriyaning talabalari orasida eng yaxshi simfonik asar uchun o'tkazilgan ko'rik

tanlovda «Nurxon» nomli simfonik poemam birinchi darajali mukofotga sazovor bo'lib, Leningrad davlat filarmoniyasining katta simfonik orkestri tomonidan B. Ratniyar dirijyorligida ijro etildi. Bu men uchun baxt edi. Kompozitor M. Leviyevning ijodiy faoliyati asosan talabalik davridan boshlandi, O'qib yurgan yillari quyidagi asarlarni yozdi: fortepiano uchun 5 ta pyesa, sonatina, raqs, fantaziya, 3 ta etyud, 3 ta prelyudiya, 2 ta variasiya, 20 ta o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini garmoniyalashtirdi. Talabalar konsertida «Ok oydin kechalar», «Rangim etdi za'faron» o'zbekcha, «Guli surxu safet» tojikcha xalq qo'shiqlarini va Zulfiya so'ziga yozgan «Ozod qizman» nomli qo'shiqni o'zi ijro etib olkislarga sazovor bo'lgan. U skripkaga etyud, pyesa, variasiya, torli kvartetga syuita, violonchel uchun 4 ta etyud, 3 ta pyesa, truba va klarnet uchun pyesalar yaratdi. Navoiy she'riga bastalagan «Dilistonim, sen mening» romansi simfonik orkestr jo'rligida, ilk bor David Mullakandov ijrosida shuhrat keltirdi.

Urush yillari M. Leviyev «O'zbek o'g'li» va «Sherzodlar» (V. Abdullayev so'zlari), «Biz Vatan farzandlarimiz» va «Jang maydonimiz» (M. Shayxzoda so'zlari), «Vatan chaqirig'i» (T. To'la so'zi), yakkaxon, xor va orkestr jo'rligida «Bog' ko'cha» va «Farg'ona» (Mirtemir so'zlari), «Go'zal oy» (T. To'la so'zlari) vatanparvarlik va lirik qo'shiqlari; kompozitor M. Burhonov bilan hamkorlikda S. Abdulla, K. Otaboyev va Mirtemir so'zlariga 5 qismli «O'zbekiston 20 yoshda» vokal - simfonik syuitasi, A.Lohutiy bilan hamkorlikda «Surudi baxt» («Baxt qo'shig'i»), «Bo duxtari Tojikiston» («Tojikiston qizlariga»), «Duxtari pur g'ayrat» qo'shiqlari, «Chu yod oram» («Seni eslaganimda»), «Dard azobdaman», «Sengina men uchun» lirik romanslari, Said Ahmadning «Sherzod va Gulshod», M. Shayxzodaning «Jaloliddin» dramalariga musiqa bastaladi.

U yaratgan «O'zbek qizi ovozi», «Tinchlik uchun» (T. To'la so'zlari) xalq artisti, sevimli xonanda Halima Nosirova ijrosida juda mashhur bo'lib ketdi. Umuman, 100 ga yaqin turli mavzularda, o'zbek, tojik klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga jozibali qo'shiq va romanslar yaratdi. Ular «Qo'shiq va romanslar» (1958 y.), «Paxta bayrami» (1977 y.), «Hayot qo'shiqlari» (1978 y.) to'plamlarida chop etilgan. Zamonaviy qo'shiq san'atini rivojlantirishda original qo'shiq va romanslari bilan xalq

mehriga tushgan kompozitor M. Leviyev «O'zbekiston kuychisi» degan nomga sazovor bo'ldi.

1948 yilda sahna yuzini ko'rgan (qayta qo'yilishi 1967 y.) Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni asosida yozilgan «Suxayl va Mehri» (libretto K. Otaboyev, V. Gubskayalar) baleti va 1949 yil Muqimiy nomidagi musiqali teatrda sahnada qo'yilgan «Oltin ko'l» (Uyg'un pyesasi) musiqali drama va komediya (qayta tahriri 1952 y.) M. Leviyevga katta shuhrat keltirish bilan birga o'sha muhitda zamonaviy o'zbek professional musiqa san'ati tarixida birinchi mustaqil ravishda va milliy uslubda yaratilgan sahna asarlar ham edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, kelgusida kompozitor teatr uchun musiqa bastalashga mehr qo'ydi. Muqimiy nomidagi musiqali teatrda, xalq orasida mashhur musiqali drama va musiqali komediyalarning musiqa muallifidir: «Toshbolta oshiq» (H. G'ulom pyesasi, 1961 y.), «Ajab savdolar» (H. G'ulom pyesasi, 1969 y.), «Zamonali - Omonali» (G'. G'ulomning «Shum bola» asari asosida H. G'ulom pyesasi, 1973 y.), «Xizimatingizga tayyormiz» (F. Musajonov va B. Ixtiyorov pyesalari, 1981 y.) musiqali komediyalar, «Kimga to'y, kimga aza» (N. Safarov pyesasi, 1962 y.), «Nozik niholim» (Ch. Aytmatovning shu nomli kissasi asosida H. G'ulom pyesasi, 1978 y.), «Mangulik» (H. G'ulom pyesasi) musiqali dramalar bilan quyidagi drama asarlarga ham musiqalar yaratdi: «Semurg'» (Zulfiya va S. Somovalar pyesasi), «Yolg'onchi darkor» (D. Peafisa pyesasi), «Baxt qo'shig'i» (Uyg'un pyesasi), «Shohi so'zana» (A. Kahhor pyesasi), «Muhabbat afsonasi» (N. Hikmat pyesasi), «Turkiya haqida hikoya» (N. Hikmat), «Jazoir mening vatanim» (Diba pyesasi), «Hamza» (K. Yashin va A. Umariylar pyesasi), «Mirzo Ulug'bek» (M. Shayxzoda pyesasi).

Kompozitor M. Leviyev 1957 yilda I. Akbarov va M. Burhonovlar bilan hamkorlikda quyidagi o'zbek kinolariga ham musiqa yaratgan: «Orol balikchilari» va 1959 yili «Maftuningman» (rej. Y. A'zamov), o'zi mustaqil ravishda esa quyidagi kinolarga musiqa bastaladi: «Mahallada duvdud gap» (rej. Sh. Abbosov, 1960 y.), «Bloknotdan varaka», 1966 yili «Sayyot ko'ng'irog'i» (rej. Y. A'zamov), 1969 yili «O'tgan kunlar» (rej. I. A'zamov). 1971 yili rejissyor L. Fayziyev kompozitor M. Leviyevning «Suxayl va Mehri» baleti asosida «Jonli miniatyuralar» nomli kinofilm yaratdi.

M. Leviyev yakkaxonlar, rakosalar, turli cholg'u va vokal ansambllar, xor va orkestr, «Bahor» raqs va filarmoniya «Ashula va raqs» ansambllar repertuarlarini boyitish maqsadida juda ko'p asarlar yaratdi. Ulardan ayrimlarining nomlarini eslatib o'tsak kifoya: «Fizkulturachilar paradiga» maxsus yozilgan musiqa (1947 y.), «Yorqin yo'l» (T. To'la so'zi, 1947 y.), «Ok oltin» (M. Shayxzoda so'zi 1958 y.) kantatalar, o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri uchun 5 qismli «Yoshlik» syuitasi, «Qahramonlik» uvertyurasini, «Shodiyona» poemasi xor va yakka ijrochi bilan, «Paxta bayrami» syuitasi, «Gulla, yashna O'zbekiston» syuitasi va boshqalar.

M. Leviyev ijodiy ishlari bilan respublikamiz musiqa san'atining rivojlanishiga ulkan hissa ko'shdi va katta musiqiy meros qoldirdi. U 1961 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 1972 yili «O'zbekiston xalq artisti», 1979 yili Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bir necha medallar, O'zbekiston va Belarusiya hukumatining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

O'zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijyor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni Zokirov ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan XX asr o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi. D. Zokirov Samarqand shahrida 1914 yilning 28 dekabrda tug'ildi. 1926 yili o'rta ta'lim maktabiga o'qishga bordim va maktabdagi musiqa to'garagiga qatnashdim. 1928 yili Samarqandda kompozitor, dirijyor N. N. Mironov rahbarligida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Mazkur institutda 1929 yili kirganimda u yerda o'qiyotgan Mutal Burhonov, Tolibjon Sodiqov, Manas Leviyev va Olimjon Halimovlar bilan do'st bo'lib, birga ustozlardan saboq olib, turli tadbirlarda faol qatnashar edik. O'sha yili mohir san'atkor Ali Ardobus tashkil qilgan «Ko'k ko'ylak» nomli teatrlashtirilgan to'garaka bizlarni taklif qilishdi, Tolibjon Sodiqov esa musiqa rahbari bo'ldi. Bu davrda, ya'ni 1929 - 32 yillar institutda o'qidim,

1929 - 35 yillari respublika musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishladim. Mazkur teatrni tashkil qilgan ulug' san'atkor Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov va boshqa mashhur san'atkorlar bilan tanishdim, birga ishladim. Institutda Ota Jalol, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Abduqodir

Ismoilov, Ahmadjon Umurzoqov, Matyusuf va Matyoqub Xarratovlar va boshqa san'at jamoalarida ishlagan ustozlardan saboq olganim men uchun katta maktab bo'ldi.

1936 yilda Toshkentda O'zbekiston davlat filarmoniyasi ochilib, uning qoshida T. Jalilov rahbarligida ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Meni shu ansamblga konsertmeyster lavozimiga taklif qilishdi. Mazkur ansambl bilan el qatori 1937 yil Moskvada o'tgan O'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida qatnashishga muyassar bo'ldim. O'sha yili Moskvadan qaytilgandan keyin Tamaraxonim filarmoniyada alohida ansambl tuzdi va meni shu ansamblga musiqa rahbari etib tayinlashdi.

1940 - 48 yillari Muqimiy nomidagi musiqali teatrda ikkinchi dirijyor lavozimida ishladim. 1948 - 53 yillari O'zbekiston davlat radio eshittirish komiteti qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida dirijyor bo'lib ishladim. 30 - yillardan buyon ijrochilikdan tashqari, turli mavzularda klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga qo'shiq, ashula va spektakllarga musiqalar yaratib kelsam ham ko'p ovozli musiqa vosita uslublarini, shakl va janrlarini, koidalarini va G'arbiy Ovrupo va rus klassik kompozitorlarining ijodiy faoliyatlarini va musiqa fanlaridan bilim olish niyatida 1940 - 42 yillar Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida o'qidim. Lekin urush kasofati bilan o'qishni tashlashga majbur bo'ldim.

1947 yili tayyorlov kursida o'qishni Hamid Rahimov va Dadaali Soatqulovlar bilan birga kompozitor B. B. Nadejdindan kompozitorlik, mutaxassislik, Yu. N. Tyulindan garmoniya, polifoniya, A. F. Kozlovskiydan cholg'ulashtirish va dirijyorlik, I. A. Dulgarova va Yan B. Pekerdan musiqa tarixidan saboq oldik. 1948 yili konservatoriyaning asosiy kompozitorlik kulliyotida mazkur domlalarda o'qishni davom etib, 1953 yili o'qishni muvafaqiyatlili bitirdik. 1953 yili filarmoniya qoshidagi O'zbek ashula va raqs ansambliga badiiy rahbar lavozimiga tayinlandim. 1957 yili O'zbekiston radio eshittirish ko'mitasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga bosh dirijyor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlandim», deb so'zini tamomladi Doni Zokirov. Mazkur lavozimda 1983 yilga qadar faol ishladi va nafakaga chiqdi.

D.Zokirov 30 - yillarda teatr va ansambllarda sozanda bo'lib ishlab yurgan paytlarida raqs kuylari, qo'shiq va ashulalar bastalay boshlagan. Uning birinchi yirik

ijodi 1934 yili Z. Fatxulinning «G'unchalar» pyesasi uchun bastalagan musiqadir. Bu spektaklga musiqa tayyorlashda u xalq musiqasidan foydalanib, ko'p qismlarni mustaqil ravishda yaratgan. U ilk ijodiy yutug'idan keyin mumtoz va zamonaviy shoirlar she'rlariga qo'shiq va ashulalar yaratadi. Shu jumladan urush yillari «Ona orzusi» (Mirtemir), «Zafar topib» (S. Abdulla), «Ol kasos» (M. Rahmonov), «Jangda bardam bo'l» (S. Abdulla) kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar; Navoiyning she'rlariga «Orazi» va «O'rtanur» fortepiano jo'rligida qo'shiqlar, simfonik orkestr uchun 1 - syuita: O'zbek xalq cholg'ulari ansambliga 3 qismli «Mehnat fronti» nomli syuita, Chustiyning tojik tilida yozgan uchta she'riga «Jon mediham», «In tui» va «Chehrai handed» lirik qo'shiqlar; bastakor N. Hasanov bilan hamkorlikda «Orzigul» va mustaqil ravishda «Yoriltosh» spektakllariga musiqa bastaladi.

D. Zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga katta e'tibor berdi. U B. F. Giyenko bilan «So'nmas chiroklar» (A. Bobojonov va M. Muhamedov pyesasi) musiqali dramani (1953 y.) yozdi. 1954 yili S. Boboyev bilan «Dalada bayram» (Sh. Sa'dulla pyesasi) musiqali komediya va 1956 yil «Vatan kirg'oklari» (Sh. Sa'dulla va Z. Fatxulin pyesasi) musiqali drama; 1960 yil B. F. Giyenko bilan «Yoshlikda bergan ko'ngil» (Z. Fatxulin pyesasi) musiqali drama; 1962 yil «Hayot mash'ali» (S. Ismoil pyesasi) musiqali drama; 1970 yil K. Jabborov bilan «Mening jannatim» (S. Abdulla pyesasi) musiqali drama; 1978 yili xalq ertagi asosida «Shahzoda va yetim qiz» (R. Hamroyev peyesasi) musiqali dramalari tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olindi. A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida 1956 yili B. F. Giyenko bilan «Oynisa» (Litvinova librettosi) baleti; H. Olimjonning «Zaynab va Omon» dostoni asosidagi shoira Zulfiya librettosiga T. Sodiqov «Zaynab va Omon» operasini boshlab qo'ygan edi. Kompozitor vafot etgani sababli opera tugallanmay qolgan edi. 1958 yil ushbu opera musiqasini Yu. Rajabiy, D. Zokirov, B. Zeydman bilan hamkorlikda tugatib, tomoshabinlarga havola etishdi.

D. Zokirov kompozitor M. Ziv bilan hamkorlikda quyidagi badiiy kinofilmlarga musiqa bastaladi: 1955 yil «Amirlikning yemirilishi» (rejissyor L. Fayziyev va V. Basov); 1956 yil «Kutlug' kon» (rejissyor A. Pann); 1964 yil «Ulug'bek yulduzi» (rej. A. Pann); kompozitor A. Malaxov bilan hamkorlikda 1964 yili «Kaydasan, Zulfiya»

yoki «Yor-yor» (rej. A. Hamroyev) D. Zokirovning shu filmga yozgan «Ko'chalar» (T.To'la so'zi) qo'shig'i mashhur bo'lib ketgan. D. Zokirov simfonik orkestr uchun bir necha asarlar yaratdi. Ularning orasida uch qismli simfonik syuita hamda «Hamza» nomli simfonik poemasi yaxshi bahra olgan.

D. Zokirovning ijodiy merosida qo'shiq, romans, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va yakka cholg'ular uchun mo'ljallangan musiqiy asarlar yetakchi o'rinni egallaydi. Uning Navoiy she'rlariga bastalangan «Ko'rmadim», «Ey, sabo», «Bo'lmasa», «Ayb etmangiz», Turob To'la she'riga «Bulbul» nomli romanslari simfonik orkestr jo'rligida D. Mullakandov, H. Nosirova, S. Qobulovlar ijrosida mashhur bo'lib ketgan edi. Kompozitor turli mavzularda, yakkaxon, xor, turli cholg'ular va orkestr jo'rligida ijro etiladigan yuzdan ortiq qo'shiq, ashula, ommaviy xor qo'shiqlar yaratdi. Ular orasida «O'zbekistonim» (A. Niyozmurodov so'zi), «Tinchlik qo'shig'i», «Paxtakor diyor», «Kosmos biznikki», (M. Qoriyev so'zlari); «Shifokorlarga», «Terimchilarga», «Do'stlarga», «Ona diyor» (A. Po'lat so'zlari); «Toshkent okshomi» (Nazarmat so'zi); «Suv keldi, hayot keldi» (O'. Rashid so'zi); «Dugonalarga» (Nilufar so'zi); «Do'stlik qo'shig'i», «Cho'pon qo'shig'i», «Tinchlik qo'shig'i» xor uchun (P. Mo'min so'zlari), «Ikki dil dostoni» (Z. Obidjon so'zi), «Yor istab» (Z. Furqat she'ri); «Hayot gulshani» (N. Narzullayev so'zi) kabi qo'shiqlar yorqin misol bo'la oladi. Ayniqsa, kompozitorning yakkaxon, xor va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yozgan ko'p qismli asarlardan: «Karshi cho'li gullari» (M. Qoriyev so'zi) 5 qismli vokal - syuitasi; «Asrlar sadosi» (Oybek so'zi) 4 qismli kantatasi; «Obi hayot» (O'. Rashid so'zi) 4 qismli vokal - syuitalar olkishga sazovordirlar.

Shuni alohida aytish lozimki, o'zbek klassik musiqa namunalarining ayrimlarini D. Zokirov mahorat bilan qayta ishlab, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, yakka cholg'ular va orkestrga moslashtira olgani kompozitorning katta ijodiy yutuqlaridandir. Bular: orkestr uchun «Yovvoyi Chorgoh», g'ijjak va orkestr uchun «Qaytarma», «Fig'on», «Cho'li Irok», bolabon va orkestr uchun «Sharob», nay va «Farg'onacha», «Gadoiy», orkestr uchun «Jazoir»; orkestr uchun «Navo», «Savti navo», «Ufari navo», «Garduni segoh», «Tasnifi dugoh», «Muhammasi irok», «Nasrulloiy», «Mirzadavlat», «Yolg'iz»; tanbur va orkestr uchun «Rajabiy». Mazkur asarlar respublikamizdagi

professional orkestrlar repertuaridan keng o'rin olishi bilan musiqa o'quv yurtlarining xalq cholg'ulari orkestri dasturiga ham kiritilgan. D. Zokirov bolalar uchun P. Mo'min she'rlariga «Sayohat - rohat», «Kungabokar», «Oppok kantim», «Sirdaryo, Sirdaryo», «Kapalak va handalak», «Bog'da pishdi uzumlar», «Do'lona», U. Rahmonov so'ziga «Bolalar vals», «Bahor vals», R. Bobojon so'ziga «Olma», Yu. Hamdam so'ziga «Badan tarbiya», Yo. Mirzo so'ziga «Maktabim», Yu. Hamidiy so'ziga «Baxtiyor qo'shig'i», M. Haydar so'ziga «Yangi yil qo'shig'i» va «Beqiyos diyor» kabi qo'shiqlarni bag'ishlagan.

1950 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», 1956 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 1965 yili «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi. Orden, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist, professor, kompozitor va dirijyor Mardon Nasimov o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Ijodkorlik faoliyatida asosan ovoz uchun musiqa yaratishga katta e'tibor berib, yakkaxon, jo'rovoz ansambl va xor jamoalariga qo'shiq, ashula, kantata, syuitalar bastalab, hurmat - ehtiromga sazovor bo'ldi.

Mardon Nasimov Samarqand shahrida 1914 yilning 1 aprelida to'quvchi kosib oilasida tug'ildi. Mardon bolalikdan musiqaga qiziqadi, ayniqsa, nay sadolarida maftun bo'lardi. 8 yoshida umumta'lim maktabiga o'qishga chiqadi va 1929 yili 5 - sinfni bitirib, Samarqand davlat musiqa xoreografiya institutiga o'qishga kiradi. Mardon mashhur naychi, ustoz

A. Ismoilovdan nay, A. Umurzoqovdan ko'shnay chalishni, Ota Jalol va Domla Halim Ibodovdan Buxoro shashmaqomi, M. Xarratovdan Xorazm maqomlaridan saboq oladi. U intitutda o'qib yurgan paytida mashhur san'atkor Ali Ardobus tomonidan tashkil etilgan «Ko'k ko'ylak»lilar to'garagida naychi bo'lib ishladi.

1934 yili M. Qoriyoqubov tashabbusi bilan Moskva davlat konservatoriyasi qoshida ochilgan O'zbek opera studiyasida xor dirijyorligi ixtisosligini o'zlashtirish uchun o'qishga kiradi. 1939 yili bir guruh san'atkorlar bilan birgalikda Katta Farg'ona kanali qurilishida ishchilarga berilgan konsertlarda xizmat qildi. Moskvadagi o'qishini 1941 yilda bitirib, Toshkentga qaytadi va Navoiy nomidagi opera va balet teatrida

xormeyster vazifasida ishlaydi. 1943 yili Shimoliy - garbiy frontda o'rta osiyolik askarlar orasida madaniy - ma'rifiy ishlarini olib borish uchun instruktor etib tayinlanadi. «Farhod GES» qurilishi boshqarmasi qaramog'idagi musiqali teatrdan M. Nasimov 1944 - 46 yillarda badiiy rahbar va bosh dirijyor lavozimida ishlaydi.

M. Nasimov dirijyorlik malakasini yanada oshirish maqsadida 1946 yili imtihonlarni topshirib, Leningrad davlat konservatoriyasi opera - simfonik fakultetiga o'qishga kiradi va professor Musindan ta'lim oladi. Dirijyor -simfonist diplomi bilan 1951 yili Toshkentga qaytgach, u O'zbek davlat filarmoniyasiga badiiy rahbar va simfonik orkestri dirijyori lavozimlariga tayinlanadi. Mazkur dargohda 11 yil ishlab, 1963 yili Toshkent davlat konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'ulari fakultetida dirijyorlik mutaxassisligidan dars berish uchun taklif qilinadi. Konservatoriyada u o'qituvchilikdan professorlikacha yo'lni bosib o'tdi.

M. Nasimovning 100 dan ortiq turli mavzularda yozilgan qo'shiqlari orasida «Tinchlik bog'i» (T. To'la so'zi), «Kor bosgan tog'lar» (G'. G'ulom so'zi), «Barno qiz qo'shig'i», «Askar yigit qo'shig'i» (Sayyor so'zi), «Hislarimni sochmoqdaman», «Soyabon bo'layin» (Mirtemir, Sayyor so'zlari), «Yur, o'rtoq», «Bayram vals» (K. Otaboyev so'zi), «Bugun bayram» (R. Tolib so'zi) kabi qo'shiqlar xonandalar ijrosida mashhur bo'lgan. Ayniqsa, uning radio qoshidagi xor va O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi akademik xor jamoalari uchun jo'rli va jo'rsiz xor asarlari: «Jon O'zbekiston», «Navro'zim» (H. Sharipov so'zlari), «Bayram vals» (K. Otaboyev so'zi), «Do'stlik qo'shig'i» (X. Syaitov so'zi), simfonik orkestr jo'rligida «Marhabo» (M. Qoriyev so'zi), «Paxtakorlar» (P. Mo'min so'zi), o'zbek xalq cholg'ulari orkestri jo'rligida «Toshkent, go'zal diyorimsan» (R. Tolib so'zi), «Samarqand obro' murodim» (Kambar ota so'zi), «Hushyor yor» (Ya. Kurbon so'zi), «Gul ochilar» (R. Tolib so'zi), «Mening tovushim» (Oybek so'zi). Moskvada Oybekning yubiley kechasida birinchi bor ijro etilgan «Mening yorim vafoli» (H. Sharipov so'zi), «Bir dildor bor ekan» (K. Muhammadiy so'zi), «Amir Temur», «Turon yurt posbonimiz», «Qolar», «Har oshiqa besh kun davron», «Talabalaru talabalar» (Kambar ota so'zlari).

M. Nasimovning ajoyib, dilrabo, jo'shqin, ko'p qismli asarlari «Dehqonga ta'zim», «Dilbarim», «O'zbekiston diyorim» (H. Sharipov so'zlari), «O'zbekcha to'y

syuitasi» (xalq so'zi), yakkaxon, xor va orkestr uchun bastalagan syuita va «Tinchlika tinchlik» (H. G'ulom so'zi) kantatasi juda mashhurdir. Kompozitor bolalar uchun «Ahmad bog'bon», «Bulbulcham», «Do'stlik chamanzori», «Yosh fizkulturachilar marshi», «Yosh sayohatchilar qo'shig'i» kabi qo'shiqlar yaratgan. Shuningdek, dutor va fortepiano uchun «Ufori sanam»; chang va fortepiano uchun ikkita pyesa; nay va fortepiano uchun «Elegiya», chang va fortepiano uchun «Bayram valsi», nay va o'zbek xalq cholg'u orkestri uchun «Elegiya», «Lirik raqs», xor uchun qayta ishlagan qoraqalpoq xalq qo'shiq va lapar, ikkita rubob va fortepiano uchun «Ballada», xor va simfonik orkestr uchun poema va ballada (M. Shayxzoda so'zi), xor va simfonik orkestr uchun «Sharq» qasidasi (Oybek so'zi) va boshqalar ham M. Nasimov qalamiga mansubdir.

Faxriddin Sodiqov Toshkent shaxrida 1914 yilning 13 mayida ishchi oilasida tavallud topdi. Olti yoshidan eski maktabda, so'ngra yangi maktabda ta'lim oldi. U bolaligidan musiqaga qiziqdi. Avval dutor chertishni mahalladagi katta yoshdagi bolalardan o'rgandi. Keyinchalik Chorsu guzarida joylashgan mashhur hofiz Shorahim Shoumarov tashkil etgan «Sanoi nafisa» jamoasi qoshidagi ansambl chiqkishlarini kuzatib bordi va tez orada ularga shogird bo'lib ham qoldi. Nug'monkori Mo'minzoda ustozidan chang chalish, Abdusoat Vahobov ustozdan dutor chertish mahoratiga ega bo'ldi. 1918 yili Turkiston xalq konservatoriyasi tashkil etilib, V. A. Uspenskiy rahbarligida eski shahar bo'limi ochilishi munosabati bilan F. Sodiqov 1920 yildan boshlab ustozlardan saboq olishni davom ettiradi. 1924 yilda xalq konservatoriyasi negizida Toshkent davlat musiqa texnikumi ochilishi bilan 1926 yildan u yerda o'qib, 1933 yili muvafaqiyatlili bitirdi.

Bastakor, changchi sozanda F. Sodiqov mehnat faoliyatini 1930 yili O'rta Osiyo temir yo'l qoshidagi klubida xalq cholg'ulari havaskorlar to'garagini tashkil qilishdan boshladi. 1928 yili o'tkazilgan sozandalar tanlovida F. Sodiqov qatnashib ikkinchi darajali, keyingi yilda esa birinchi darajali diplomga sazovor bo'ldi. 1933 yili u musiqali teatrga ishga qabul qilib, mashhur san'atkorlar bilan tanishdi, ular bilan ijodiy muloqotlarda bo'ldi. 1937 yilda Moskvada o'tadigan O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasiga T.Jalilov boshchiligida 100 kishidan ortiq o'zbek ansambliga mohir

sozandalar qatori F. Sodiqov ham ishlashga taklif qilindi. 1938 yili filarmoniya qoshida xotin - qizlardan iborat dutorchilar ansambli tashkil etilgach, u musiqa rahbari sifatida ishladi va bastakorlik ijodi bilan repertuarini boyitdi, ijrochilik mahoratini oshirdi va tez orada mashhur jamoaga aylantirdi. Urush yillari front konsert brigadasining musiqa rahbari bo'lib, jangchilarga xizmat qildi. 1947 - 1953 yillari F. Sodiqov O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansamblida changchi, 1953 - 1955 yillarda filarmoniyaning ashula va raqs ansambli sozandasi, 1955 - 1957 yillarda O'zbek davlat estradasida ansambl rahbari vazifasida ishladi.

1957 yilda F. Sodiqov Yu. Rajabiy rahbarligidagi radio qoshida tashkil etilgan sozandalar ansamblga changchi etib taklif qilindi. 1959 yilda maqomchilar ansamblida changchi, 1961 yildan esa mazkur ansamblga musiqa rahbari etib tayinlandi va shu vazifada umrining oxirigacha ishladi. 1972 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida yangi tashkil topgan Sharq musiqasi kafedrasida ishlab, maqom ijrochichigi bo'yicha talabalarga ustozlik qildi.

F. Sodiqov yaratgan noyob va barkamol musiqiy asarlarni, ayniqsa, milliy qo'shiqchilik san'atining rivojlanishiga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda 1967 yili O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi.

F. Sodiqov musiqaning turli janrlarida ijod qildi, uning ijodida kuy, qo'shiq va ashula asosiy o'rin tutadi. U klassik va zamondosh shoirlar she'rlariga 300 dan ortiq asarlar yaratdi. Jumladan, G'. G'ulom so'ziga 1934 yili bastalagan «Hormang endi kolxozchilar», «Marhabo» (Mirtemir so'zi), «Vatandan minnatdorman», «Ey chehrasi tobonim» (Muqimiy so'zi), «O'ynasin» (Habibiy so'zi) ilk qo'shiq va lirik ashulalari tinglovchilarni o'ziga jalb qildi. Bastakor birin - ketin, yangi - yangi original qo'shiq va lirik ashulalar yaratishga muvaffaq bo'ldi. U yaratgan vatanni, mehnatni, tinchlikni madhiyalaydigan qo'shiqlar orasida «O'zbekistonim mening» (Uyg'un so'zi), «Hosil to'yi» (M. Qoriyev so'zi), «Jahon bo'ylab bir ovoz yangrar» (Q. Muhammadiy so'zi), «Tinchlik qo'shig'i» (U. G'ani so'zi), «Zarafshon» (A. Po'lat so'zi), «Gullar vodiysi» (T. To'la so'zi), «Vatan o'xshar quyoshga» (E. Rahim so'zi), «O'zbekiston oltini» (Yo. Mirzo so'zi), «Botir cho'pon qo'shig'i» (Q. Muhammadiy so'zi), «Oltin

vodiy» (Z. Obidov so'zi), «Terimchi qizga» (S. Zunnunova so'zi), «Yorim to'qur xon atlas» (A. Bobojonov so'zi), «O'lkam ipakka to'lsin», «Oq oltin karvon - karvon» va «Mirzacho'lning qiziman» (Z. Obidov so'zlari) kabi qo'shiqlar radio to'lqinlarida muntazam jaranglab keldi. Bastakorning ko'plab qo'shiq va ashulalari tabiatni, ishq - muhabbatni, insoniylikni, go'zallikni madh etadi: «Sevgilim», «Tong shabodalari», «Uyalaman», «Hayo» (M. Qoriyev so'zlari), «Yor bilib», «Xo'b de, jonim, «Yor bo'lsang deyman» (S. Zunnunova so'zlari), «Bir go'zal», «Oydin kechada» (Mirtemir so'zlari), «Onajonim», «Ayb etma», «Xush havo chamanlarida», «Muborakbod», «Ko'zim», «Mezbon bo'lay» (Z. Obidov so'zlari), «Menga navbat», «Shirmonoy», «Yor bo'lmasa», «Go'zal», «Zuhroga» (T. To'la so'zlari), «Ochil nihol», «So'lim bahor», «Visol gulshani», «Vafo qo'shig'i», «Suv suluv qo'shig'i» (A. Isroilov so'zlari), «Xumor», «Shaydosiman», «Tashna qalbm» (Yo. Mirza so'zlari).

F. Sodiqov B. Giyenko bilan hamkorlikda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahna yuzini ko'rgan «Ota o'g'li» (H. Sharipov pyesasi) musiqali dramasi va T. Toshmatov bilan hamkorlikda «Inbuzarlar» (Sh. Nizomiddinov pyesasi) musiqali drama, S. Hayitboyev bilan hamkorlikda «Saltanat larzada» (V. Sa'dulla pyesasi) musiqali dramasi, D. Zokirov bilan hamkorlikda «Go'zal» nomli telepostanovkalarga musiqa yaratdi. O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun T. Toshmatov bilan hamkorlikda T. To'la so'ziga «Yangi Toshkent» nomli syuita va quyidagi qo'shiqlarni yaratdi: «Ko'ngil sen» (S. Qo'qonbekov so'zi), «O'zbekiston» (T. Rajabiy so'zi), «Ko'nglida bo'lsa» (T. Mo'minov so'zi). Bulardan tashqari, u «Vatan marshi», «Qurilish marshi», Gulnor «O'zbekcha vals», «O'xsharsiz» kabi cholg'u kuylarini yaratdi va O'zbekiston radiosining ramziy chaqiriq kuyini ijod qildi.

Ajoyib inson, mashhur bastakor, mashhur sozanda va ustoz F. Sodiqov XX asr musiqa san'atining rivojlantirishiga qo'shgan hissasi uchun 1964 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan va orden, medallar bilan mukofotlangan.

Yudakov Sulaymon (Solomon) Aleksandrovich Qo'qon shahrida kambag'al kosib oilasida 1916 yilning 14 aprelida tavallud topdi. 1932 yili Moskva davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqa «Rabfak» ning fleyta sinfiga o'qishga kirdim. 1934 yili «Rabfak» ni berkitishdi va konservatoriya qoshida Moskva davlat musiqa texnikumi ochildi. Meni kompozitor M. F. Gnesinning tavsiyasi bilan texnikumning nazariy, tarixiy, kompozitorlik bo'limi birinchi kursiga qabul qilishdi. Texnikumda damli cholg'u asboblari orkestriga ham qatnashib turdim. Kompozitsiyadan avval M. O. Mesnerda, ikki yildan so'ng M. F. Gnesinda saboq oldim. 1938 yili texnikumni muvafaqiyatli bitirdim. O'sha yili Moskva davlat konservatoriyasi professori, kompozitor R. M. Glier sinfiga kompozitsiyadan ta'lim olishni boshladim.

Moskva konservatoriyasida o'qib yurgan yillari turli cholg'u asboblari, ansambllarga musiqa yaratdi. Uning fortepiano uchun yozgan etyud, prelyudiya, variatsiya, sonatina, fleyta va fortepiano uchun yozgan «Rondo», «Lirik kuy», Etyud, skripka va fortepiano uchun yozgan «Skersso», «Sonatina», torli kvartet kabi sharq musiqa intonatsiyalari bilan sug'orilgan asarlarini konservatoriya talabalari qiziqib ijro qilishar edi. 1940 yili talaba - kompozitor S. Yudakov, istisno tariqasida, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga qabul qilindi.

S. Yudakovning mustaqil ijodiy faoliyati Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlandi. U 1941 - 45 yillarda o'zbek o'g'loni, yurt qahramoni Qo'chqor Turdiyevga bag'ishlab «Oldinga bosing, o'rtoklar!» va «Do'stlar» (A. Lohutiy so'zlari); «Chavandozlar qo'shig'i» (Mirtemir so'zi), «Jonga - jon, qonga - qon» (T. Fattoh so'zi) kabi vatanparvar ommaviy qo'shiqlar; «Habibi tu manam» (H. Yusufiy so'zi) romans; 1942 y. «Farzanad» (S. Ismoilzoda pyesasi) musiqali drama, torli kvartet uchun 3 ta pyesa va syuita va simfonik orkestr uchun «Syuita» asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga S. Yudakov 1941 - 42 yillarda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943 - 44 yillarda Tojikiston filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so'zlariga bir qator qo'shiq va romanslar yaratdi. 1945 yili Tojikiston Davlat madhiyasini yozish uchun ko'rik tanlov e'lon qilindi. Mazkur tanlov uchun boshqa kompozitorlar qatorida S. Yudakov ham A. Lohutiy so'ziga

madhiya yozdi. S. Yudakovning musiqasi tanlab olinib tasdiqlandi, hozirga qadar so'zi o'zgartirilgan holda bu madhiya jaranglab kelmoqda.

1946 yili S. Yudakov Toshkentga qaytib keladi va ijodini davom ettiradi. T. To'la so'ziga xor, yakkaxon va simfonik orkestr uchun «G'alaba» (1945 y.) kantatasini yozdi. A. S. Pushkin so'ziga o'zbek, tojik va rus ohanglarini payvasta qilgan holda «Kuylama, sohibjamol», «Gurjiston tepaliklarida», «Bulbul», «Tungi mayin shabada», «Inezilya, men bu yerdaman» (1945 y.) kabi romanslar; A. Lohutiy so'ziga «Afsonai dil» va «Tasfiri tu» (1946 y.) romanslar; shu yili skripka va fortepiano uchun yaratgan «Sharq poemasi» va yuqorida zikr qilingan «Kuylama, sohibjamol» romansi ijrochilarni va tinglovchilarni hozirga qadar maftun qilib kelmoqda. Bu ikki asar ijrochilarning turli avlodlari repertuar dasturlaridan munosib o'rin olib, eng ko'p ijro etiladigan asarlar sirasiga kiradi.

Skripka, violonchel va fortepiano uchun «Syuita» (1946 y.); ikkita fortepiano uchun «Syuita» (1948 y.); simfonik orkestr uchun «Tantanavor uvertyura» (1949 y.); torli kvartet uchun «Syuita» (1949 y.); Navoiy so'ziga «Basandast» (1949 y.) romans, M. Mirshakar so'ziga «Alla» va «Yangi g'alabalar uchun» qo'shiqlar, shoir M. Tursun so'ziga xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «O, qiz bola» qo'shig'i kabi turli janrlarda bastalagan bu asarlar o'lkamizni zamonaviy musiqa san'atiga yana bir iste'dodli, zabardast kompozitor mustaqil ravishda kirib kelganidan darak bergan edi.

S. Yudakov mahoratining badiiy jihatdan yetilib borishi muhim davri 50 – 80 - yillarga to'g'ri keladi. Bu davr uning uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo'ldi. Qat'iy ichki intizomga ega bo'lgan kompozitor, shu vaqt orasida o'z ustida ishlab, professional kompozitorlik yozish texnikasini mukammal ravishda o'zlashtiribgina kolmay, ajoyib badiiy yuksak musiqiy asarlar yaratishga muyassar bo'ldi. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Ezgu orzu - umidlar bilan xalqlarni safarbarlika da'vat qildi. Kelajaka katta ishonch bilan qaradi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir. Bu o'rinda A. Muxtor so'ziga yozilgan «Jon O'zbekiston», «Mehnat shodligi», G'. G'ulom so'ziga «Qirg'iziston paxtakorlariga», Sh. Rashidov so'ziga «Dugonalar», «Olamda gullar yashar», T. To'la so'ziga «Karnaval vals», A. Surkov so'ziga «Hindi - rusi bxay - bxay»,

«Tinchliksevarlar marshi», kabi jozibali, jo'shqin qo'shiqlar fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, bu o'rinda kompozitorni 1950 yili G'. G'ulom so'ziga yozgan, 1951 yilda esa Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan 6 qismli «Mirzacho'l» nomli vokal - simfonik syuitasi; 1955 yilda T. To'la so'zlariga yozilgan: «Mening Vatanim» 4 qismli kantata, «Visol» (1965 y.) vokal poemalar, H. G'ulom so'ziga yozilgan «Muborakbod», 5 qismli kantata (bolalar xor jamoasi ham qatnashadi, 1972 y.), Mirtemir so'ziga yozilgan «Alyor» vokal xoreografik solist, xor va raqs jamoalari uchun (1972 y.), E. Vohidov so'ziga «O'zbekiston» nomli solist, xor va simfonik orkestr uchun poema - kantata (1973 y.), T. To'la so'ziga «G'alaba» nomli oratoriya (1975 y.) yorqin misol bo'la oladi. Shu nomli 1945 yilda yozilgan musiqasi asosida yaratilgan mazkur oratoriya birinchi gal Navoiy nomidagi opera va balet jamoasi sahnasida ko'tarinki ruhda muvaffaqiyatli ijro etildi. Shuni aytib o'tish joizki, 50 - 70 yillarda respublikada har yili ommaviy xor, qo'shiq bayramlari o'tkazilar edi. Bayramni o'tkazishda xor jamoalarining birlashmasidan tashkil topgan 50 minglik xor, boshqa kompozitorlarning asarlari qatorida S. Yudakovning «Mirzacho'l», 1955 yildan boshlab «Mening Vatanim» asarlari muntazam ijro etilar edi. 1972 yildan boshlab «Alyor» vokal-xoreografik syuita ham eng ko'p ijro etiladigan asarlar qatoridan munosib o'rin oldi.

O'zbekistonning atoqli kuychisi, kompozitor S. Yudakovga, yuqorida zikr qilinganlar bilan bir qatorda eng katta shuhrat keltirgan asari «Maysaraning ishi» nomli birinchi o'zbek komik operasi bo'ldi. 1958 yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat katta akademik opera va balet teatrida sahna yuzini ko'rgan mazkur opera teatrining asosiy repertuarlaridan biri bo'lib, hozirga qadar ijro qilinmokda. Hamzaning shu nomli komediyasi asosida S. Abdulla va M. Muhamedovlar librettosini tayyorlashgan. Bu opera 1959 yili Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyot va san'ati 10 kunligida Bolshoy teatrida saxna yuzini ko'rgan. «Maysaraning ishi» musiqa jamoatchiligi orasida juda katta shov shuvga aylanib ketdi. Markaziy matbuotda birin ketin chop etilgan maqolada operani ulug'lashdi. Tez orada Moskva davlat «Romen» lo'lilar Sigan teatri rus tilida operani tomoshabinlarga havola etdi va uzoq yillar davomida teatr repertuarida saqlanib keldi. 60 - yillarda mazkur opera Boshqirdiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Samarqand opera va balet

teatrlarida ham sahna yuzini ko'rdi va katta muvaffaqiyat qozondi. 1974 yili esa Polshaning Lodz shahri opera va balet teatrida ham tomoshabinlar qizg'in kutib oldilar. Operaning birinchi ijrochilari: Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Karim Zokirov, Sattor Yarashev, Jamol Nizomxo'jayev, Husan Ismoilov, Mixail Davidovlarning ijrochilik ashulalarida yangilik bo'ldi. Ularning ijrosida komplekt grammofon plastinkalari million nusxada chop etildi. Shuni aytish joizki, butun dunyoda yaratilgan eng mashhur operalar to'g'risida, tanlangan 100 opera nomli kitobda S. Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi ham tilga olingan. Mazkur opera birgina kompozitorga emas, butun O'zbekistonning zamonaviy musiqiy madaniyatiga ham shuhrat keltirdi.

S. Yudakov 70 yillarda Sharqda mashhur bo'lgan, latifa sarkardasi Afandiga bag'ishlab, «Nasriddin Afandining yoshligi» nomli balet yaratgan edi. Uni 1997 yilda Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet geatri jamoasi amalga oshirdi va tomoshabinlar balet premyerasini qizg'in kutib oldilar. Kompozitor S. Yudakov R. Hamroyev va M. Melkumovlar bilan hamkorlikda «Oq yo'l» musiqali komediya yaratdi. Quyidagi drama spektakllarga: «Shohi so'zana» (A. Qahhor pyesasi), «Ganga qizi» (R. Tagor asari), «Zuhraning maktubi» va «Furqat», «Qachon atirgullar ochiladi», «Temirchining bayrog'i» va «12 soatli hayot» kinofilmlariga musiqa bastaladi. Uning qalami ostidan: «Xorazmcha bayram yurishi», «Tantanavor uvertyura», «Yoshlar poemasi», «Festival uvertyurasi», «Xoreografik syuita» kabi simfonik kuylari orkestrlar repertuaridan munosib o'rin olgan. Kompozitorning simfonik musiqiy asarlari orasida ona xotirasiga bag'ishlangan, mungli «Poema - rapsodiya»si alohida o'rin tutadi. U kamer - cholg'u ansambli va orkestrlarga ham asarlar yaratdi.

S. Yudakov zamonaviy o'zbek professional musiqa tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa ko'shdi va boy musiqiy meros qoldirdi. Uning buyuk xizmatlari ordenlar, bir necha medallar bilan, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» va «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. S. Yudakov Davlat va Respublika davlat mukofotlarining sovrindori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli kompozitor Sobir Boboyev ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan

respublikamiz zamonaviy musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shgan. U yorqin asarlari bilan M. Ashrafiy, M. Burhonov, T. Sodiqov, Sh. Ramazonov, M. Leviyev, S. Yudakov kabi kompozitorlar safiga qo'shildi. Boboyevning opera, musiqali drama va komediyalari, simfonik, vokal - simfonik va xor asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun asarlari, qo'shiq va romanslari ma'naviy mulkimizga aylandi.

Sobir Boboyev 1920 yil 30 dekabrda Toshkentda Muhammad Vosil Boboyev oilasida tug'ildi.

Toshkent konservatoriyasi professori, musiqashunos Ye. Ye. Romanovskaya bilan uchrashuv o'tkazildi. S. Boboyevning dutor va tanbur chalishini, o'zi bastalagan kuyini tinglab unga konservatoriyada ochilgan kompozitorlik tayyorlov bo'limida o'qishga maslahat berdi. Bo'lajak ijodkor dastlab tayyorlov, so'ngra asosiy bosqichlarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor B. B. Nadejdin sinfida ta'lim oldi. 1949 yilda T. To'la librettosi asosida «Zumrad» nomli bir pardali operasi bilan konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi.

Talabalik yillari S. Boboyev O'zbekiston radiosining xorida xonanda, bosh xormeyster yordamchisi, 1947 - 49 yillarda O'zbekiston filar-moniyasining ashula va raqs ansamblida badiiy rahbar bo'lib ishladi. Bu davrda yozgan musiqa asarlarining badiiyligi va professionalligini hisobga olib S. Boboyev 1946 yili O'zbekiston uyushmasiga a'zolika qabul qilindi. 1948 yili esa uyushmaning birinchi qurultoyida u hay'at raisi lavozimiga saylandi va 1955 yilga qadar faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga u 1951 - 52 yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida va konservatoriyada musiqiy nazariy fanlardan dars berdi. Shuningdek, S. Boboyev 1958 - 59 yillarda O'zbekiston xor jamiyati hay'at raisi, 1960 - 65 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, 1966 - 69 yillarda Samarqand opera va balet teatri direktori va badiiy rahbari, 1972 - 76 yillarda M. Qoriyoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasi badiiy rahbari; 1969 - 78 yillarda konservatoriya muallimi, 1982 - 85 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi vazifalarida ishladi.

Kompozitor fortepiano uchun pyesa, sonatina, raqs; Klarnet va fortepiano uchun «Rapsodiya», simfonik orkestr uchun ikkita syuita, xor jamoasi uchun:

Muqimiy so'ziga «Navbahor» , T. To'la so'ziga «Alla», «Fizkul'turachilar qo'shig'i» (Sh. Sa'dulla so'zi), «Xalqimga» (T. Fattoh so'zi), «O'zbekiston» (R. Bobojon so'zi), xor qo'shiqlar: «Bulbul sayraganda» (T. To'la so'zi), «Vatan» (N. Toshpo'lat so'zi), «Sendadur» (Shuhrat so'zi), «Gul sochar» va «Orazing» (Navoiy so'zlari), qo'shiqlar: «Ishonmayman» (M. Boboyev so'zi), «Ey sabo» (Navoiy so'zi), «Bu hol» (Uyg'un so'zi), «Do'stinga» (H. Olimjon so'zi), «Go'zal vodiy» (T. To'la so'zi), «Sening qo'shig'ing» (H. G'ulom so'zi) kabi romanslar; R. Bobojonov so'ziga beshta, T. Mirzo so'ziga bolalar uchun uchta qo'shiq bastaladi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Poema», «Bayram uvertyura»si (1950 y.) o'zining shodiyona ohangdor ko'tarinki ruhi, milliyligi, shaklining ixcham, mukammal professionalligi, orkestrning rangbarang jaranglashi bilan ajralib turadi. Bu asar kompozitorni elga tanitdi. U birgina muallifning ijodiy yutug'i emas, butun zamonaviy o'zbek musiqa san'atining va ayniqsa, orkestr jamoasining ham yutug'i bo'ldi. Bu asar professional va talabalar orkestri dasturlarida hozirga qadar ijro qilinib kelinmokda. Xuddi «Bayram uvertyura»si kabi chang va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan «Konsertino» (1952 y) ham sozanda va tinglovchilarning sevimli asarlaridan biridir. Bunday ijodiy yutuq kompozitorni o'z kasb - hunari ustida yanada jiddiy ishlashga, yirik va murakab musiqa asarlari yaratishga ilhomlantirdi. Tez orada uning qalami ostidan quyidagi simfonik va vokal - simfonik asarlar bunyodga keldi: simfonik orkestr uchun ikkita syuita (1952, 1953 y.), mumtoz xalq kuyi «Segox» asosida simfonik poema (1956 y.), T. To'la so'zlariga «Oq oltin» vokal - xoreografik syuita va «Bayram kuni» (1955 y.) vokal - simfonik poema, ayniqsa, paxtakor dehqonlar hayotiga bag'ishlangan 4 qismli «Hosil bayrami» (R. Bobojon so'zi, 1955 y.) kantatasi o'zining milliy ohangdorligi, rang - barang xor qo'shiqlar bilan mirobboshining lirik ashulasi, yakunlovchi tantanavor ruxda ommaviy xor sadolari bilan ajralib turadi. Birinchi ijrosidayoq ijodiy yutug'i va asarning badiiy ta'sirchanligi e'tirof etildi.

S. Boboyevning butun ijodiy faoliyatida sahna asarlariga musiqa bastalash asosiy o'rinda turadi. U birinchi musiqali komediya «Dalada bayram» va musiqali drama «Mening sohillarim» (Sh. Sa'dulla va Z. Fatxulinlar pyesasi, 1954 va 1957 y.) D. Zokirov

bilan hamkorlikda yaratgan bo'lsa, mustaqil ravishda 1957 yil «Katta muhabbat» (B. Rahmonov pyesasi) musiqali dramani yaratdi. 1958 yil Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan sahnalashtirilgan, «Vatan ishq» (Sh. Sa'dulla va Z. Fatxulinlar pyesasi) musiqali drama kompozitorning katta ijodiy yutug'i, desak mubolag'a bo'lmaydi. Kelgusi yillarda S. Boboyev «Ikki bilaguzuk» (Sh. Sa'dulla pyesasi, 1962 y.) musiqali komediya, «Mayna Hasanova» (A. Rahmat pyesasi, 1972 y.), «Oltin kamar» (To'lqin pyesasi, 1978 y.), «Muhabbat qo'shig'i» (T. Tlegenov pyesasi, 1980 y.) musiqali dramalar, «Temir qafas» (X. Rasulov pyesasi, 1982 y.) musiqali komediya va «Shahrisabz malikasi» (L. Gladkix pyesasi) musiqali komediya (1986 y.) ijod etdi.

S. Boboyev K. Yashin bilan hamkorlikda «Hamza» operasini yaratdi. Atoqli shoir, dramaturg, bastakor, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziyning siymosiga bag'ishlangan «Hamza» operasi 1961 yil 27 may kuni sahna yuzini ko'rdi va tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi. Opera musiqasi, ayniqsa, asosiy personajlar: Hamza, Sanobar, Alijon, Shodmon ota, Shayx Ismoililar go'zal va original ariyalari, xor qo'shiqlari tinglovchiga manzur bo'ldi, maftun qildi. Albatta, eng avval bu kompozitorning ijodiy yutug'i bo'ldi va respublikamiz madaniy hayotida o'z vaqtida katta voqyeaga aylangan edi. Kelgusida S. Boboyev «Vatan ishq» musiqali dramasi asosida 1973 yili (ikkinchi tahrir 1985 y.) «Fidoyilar» (Sh. Sa'dulla va Z. Fatxulin librettosi) va bolalar uchun 1969 yili o'zbek xalq ertagi asosida «Yoriltosh» (Sh. Sa'dulla librettosi) operalarini yaratdi.

S. Boboyev ijodiy faoliyatida doimiy ravishda qo'shiq, romans, jo'rli va jo'rsiz xor qo'shiqlar yaratib kelmoqda. Bu sohada bastalagan hamma asarlarning nomlarini sanash mushkul. Ayniqsa, u romans janriga katta ahamiyat berib, o'ziga xos uslubni topib oldi, kompozitor har bir she'rning mazmunidan kelib chiqib, deklamasion ohanglarga e'tibor berdi. Bunday hol, ayniqsa, «Yor ketdi» (Oybek she'ri), «Qalb» (S. Zunnunova she'ri), «Meros» (A. Sa'dulla she'ri), A. Muxtorning 4 ta she'riga, H. Xudoyberdiyevaning she'rlariga bastalagan romanslarida yaqqol seziladi. Bulardan tashqari 90 -yillarda Navoiyning 3 ta, Mashrabning 11 ta, Furqatning 5 ta va Nodiraning g'azallariga romanslar bastaladi. Jo'rsiz xor uchun yaratgan xor

qo'shiqlari, ayniqsa, o'zbek xalq ashula va qo'shiqlari asosida qayta ishlagan: «Galdir», «Tanovar», «Segoh» kabi asarlar diqqatga sazovor.

Sobir Boboyev yorqin, ko'p qirrali va serunum ijodi bilan O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan xizmatlari 1998 yili «El-yurt hurmati» ordeni, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan. O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kompozitor I. Akbarov o'zining simfonik asarlari, kantata, oratoriya, opera, balet, musiqali drama va komediya, xor hamda estrada qo'shiqlari bilan o'zbek musiqasi ravnaqiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan respublikamiz professional musiqa san'atining rivojlanish jarayonini bu iste'dodli kompozitorsiz tasavvur etish qiyin.

2.3. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek bastakorlari va xalq hofizlari ijodini o'rganish va tajriba –sinov ishlari.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimida ro’y berayotgan o’zgarishlar umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi boshqa o’quv fanlari qatori musiqa madaniyati o’quv fanining o’qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

Musiqa madaniyati o’quv predmeti o’quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g’urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o’stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ko’p yillik tajribalar shuni ko’rsatdiki musiqa darslari yosh avlod tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatar ekan. Modomiki shunday ekan, biz o’qituvchilar o’z kasbimizga ijodiy yondoshib, kelajak avlodga xalqimiz musiqiy merosidan bahramand bo’lishga, uni to’laqonli o’rganishga mas’ulmiz.

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» yo‘lidan borar ekanmiz, jamiyatimizning barcha sohalarida tup o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. O’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama

mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib turgan bir paytda, xususan, talantlarga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatib borish o'ta zarurligini hayot taqozo etadi. Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zallikga intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov bu noyob kasb egalarining imkoniyatlarini chuqur his qilgan holda, yosh avlodga musiqiy ta'lim berish zarurligiga alohida e'tibor qaratib, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish haqida maxsus farmon chiqardi. Unda ta'kidlanganidek, «Bolalar musiqa va san'at maktablarini zamonaviy o'quv va musiqa anjomlari bilan ta'minlash» bugungi kun talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy va texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash choratadbirlari rejalashtirildi. Bu vazifalarni O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmoyishidan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir.

Mavzu: O'zbek bastakorlari –Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Mustafo Vafoyev, Farhod Alimov va boshqalar ijodida musiqali drama va komediyalarning o'rni
Darsning texnologik xaritasi.

Maqsad va vazifalar.	Maqsad: O'quvchilarga musiqiy janrlar hamda musiqali drama va komediyalar to'g'risida tushuncha berish.O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishlar uyg'otish.Musiqiy bilim darajalarini mustahkamlash.Musiqa madaniyati faniga qiziqtirish.
O'quv jarayonining mazmuni.	O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.Mavzu orqali ularni bilim,ko'nikma va malakalarini o'stirish musiqa madaniyatining inson hayotidagi o'rni va mohiyatini mavzu orqali tushuntirib berish.
O'quv jarayonining	Uslub: Suhbat, tushuntirish, munozara.Davra suhbat.

amalga oshirish texnologiyasi.	Interfaol, mustaqil va ijodiy fikrlash. Shakl: Guruh va jamoalarda ishlash. Usul: Interfaol usullardan foydalanish. Darsning jihozi: Texnik vositalar, audiomagnitafon, audiokasseta, qashqar rubob, qo‘shiq matni yozilgan plakat, simfonik va xor ijrosidagi asarlarning rasmlari, savollar kartochkasi, mashhur kompozitorlarning portreti, 5-sinf musiqa darsligi.
Kutiladigan natijalar.	Mavzuni berilgan vaqt ichida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish. Musiqaviy bilimlarini mustahkamlash. O‘quvchilarni badiiy didini o‘stirish.
Kelgusi rejalar.	Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va o‘zlashtirish. Bu texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, Vaqtdan tog‘ri foydalanishga, erkin fikrlay olishga o‘rgatish. Bahs munozara orqali dunyoqarashini kengaytirish.

Ta’limiy maqsad : O‘quvshilarning musiqiy ilmlarini kengaytirish, musiqiy savodxonligini oshirish.

Ta’rbiyaviy maqsad : O‘quvshilarni musiqiy qadriyatlar, ustoz-shogird an’analari, hamkorligda ishlay olish qobiliyatini shakllantirish, bir-biriga o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlanturuvchi maqsad : Bolalarni mustaqil fikrlash, o‘z fikrini himoya qilish va asoslay bilishga o‘rgatish.

Darsning shiori: *Fan bog‘ida qil parvoz,
Qancha bilsang shuncha oz.*

Darsning jihozi: Texnik vositalar, audiomagnitafon, audiokasseta, qashqar rubob, qo‘shiq matni yozilgan plakat, simfonik va xor ijrosidagi asarlarning rasmlari, savollar kartochkasi, mashhur kompozitorlarning portreti, 5-sinf musiqa darsligi, rebus va krassvodlar chizilgan plakatlar.

Dars taqsimoti

Dars bosqichlari	vaqti
Tashkiliy qism: O‘quvchilarni darsga tayyorlash. Ovozlarini sozlash. O‘quv qurollarini nazorat qilish.	2 daqiqa
Uyga vazifani mustahkamlash: Savol-javoblar orqali.	10 daqiqa
Jamoa bo‘lib kuylash: Gullar manim kulganim	5 daqiqa
Yangi mavzu: O‘zbek bastakorlari –Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Mustafo Vafoyev, Farhod Alimov va boshqalar ijodida musiqali drama va komediyalarning o‘rni	20 daqiqa
Musiqa savodi:.	5 daqiqa

Dars yakuni: Mustahkamlash. Har xil o'yinlar orqali otilgan mavzuni mustahkamlash.	2 daqiqa
Uyga vazifa: Mavzuni mustaqil o'qib kelish.	1 daqiqa

Dasning borishi:

Tashkiliy qism: O'quvchilar jamoasini darsga tayyorlash, davomat, sinf xonasi tozaligi, uyga vazifani tekshirish, ikkala guruhga o'tilgan darsdan savollar beris

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 6X6X6 usulidan foydalanamiz.

Sinf o'quvchilarni to'rt guruhga bo'lamiz. Guruhni "Orkestr", "Opera", "Vokal", "Simfoniya" deb nomlab olamiz. Guruhlarga savollar yozilgan kartochkalarni tarqatamiz. Jamoalar tayyorlanib birin-ketin savollarga javob beradilar.

1. Musiqali drama deganda nimani tushunasiz?
2. Simfonik orkestr uchun yozilgan asarlar janrini bilasizmi?
3. Qaysi bastakorlar simfonik orkestr uchun yuksak ijod namunalarini yaratishgan?
4. Torli-kamonli cholg'ular guruhi qaysi cholg'ulardan tashkil topgan?
5. Nota cho'zimlarni uzaytiruvchi qanday belgilar bor va ular nima uchun ishlatiladi?
6. „Chumoli“ qo'shig'ining mualliflari kimlar?

Savol javoblardan so'ng, quyidagi mashqlar orqali o'quvchilar ovozi sozlash:

- do-do, re-re, mi-mi, fa-fa, sol-sol, lya-lya, si-si
- do-re-mi-fa-sol-sol, sol-fa-mi-re-do
- re-mi-fa, re-mi-fa, lya-lya-sol-fa-mi
- do-re-mi, do-re-mi, sol-dol fa-mi-re
- Chopqillayman tolmayman, darsdan kechga qolmayman.
- **Jamoa bo'lib kuylash:**

Gullarmanim kulganim

Po‘lat Mo‘min she’ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

Bo‘lsin deya el chaman,
Bog‘imga gul ekaman.
Kulgan baxtu yoshligim,
Gulshanimda erkaman.

Naqarot:

Gulshanim, ho, gulshanim,
Gullar manim kulganim.

Naqarot.

Gulshanim — yurt qiyosi,
Kulganim — dil ziyosi.
Bog‘im tutash bog‘larga,
Gulim — mehnat jilosi.

Naqarot.


Tole to‘la kunlarim,
Ko‘ksimdadir qo‘llarim.
Keling sayr-u chamang
Yana kulgay gullarim.

O‘quvchilardan qo‘shiq mazmuni uning mualliflari hamda qo‘shiqni nazariy savodxonligi haqidagi ma’lumotlarni aniqlanib olingach, rubob jo‘rligida qo‘shiq xor bo‘lib ijro etiladi. Bunda ikkala guruh ham faol ishtirok etishadi.

Yangi mavzu: Musiqali drama-cholg‘uva vokal musiqa asosiy o‘rinni egallagan dramatic sahna asaridir. Musiqali drama va komediya janri O‘zbekistonda hakllanib ,birinchi namunalari yaratilib bo‘lingandan so‘ng ,keying avlod vakillari tomonidan ko‘plab asarlar dunyoga keldi.Bunga misol qilib – I.Akbarovning O‘jarlar”,”Qonli to‘y”,”Momo yerlarini”,S.Jalilning”Navoiy strobodda”,”Shayton va muridlar”,”Laqma”,”Kampir ketarmish”larini,M.Vafoyevning”Uzilgan torlar”,”Prometiy”,”Zo‘ldor”larini

,F.Alimovning “Yusuf va Zulayxo”,”Nodirabegim”, “Fotima va Zuhra”,va “Devona”larine sanab o’tish mumkin.

“Tarmoqlar” usulidan foydalanib mavzuni mustahkamlaymiz



Farhod Alimov(1947)

Kompozitor Farhod Alimov hozirgi zamon o‘zbek musiqa san’atining zabardast vakillaridan biri. Uyorqin ijodiy faoliyati bilan rang-barang, jo‘shqin va jozibali qo‘shiqlari, o‘zbek xalq cholg‘u orkestriga va teatr uchun yozgan asarlari bilan shinavandalari qalbidan joy olib, zamonaviy milliy musiqa san’ati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Farhod Alimov 1947-yil 23-oktabrda Toshkentda muhandis oilasida tug‘ildi. 1954-yili maktabga bordi. Farhodning musiqaga qiziqishini ko‘rgan ota-onasi uni 1959-yil R. Glier nomidagi respublika musiqa maktab-internatiga o‘tkazdilar. Bu yerda u g‘ijjak chalishni taniqli o‘qituvchi O. Xolmuhamedovdan o‘rgandi. 1965-yil maktabni imtiyozli tugatib, Toshkent Davlat konservatoriyasining o‘zbek xalq cholg‘ulari fakultetiga imtihonsiz qabul qilindi. Konservatoriyani 1970-yilda g‘ijjak bo‘yicha bitirib, O‘zbekiston radiosi qoshidagi O‘zbek xalq cholg‘u

asboblari orkestrida sozanda bo‘lib ishladi. Orkestrda ishlab yurgan paytlarida musiqa bastalashga intilib, qo‘shiq va kuylar yoza boshladi. Kompozitorlik malakasiga ega bo‘lish uchun 1972-yili konservatoriyaning tayyorlov kurslarida, so‘ngra asosiy bosqichda Boris Giyenkoda ta‘lim oldi. 1975-yildan boshlab A. Qodiriy nomidagi Madaniyat institutida katta o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. 1995-yildan boshlab Toshkent Davlat konservatoriyasida orkestr dirijorligi kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.

F. Alimov musiqa san‘atining deyarli barcha janrlarida samarali ijod qilmoqda. Uning bastalagan asarlari simfoniya, ovoz va simfonik orkestr uchun «Maftuningman Toshkent» vokal-simfonik poemasi, «Ona sayyorani asrang» kantatasi, «Ibn Sino hayotidan lavhalar» simfonik poemasi, «Shodiyona», «Tabriknoma», «To‘yona» uverturalari, jo‘rsiz xor uchun Navoiy ruboiylariga «Muhabbatnoma turkumi», Bobur ruboiylariga «Dil sadosi» turkumi milliy ruhi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. 1990-yillarda «Muhabbatnoma», «Baxshida» nomli baletlarni, quyidagi musiqali dramalarni yaratdi: «Yusuf va Zulayxo», «Fotima va Zuhra», «Nodirabegim», «Devona», «Soyibxo‘ja operasi», «Super qaynona», «Checha», «Super qaynona — 2», «Na falakman, na malak», «Muhabbat tuyg‘usi», «Oq kabutarlar» musiqali komediyalari Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan sahnaga yuzini ko‘rgan.

F. Alimov «Mehrobdan chayon» filmiga, «Samarqand obidalari va muzeylari», «Vatan bizniki», «San‘at maktabi» hujjatli filmlariga musiqa bastalagan.

Shuningdek, «Navro‘z», «Sharq taronalari», Amir Temur va Ulug‘bek yubileylariga bag‘ishlangan anjumanlarda o‘z asarlari bilan faol qatnashdi. Uning asarlari Germaniya, Ispaniya, Misr, Fransiya mamlakatlarida ijro etilib, olqish va hurmatga sazovor bo‘ldi.

Kompozitor bolalar uchun «Sariq jo‘jalarim», «Oyijonim allasi», «Yoz fasli», «Yashasin do‘stlik», «Chaqqon bola», «Oppoq qayin», «Ahillik — do‘stlik» kabi juda ko‘p qo‘shiqlarga kuy bastaladi.

Avaz Mansurov(1957)

O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, Toshkent Davlat konservatoriyasi kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasini professori, kompozitor Avaz Mansurov o'zining uslubi bilan alohida ajralib turadi. Kompozitor turli janrlarda, ayniqsa, qo'shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda.

Avaz Mansurov 1957-yil 2-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ildi. Avazning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqa va she'riyat davralarida o'tdi. Dastlab musiqa maktabida, so'ngra Qo'qondagi musiqa bilim yurtining «Musiqa nazariyasi» bo'limida a'lo baholar bilan o'qidi.

1982-yilda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg'ulashtirish» kafedrasini Boris Zeydman sinfida, 1986-yili asisstanturani professor Feliks Yanov-Yanovskiy rahbarligida bitirdi.

Kompozitor A. Mansurov ish faoliyatini 1973-yilda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi. 1981—1983-yillarda o'qish bilan bir qatorda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi bolalar musiqa maktabida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o'qishni bitirgach, kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida asisstanturada qoldirildi. Mazkur kafedrada katta o'qituvchi, dotsent, «Sharq fakulteti» dekani, «Kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si mudiri va 2000-yildan boshlab konservatoriya o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimida ishlamoqda.

A. Mansurov birinchi ijodiy qalamini fortepiano uchun «Qizcha va tulki», «Qo'rqinchli tush» ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. Skripkachilar ansambli uchun «So'zsiz qo'shiq», fortepiano uchun «Tokkata-preludiya» va bir necha qo'shiqlar yaratdi. A. Mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal janrlar ustunlik qiladi. Uning ovoz skripka va fortepiano uchun yozgan «Muhabbat» lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Ayniqsa, bolalar qo'shiqlarini yaratishda A. Mansurov yuqori natijalarga erishdi. O'ztelebadiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi ijrosida yangragan «Quyosh bilan suhbat», «Kel, baxt kuyin kuyaylik», «Oq kabutar parvozi», «Hur respublikam», «Muzqaymoq», «Tomchilar qo'shig'i»,

«Dakan ðo‘roz», «Quvnoq bolalar», «Qo‘shig‘im, jon qo‘shig‘im», «O‘zbekiston onajon» kabi 100 dan ortiq qo‘shiqlari mashhur bo‘lib, kompozitorga shuhrat keltirdi. Kompozitor estrada janrida ham unumli ijod qilib kelmoqda. «Navro‘z», «Chimyon», «Chaman-chamanim», «Talabalar qo‘shig‘i», «Oydin yo‘l» kabi estrada qo‘shiqlari shular jumlasidandir. Kompozitor A. Mansurovning ijodiy faoliyatida teatr sahna asarlariga musiqa bastalash ham ustivor turadi. Jumladan: «Hayvonlar sultoni», «Sharq afsonasi», «Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi», «Xo‘ja Nasriddinning 41-pashshasi», «Ur, to‘qmoq» musiqali komediyalarni yaratdi.

Simfonik orkestr uchun ikkita simfoniya, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun uvertura, damli cholg‘ular orkestri uchun «Karnay sadosi» va «Askarlar marshi», «Sug‘diyona», kamer cholg‘u asarlari, fortepiano uchun «Hayvonot bog‘ida sayr» kabi musiqali asarlarni yaratdi.

Avaz Mansurov O‘zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, O‘zbekiston Respublikasi faxriy yorlig‘i, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklarining fa’riy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Fattoh Nazarov(1919—1982)

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida o‘izmat ko‘rsatgan artist, dirijor, kompozitor, professor Fattoh Nazarov o‘z ijodkorlik, dirijorlik, o‘qituvchilik va jamoatchilik faoliyati bilan XXasr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning yaratgan turli janrdagi kuy-qo‘shiqlari bolalar bog‘chalari, o‘rta ta’lim va musiqa maktablarida keng qo‘llanib kelinmoqda.

Fattoh Nazarov 1919-yil 1-yanvarda Bishkek shahrida hunarmand oilasida tug‘ildi. Fattohning musiqaga havasi juda erta uyg‘ondi. Uonasining allalari, dutor chalib, qo‘shiq aytishlarini va baytlarini tinglab o‘ydi. Mahallaning o‘zbek va qirg‘iz ahli to‘ylarida yangragan musiqa sadolari uni o‘ziga maftun qilar edi. Uning ba’otiga umumta’lim maktabini bitirgan yili shahar musiqa studiyasi ochildi. Fattoh Nazarov birinchilardan bo‘lib klarnet chalishni o‘rgana boshladi. Uning musiqiy qobiliyati va a’lo o‘qishini nazarga olib, 1935-yil Ippolitov-Ivanov nomidagi Moskva musiqa bilim yurtiga o‘qishga tavsiya etildi. Mazkur o‘quv yurtida klarnet va violonchel mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qidi. O‘quv yurtini

bitirish arafasida 1939-yili harbiy õizmatga chaqirildi. Uharbiy qism damli orkestrida klarnetchi bo‘lib xizmat qildi, bu unga o‘qishni bitirish imkonini berdi. Ikkinchi jahon urushi harbiy xizmatdan qaytishga yo‘l qo‘ymadi. 1941—1944-yillarda F. Nazarov oddiy askar bo‘lib xizmat qildi.

Moskva konservatoriyasi qoshidagi harbiy dirijorlik fakultetida o‘qigach, u 1945-yili ona shahriga qaytdi. Bishkek drama teatri musiqa rahbari va Qirg‘iziston Davlat filarmoniyasining xalq cholg‘ulari orkestri dirijori lavozimlariga tayinlandi. 1947-yili F. Nazarov Toshkent Davlat konservatoriyasining opera simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. 1949—1950-o‘quv yilidan boshlab Georgiy Mushel sinfida kompozitsiyadan dars ola boshladi. 1951-yili konservatoriyaning dirijorlik sinfi bo‘yicha bitirib, O‘zbekiston radiosi qoshidagi simfonik orkestr dirijori lavozimiga tayinlandi, so‘ngra O‘zbek filarmoniyasining simfonik orkestriga ishga o‘tkazildi. 1955-yili yozgan IVqismli simfoniyasiga o‘zi dirijorlik qilib, konservatoriyaning bitirdi va ikkinchi marta diplom olishga muvaffaq bo‘ldi.

1952—1958-yillarda Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan dirijor bo‘lib ishladi.

1952—1982-yillarda konservatoriyaning o‘zbek xalq cholg‘ulari fakultetida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent va professor lavozimlarida ishladi.

F. Nazarov 1948-yilda skripka va fortepiano uchun bastalagan «Qo‘shiq va raqs» kuyi, g‘ijjak va fortepiano hamda skripka va fortepiano uchun poema, fortepiano uchun «Noktyurn», «Marsh», «Fuga», «Raqs», «Vals» kabi pyesalari, skripka va fortepiano uchun «Konsertino», g‘ijjak va fortepiano, dutor va fortepiano, violonchel va fortepiano uchun pyesalar, bolalar simfonik orkestri uchun IVqismli suita, rubob uchun «Amudaryo» vals-konserti kabi asarlarni yaratdi. F. Nazarov «Ravshan», «Kuychelek kozli yar», «Aldangan qiz», «Afsonaviy shaxs», «Harflar jangi» musiqali dramalari, «Oygul va Baxtiyor» nomli radiopostanovkalari uchun musiqalar bastalagan.


Kompozitor simfonik orkestr, o‘zbek cholg‘ulari orkestri, damli orkestr, klarnet va estrada orkestri uchun 20 ga yaqin suita va pyesalar yaratdi. F. Nazarovning ijodiy faoliyatida ommaviy qo‘shiq, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan

qo‘shiqlar ustivor turadi. Kattalar uchun «O‘zbekiston», «Vatan mehri», «Terimchi qiz», «Qaydasan», «Qirg‘iziston», «Kel, bu oqshom», «To‘y taronasi», «Qaldirg‘och», bolalar uchun «Sayra, bulbul», «Pañtaoy», «Bo‘z to‘rg‘ay», «Oyijon», «Qish chog‘lari», «O‘quvchilar saroyi», «Mehribonim oyijon», «Dadajon» kabi qo‘shiqlarni yaratdi. Kompozitor bolalar va kattalar uchun 150 dan ortiq turli mavzuda qo‘shiqlar bastaladi.

F. Nazarov O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida xizmat ko‘rsatgan artist faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Toshkent shahridagi 23-bolalar musiqa maktabiga uning nomi berilgan.

“Klasster” usulidan foydalanib savol –javob o‘tkaziladi.

Siz qanday bastakorlarni bilasiz?



Musiqqa tinglash :

Sulaymon Yudakovning “Mirzacho‘l” vocal-simfonik syuitasi CD va DVD yozuvida qo‘yib eshittiriladi, qo‘shiq o‘quvchilarga katta taassurot qoldiradi.

Musiqqa savodi:

Dirijorlik qoidolari:

Dirijor fransuzcha «diriger» – *boshqarish, yo‘lga solish* degan ma‘noni anglatadi. Dirijor musiqqa asarini ijro etuvchi jamoa, solistlar, xor, orkestrga rahbarlik qiluvchi san‘atkor. Dirijormusiqqa asarining ommaviy ijrosiga qadar ijrochi jamoa bilan bo‘lgan hamma tayyorgarlikni olib boradi. Asosiy ijro vaqtida esa konsert yoki spektaklda asarning o‘ynalish tezligi, dinamik ayrim to‘da yoki yakka ijrochilarni to‘xtash yoki ijro qilish vaqtlarini ko‘rsatib turadi, jamoani birlashtiradi, ruhlantiradi va asarning badiiy ijrosi uchun harakat qiladi. Dirijor o‘ng qo‘lida kichik tayoqcha ushlab, musiqqa asaridagi taktlarning birinchi kuchli sanog‘ini pastga tushirish bilan ko‘rsatib turadi. Yuz, qo‘l, bosh va gavda harakatlari va mimikalar bilan asar mohiyatini anglatib, qanday ijro etishini ko‘rsatadi. Ikki chorak (2/4) o‘lchovida dirijyorlik qilish uchun chiroyli qomat bilan tik turib, ikkala qo‘l, yelka balandligidaoldinga ko‘tariladi, barmoqlar bo‘sh qo‘yiladi. Nafas olib, ikkala qo‘l bir tekisda quyidagi ko‘rsatilgan chiziq qo‘yilgan yo‘nalish bo‘yicha harakatlantiriladi. «Bir» deganda qo‘llar pastga tushib, yonga ketadi; «ikki» deganda esa yuqoriga ko‘tariladi va bu harakat bir maromda musiqqa tugaguncha takrorlanaveradi. «Uch chorak» (3/4) o‘lchovida dirijyorlik faoliyati chiroyli qomat bilan dirijyorlik holatini egallab, ikkala qo‘l bir-biriga teskari uch yo‘nalishda quyida chizib qo‘yilganidek, harakatlana boshlaydi. «Bir» deganda, qo‘l pastga tushuriladi, «ikki» deganda, yon tomonga ketadi, «uch» deganda, esa yuqoriga ko‘tariladi va bu harakat bir maromda musiqqa tugaguncha takrorlanaveradi. «To‘rt chorak» (4/4) o‘lchovida dirijyorlik qilganda qo‘l 4 yo‘nalishda harakatlanadi: «bir» deganda, qo‘llar pastga tushuriladi; «ikki» deganda, ular bir-biri tomon yo‘naltiriladi; «uch» deganda, o‘ng qo‘l yonga, chap qo‘l chapga yo‘naltiriladi;

«to'rt» deganda, esa qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Dirijorlik harakatlari bir tomonda musiqa tugaguncha davom ettiriladi Qaysi o'lchovda dirijyorlik qilinishdan qat'iy nazar, kuy tugaguncha xuddi osilib turgan ipni uzgandek, bir past qotib turiladi. Tegishli o'lchovni o'rganish paytida uning o'ziga xos xususiyatlarni aniqlab, shu o'lchovni asarning badiiy obrazi bilan bog'lash kerak. 2/4 o'lchovining ko'pincha raqs musiqasida uchrashini harakatlarining aniqligi, shu musiqaga xos xususiyat ekanligini, polkalarda, «Jonon» singari xalq raqslarida buni yaqqol ko'rish mumkinligini ta'kidlab o'tish mumkin. Aksincha, 3/4 o'lchovidayozilgan raqslar harakatlar-ning tekisligi bilan ajralib turadi, masalan, vals gir aylanib o'ynaladi, polonez (polyak milliy raqsi) salovatli bo'lib, tizzalarni ohista egib-egib o'ynaladi. Tantanali bayram marshlari, madhiyalar va boshqa musiqa asarlari faqat aniqlik bilangina emas, balki hajm kengligi va tovush yangrashining bir tekisligi bilan ham ajralib turadi, bunday asarlar 4/4 o'lchovida yozilgan bo'ladi. Mana shu o'lchovlar orqali dirijorlik harakati amalda bajariladi.

Mustahkamlash uchun test savollar.

1. Orkestrda 5-chi guruhga qaysi cholg'lar kiradi.
 - A. Chang-1, chang-2, sato.
 - B. Doira, kichik nog'ora, katta nog'ora, zafoil, qayroq.
 - C. Rubob-1, rubob-2, dutor.
 - D. Gijjak-1, gijjak-2, dutor, dutor bas.
2. Orkestrda 1-chi guruhga qaysi cholg'lar kiradi.
 - A. Gijjak-1, gijjak-2, dutor, dutor bas.
 - B. Rubob-1, rubob-2, dutor, dutor bas.
 - C. Doira, kichik nog'ora, katta nog'ora, zafoil, qayroq.
 - D. Kichik nay, nay-1, nay-2, qo'shnay, sunray.
3. Qashqar rubobining sozlanishi.
 - A. Lya, re, si yoki lya (1-1- kichik oktava).
 - B. Lya, sol, lya (1-2- kichik oktava).
 - C. Lya, mi, lya yoki si (1-1- kichik oktava).
 - D. Lya, sol, lya yoki si (2-1- kichik oktava).

4. Orkestrda 4-chi guruhga qaysi cholg'lar kiradi.
- A. Gijjak-1, gijjak-2, gijjakbas, gijjakkontrabas.
 - B. Gijjak-1, gijjak-2, dutor, dutor bas..
 - C. Rubob-1, rubob-2, dutor bas. gijjakkontrabas.
 - D. Gijjak-1, rubob-2, dutor, dutor bas.
5. Dutorning sozlanishi.
- A. Lya, sol (2-1- chi oktava)
 - B. Lya, mi (1-1- chi oktava).
 - C. Mi, lya (1-1- chi oktava).
 - D. Lya, re (2-1- chi oktava).
6. Orkestrda 3-chi guruhga qaysi cholg'lar kiradi.
- A. Rubob-1, rubob-2, dutor bas, gijjak-1, gijjakkontrabas.
 - B. Rubob-1, doira, kichik nog'ora, zafoil, qayroq, dutor -1.
 - C. Rubob prima, rubob-1, rubob-2, afg'on rubobi, dutor-1, dutor-2, dutorbas, dutor kontrabas.
 - D. Rubob-1, dutor -1, dutor bas, gijjak-1, gijjak-2, gijjakbas.
7. Sinfonik orkestr tarkibidan kiritilgan urma-zarbli cholg'ular.
- A. Doira, litavra, katta nog'ora, zafoil, qayroq, uchburchak.
 - B. Litavra, kichik baraban, katta baraban, uchburchak, tarelka.
 - C. Litavra, kichik baraban, kichik nog'ora, uchburchak, doira.
 - D. Doira, kichik baraban, dutor bas, tarelka, gijjakbas.
8. Nay musiqa cholg'usi qaysi viloyat qazilma boyliklaridan topilgan
- A. Samarqand
 - B. Toshkyent viloyati
 - C. Jizzax viloyati
 - D. Xorazm viloyati

Uyga vazifa: Mavzuni mustaqil o'qish.

XULOSA

Barkamol shaxs tarbiyasi barcha zamonlarda inson aql-zakovati, Tarbiyashunoslik ilmi xulosalari yo'naltirilgan eng muhim soha hisoblangan. Bu sohaning o'ziga xos «sho'ba»lari ichida musiqa san'atining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan. Shu bois ham ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Marog'iy, Al Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Darvesh Ali Changiy, Alisher Navoiy) musiqaga ham ilm sohasi, ham san'at, ham tarbiya vositasi sifatida alohida ehtirom bilan qarashgan, uning turli muammolariga oid yirik asarlar, risolalar yaratganlar. Bu asarlar musiqiy- nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy nufuzini yo'qotgan emas. Biroq har qanday sohada bo'lgani kabi, musiqiy ta'limda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablari mavjud bo'lib, u har bir ijtimoiy davrning ta'limga buyurtmasi, ehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsin shakllantirishda musiqiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zni mazkur o'quv metodik qo'llanma natijalarida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

«Musiqa madaniyati» darslari o'quvchilarga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta'sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi o'quvchilarda musiqaga barqaror qiziqishni tarbiyalaydi, muhimi ular yaxshi musiqani, janrlarni, xalq va mumtoz musiqasini ajratishga o'rganadilar. Tadqiqot natijalari bolalarning qiziqish bilan qo'shiq kuylab, musiqa tinglab, kompozitorlar hayoti bilan tanisha boshlaganliklarini ko'rsatdi. Hatto avvaliga musiqa madaniyati darslariga e'tiborsizlik bilan qaragan o'quvchilar ham, ohir-oqibatda musiqa madaniyati darslariga ko'tarinki ruhda, biror bir yangilikdan xabardor bo'lish niyatida kela boshladilar. O'quvchilarda «Musiqa madaniyati» o'quv fani tarkibidagi turli xil faoliyatlarga bo'lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko'pchilik o'quvchilarda musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish jarayonlariga savodli, ya'ni ongli ravishda yondashish malakalari

shakllandi. O'quvchilarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ularda o'z fikrlarini bimalol bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. «Musika madaniyati» darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning musiqiy bilimlarga, jumladan musiqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. O'quvchilar endilikda musiqiy boshqotirmalarni bimalol yechadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo'ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T."O'zbekiston" 2015 y.
2. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. T. "Muharrir" 2010 y.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T."O'zbekiston", 2008 yil.
4. Sharipova G.M. «Musiqa o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma T. 2008yil.
5. O.Ibrohimov . Musiqa darsligi. V-VII sinf. T.2008 yil.
6. E.Fayzullayev. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi.T.Fan va texnologiyalar nashriyoti-2007yil.
7. S.Yo'ldosheva. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogic asoslari. Toshkent 2007 yil.
8. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T."O'zbekiston", 2006 yil.
9. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006 y., -198 b.
10. N.V.G'aybullayev,R.Yodgorov,R.Mamatqulova Pedagogika. Toshkent 2005 y.
11. O.Matyoyubov. Dodekagramma. T.Istiqlol. 2005 yil.
12. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish.T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 yil
13. G.I.Maxmudova. Oliy pedagogic tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogic xususiyatlari. Toshkent, 2004 yil.
14. Begmatov S, Q.Mamirov.Musiqa. 6-sinf uchun darslik.Toshkent.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.
- 15.O.Ibrohimov, Sh.Sodiqov. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.
16. O.Ibrohimov, O.Yo'ldoshev. Musiqa. 4-sinf uchun darslik.Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2003yil.
17. O.Ibrohimov, O.Yo'ldoshev. Musiqa. 4-sinf uchun darslik.Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2003yil.

18. A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa. 5-sinf uchun darslik.Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2002 yil.
19. R.Mavlonova. Pedagogika. "Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va me'zonlari" Toshkent, 2001 yil.
20. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.O'zbekiston, 1997 yil.
21. www.pedagog.uz sayti.
22. www.ziyouz.com portali.
23. www.ziyouz.com ta'lim portali.

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti, Pedagogika
fakul'teti, 5111100 - musiqa ta'limi yo'nalishi**

**IV bosqich talabasi IsaQulov G'ulomning "Musiqi darslari, musiqa
savodxonligi jarayonida bastakorlar va xalq hofizlari ijodiyotini o'rganish
metodlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

O'zbek musiqa san'ati asrlar osha o'zbek xalqi tomonidan ulug' ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og'zaki uslubda shakllanib, rivojlanib kelgan; xalq orasidan ajoyib bastakorlar, ijrochilar yetishib chiqqan. O'zbek musiqa ijodkorligi asosan bastakorlik uslubida shakllanib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa o'zbek musiqa san'atida Yevropa musiqa nazariyasiga asoslangan kompozitorlik uslubi ham keng rivojlandi va bu uslubda o'zbek kompozitor - bastakorlari ham ko'plab musiqa durdonalarini yaratmoqdalar. Kompozitorlarning asosiy ijod manbai bu xalq musiqasidir. O'zbek bastakor va kompozitorlari ana shu cheksiz manbadan foydalanib musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilmoqdalar.

Musiqa bu inson qalbi, shuning uchun ham inson musiqasiz, san'atsiz tarbiya ololmaydi. Mustaqil Respublikamizning vazirlar mahkamasi chiqargan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da musiqa ta'lim vositalari bilan yosh avlodni tarbiyalash, o'tgan davr va hozirgi zamon kompozitorlari asarlari vositalari bilan tariximizni o'rganish va uni bilib olish imkoniyatidan foydalanish kabi maqsadlar qo'yilgan. Sermazmunlik-bu musiqa san'atida xos xususiyatdir. Lekin "Musiqi va hayot" mavzusi umumta'lim maktablardagi musiqa darslarining asosiy negizi hisoblanadi.

O'zbekiston kompozitorlarining juda ko'p asarlarida mehnatni, o'z xalqini, o'z Vatanini ardoqlash mavzulari tobora kengroq ko'zga tashlanmoqda. Bu asarlardagi tuyg'ular maktab o'quvchilarini har tomonlama yuksaltirib yuqorida aytilgan mavzular vositalari bilan yosh avlodni o'z mehnatini, xalqiga bo'lgan hurmatini va vataniga nisbatan sadoqatini e'zozlashga sababchi bo'la oladi.

Bitiruvchi Isaqulov G'ulom bitiruv malakaviy ishi "Musiqi darslari, musiqa savodxonligi jarayonida bastakorlar va xalq hofizlari ijodiyotini o'rganish metodlari" mavzusida yozilgan.

Malakaviy ish kirish qismi, ikki bob, 6 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ish ilmiy darajada yozilgan bo'lib, uni bajarishga qo'yilgan talablarga mos tarzda bayon etilgan. Men, ilmiy rahbar sifatida bitiruv malakaviy ishni YaDA himoyasiga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar:

Sh.N.Mustafayev

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti, Pedagogika
fakul'teti, 5111100 - musiqa ta'limi yo'nalishi**

**IV bosqich talabasi Isoqulov G'ulomning "Musiqi darslari, musiqa
savodxonligi jarayonida bastakorlar va xalq hofizlari ijodiyotini o'rganish
metodlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Yoshlarda Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir. O'z tabiati bilan milliy va baynalminal bo'lgan musiqa san'ati bu borada eng ta'sirchang vositalardan. Musiqani tushunish, ongli idrok etish va uning orombaxsh ta'sir kuchidan ma'naviy oziqlash darslarda o'smirlarning vatanparvarlik va baynaminallik his-tuyg'ularini o'stirishga yordam beradi. Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida vatanparvarlik yo'nalishidagi musiqiy asarlarni tanlash va bir tizimga solish aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni mumtazamligi va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi. Shu yo'nalishda musiqiy asarlarni tinglash va tahlil qilishda o'quvchilarni hissiy faolligini ta'minlash orqali ongli idrok etish darajalarini o'ttirish lozimdir. Maktab musiqa darslarida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash jarayonida o'qituvchining eng ta'sirchang va samarali pedagogic rahbarligini ta'minlashga erishish zarurdir. Shu mavzudagi xor asarlarni ijro etishida maktab musiqa o'qituvchisi o'quvchilaridan ko'tarinki ruhda, bardamlilik bilan, g'urur tuyg'ularida qo'shiqni aytishlariga o'rgatadi.

Ishning nazariy qismida muammolarni yechimini ajratib ko'rsatish, musiqa madaniyati darslarida va badiiy havaskorlik to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchi-yoshlarning o'zbek kompozitorlarining vatanparvarlik mavzusidagi asarlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanish, musiqa madaniyati darslari sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'zbek kompozitorlari asarlari vositasida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish kabi vazifalar qo'yilgan.

Bitiruv malakaviy ishida xor jamoalari shuningdek jo'rsiz xor asarlari orqali o'quvchi yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash vositalaridan biri ekanligi ilmiy asoslab yozilgan. Isoqulov G'ulomning "Musiqi darslari, musiqa savodxonligi jarayonida bastakorlar va xalq hofizlari ijodiyotini o'rganish metodlari" mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi ba'zi bir kamchiliklarga ega. Lekin bu bitiruv malakaviy ishning mohiyatiga ta'sir etmaydi.

Bitiruv malakaviy ishi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligining (DAK) talabalariga javob beradi va himoyaga tavsiya etaman.

**SamVXTXQTMOI amaliy fanlar va
maktabdan tashqari ta'lim kafedrasi o'qituvchisi:**

Z.Nazarova

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I-BOB. Musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirish.....	
1.1. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa savodini o'rganish yo'llari.....	
1.2. Musiqa savodini o'rgatishda interfaol usullar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi.....	
1.3. Musiqa madaniyati darslarida faoliyatlar ketma-ketligiga amal qilish uslublari.	
II-BOB. O'zbek bastakorlik va kompozitorlik san'atining tarixi va taraqqiyoti....	
2.1. O'zbek musiqa ijodkorligida bastakorlik uslubining shakllanishi.....	
2.2. O'zbek kompozitorlarining hayoti va ijodi taraqqiyoti va tarixi.....	
2.3. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek bastakorlari va xalq hofizlari ijodini o'rganish va tajriba – sinov ishlari.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

